

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası

Qo‘l yozma huquqida

UDK

YAKUBOVA SHAHNOZA ABDURAHMONOVNA

“Buyuk ipak yo‘lida joylashgan shaharlar tarixi”

(O‘zbekiston shaharlari misolida)

5A 120302 Tarix (mamlakatlari va yo‘nalishlar bo‘yicha)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

t.f.n. N.Rajabova

Qarshi - 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. BUYUK IPAK YO‘LINING JAHON SIVILIZATSIYASI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI	
1.1. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va yo`nalishlar.....	8
1.2. Buyuk ipak yo‘li manbashunosligi.....	24
II BOB. BUYUK IPAK YO‘LI BO‘YIDAGI SHAHARLAR TARIXI	
2.1. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan shaharlar tarixi.....	46
2.2. Buyuk ipak yo‘li bo‘yida joylashgan karvonsaroy va sardabolar tarixi.....	60
III BOB. BUYUK IPAK YO‘LI VA HOZIRGI ZAMON	
3.1. Buyuk ipak yo‘li tarixini o`rganishda YUNESKO ning roli	70
3.2. Mustaqillik yillarida Buyuk ipak yo‘li an`analarini tiklash va rivojlantirishda O`zbekistonning ishtiroki	74
XULOSA	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	80
ILOVALAR	83

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Miloddan avvalgi I ming yillikning oxiri - milodiy I ming yillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeanigacha cho‘zilgan ulkan geografik hudud madaniyati yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar - Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podsholigi, Qang‘ davlati, Parfiya davlati, Rim saltanatining chegaralari bir-biriga tutuash edi. Ushbu zabardast saltanatlar va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixida birinchi bo‘lib “Buyuk ipak yo‘li” deb nomlanuvchi bir yo‘l bilan bog‘landilar. Umumiy uzunligi 12 ming km bo‘lib, Xitoydan O‘rta Yer dengizining shimoliy qirg‘oqlariga qadar cho‘zilgan bu yo‘l orqali ko‘pgina xalqlar va elatlar turli tomonlama munosabatlar o‘rnatdilar. Podsholarning o‘zaro elchilar yuborishlari, bir-biriga har xil sovg‘alar in‘om etishlari an‘anaga aylandi. Sharq bilan G‘arb madaniyatining bir-biriga ta‘siri kuchaydi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 may kunlari Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumida ““Bir makon, bir yo‘l” – manfaatlarimiz mushtarak” mavzuida so‘zlagan nutqida “Biz qayta tiklayotgan Buyuk ipak yo‘lida Samarqand, Buxoro, Xiva kabi bir necha ming yillik tarix va boy madaniyatga ega bo‘lgan shaharlar joylashgan”, deb e‘tirof etgan edi¹.

O‘rta Osiyoning ichki va tashqi aloqalari tizimida O‘zbekistonning tutgan o‘rmini yoritib berish vatanimiz tarixshunosligida muhim ahamiyatga ega masaladir. Bu O‘zbekiston hududining Sharq va G‘arb dunyosi o‘zaro muloqotga kirishadigan muhim tranzit yo‘llar kesishgan chorrahada joylashganligi bilan izohlanadi.

O‘lkamiz tarixida o‘z yechimini kutayotgan voqealar talaygina. Ayniqsa dunyo fani va madaniyatining ravnaqiga, hunarmandchilik va sanoat markazlarining tarkib topishiga, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy

¹ Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. B. 410.

aloqalarining o'rnatilishi, hatto zamonaviy temir va avtomobil yo'llari tarmoqlarining qurilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan Buyuk ipak yo'lining ko'pgina qirralari hanuzgacha jumboqligicha qolmoqda. So'nggi paytlarda bu masalaga dunyo olimlar, sayyohlari, umuman keng jamoatchilikning e'tibori ancha kuchaydi. Jumladan, YUNESKO homiyligida XX asrning so'nggi 90-yillari Buyuk ipak yo'lining "o'n yilligi" deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan respublikamiz, O'rta Osiyo respublikalari va xorijda Buyuk ipak yo'lining shakllanish tarixi va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga bag'ishlangan ko'plab anjumanlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda, turli mavzularda ilmiy va ilmiy-amaliy ekspeditsiyalar uyushtirilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Sharq bilan G'arbni birlashtiruvchi Buyuk ipak yo'lining muhim bo'g'inida joylashgan. Shuning uchun ham Respublika O'lkashunoslar Jamiyati a'zolari, shuningdek keng jamoatchilik Buyuk ipak yo'li tarmoqlarini atroflicha tadqiq etishga katta e'tibor bermoqda. Bu xayrli ishda ilmiy ekspeditsiyalar tarkibidagi arxeolog, tarixchi, geograf, geolog, biolog, zoolog, etnograf, shifikor, sayyoh, alpinist, kinorejissor kabi ko'plab kasb egalari faol ishtirok etishmoqda.

1990 yilgi ilmiy ekspeditsiyalar davrida to'plangan ma'lumotlar hamda maxsus adabiyotlarda keltirilgan dalillarga qaraganda karvon yo'llaridagi yirik shaharlarda, karvonsaroylardagi savdo-sotiq jarayonida ko'plab ipak, shoyi, chinni buyumlar, ko'zgu, zebu-ziynatlar, rangli ma'danlar (oltin, mis, kumush va hakoza) va ulardan yasalgan buyumlar, qimmatbaho toshlar, gilam, so'zana, zotli ot, tuya, qandolat, tuz, shifoboxsh o'simliklar, sharob kabi xilma – xil mahsulotlar ayirboshlangan.

Buyuk ipak yo'lining O'zbekiston hududi bo'ylab barpo etilgan shaharlar tarixini o'rganish mavzuning dolzarbligini tashkil qiladi.

Tadqiqotning davriy chegarasi mil. avv. II asrdan milodiy XVI asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan O'zbekiston shaharlari tarixi masalasi mamlakat tarixini o'rganishdagi yangi

yo`nalishlardan biri hisoblanadi. Buyuk ipak yo`lida joylashgan shaharlar tarixi bo`yicha ilmiy amaliy ishlar mustaqillikka erishgandan so`ng ko`proq o`rganila boshlandi. Buyuk ipak yo`lining shakllanishi yo`nalishlari, uning butun jahon taraqqiyotiga qo`shgan hissasi kabi masalalarni o`rganishda ko`pgina olimlarimiz ilmiy tadqiqotlar olib borogan. Bulardan A.K.Qirg`izboyevning “O`zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” monografiyasida O`zbekistonning Buyuk ipak yo`lini tiklash borasida Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi chuqur tahlil qilib berilgan. Bundan tashqari Ablat Xo`jayevning “Buyuk ipak yo`li”, arxeolog olim O`zbekiston FA akademigi E.Rtveladzening “Buyuk ipak yo`li” ensiklopedik ma`lumotnomasi (rus tilida “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 1999), Abduxaliq Abdurasul o`g`lining “Buyuk ipak yo`li” mavzusida olib borogan tadqiqotlarini aytishimiz mumkin.

Buyuk ipak yo`lini o`rganish va qayta tiklash masalalari Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma`ruzalarida bayon etilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Buyuk ipak yo`lining O`zbekiston hududida barpo etilgan shaharlar tarixini yangi manbalar asosida o`rganish, tadqiq etish ishning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari.

- Buyuk ipak yo`lining shakllanishi va yo`nalishlarini tarixiy tadqiqotlarga asoslangan holda tadqiq qilish;
- Buyuk ipak yo`li manbashunosligiga oid manbalarga izoh berish;
- Buyuk ipak yo`lida joylashgan O`zbrkiston shaharlari tarixini tarixiy ma`lumotlar asosida tahlil qilish;
- O`zbekistonning Buyuk ipak yo`li bo`yida joylashgan karvonsaroy va sardabolar tarixini o`rganish;
- Buyuk ipak yo`lini tiklashda YUNESKO ning rolini yoritib berish;
- Buyuk ipak yo`lining rivojlanishini o`rganish O`zbekiston Respublikasining hozirgi zamon tarix fani oldidagi ahamiyatini ko`rsatib berish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Magistrlik dissertatsiyasiga asosiy manba bo`lib Buyuk ipak yo`li va Buyuk ipak yo`lida joylashgan O`zbekistonning qadiymiy shaharlariga bag`ishlab yaratilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, hukumat farmonlari xizmat qildi. Shuningdek, Qarshi Davlat Universiteti kutubxonasida saqlanayotgan asarlar, gazeta va jurnallar, turli hajmdagi ilmiy to`plamlar dissertatsiyaning manbaviy asosini boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqotning obykti sifatida Buyuk ipak yo`lida joylashgan shaharlar tarixini O`zbekiston shaharlari misolida yangi manbalar asosida yoritib berish hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Buyuk ipak yo`lining jahon sivilizatsiyasi tarixida tutgan o`rni va O`zbekistonning Buyuk ipak yo`li an`analarini qayta tiklash va rivojlantirishdagi ishtiroki, O`zbekistonning Buyuk ipak yo`lib bo`yida joylashgan shaharlari tarixini o`rganish natijalari ishning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning nazariy - metodologik asosi. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov va O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarida bayon etilgan yangicha fikr - mulohazalar, ma`ruza va nutqlarida bildirilgan xulosalar, shuningdek, mamlakatimiz tarixchi olimlarining mazkur mavzu bo`yicha yozgan ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Buyuk ipak yo`lining shakllanishi va yo`nalishlarini tarixiy tadqiqotlarga asoslangan holda tadqiq qilindi;
- Buyuk ipak yo`li manbashunosligi turli manbalar asosida ko`rsatib berildi;
- Buyuk ipak yo`lida joylashgan O`zbekiston shaharlari tarixi tarixiy ma'lumotlar asosida tahlil qilindi;
- O`zbekistonning Buyuk ipak yo`li bo`yida joylashgan karvonsaroy va sardabolar tarixi o`rganildi;
- Buyuk ipak yo`lini tiklashda YUNESKOning roli yoritib berildi;
- Buyuk ipak yo`lining rivojlanishini o`rganish O`zbekiston Respublikasining hozirgi zamon tarix fani oldidagi ahamiyati ko`rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida bayon etilgan mulohazalar, nazariy xulosalar va amaliy takliflar Buyuk ipak yo`li shakllanish tarixi, uning davlatlararo ma`naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda tutgan o`rni hamda Buyuk ipak yo`lida joylashgan O`zbekiston shaharlari, karvonsaroy va sardobalar tarixini o`rganish asos qilib olish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. Tadqiqot ishi Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti O`zbekiston tarixi kafedrasida, Ijtimoiy fanlar fakulteti, O`zbekiston tarixi kafedrasida qoshidagi “Yosh o`lkashunos” to`garagida ma`ruza qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Kirish, uch bob, olti fasl, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati hamda ilovadan iborat bo`lib, 90 sahifani tashkil etadi.

I BOB. BUYUK IPAK YO‘LINING JAHON SIVILIZATSIYASI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

1.1. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va yo‘nalishlari

Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Yaqin va O‘rta Sharqdagi turli o‘lkalar va tarixiy-madaniy viloyatlarni bog‘lab turuvchi ma‘lum ma‘nodagi karvon yo‘llari tartibi hamda madaniy, siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy aloqalari ildizi neolit davri (miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklar) bilan bog‘lanadi. Chunki aynan mana shu davrda O‘rta Osiyoda ilk dehqonchilik madaniyati paydo bo‘lib yangi yerlar aholi tomonidan jadallik bilan o‘zlashtirib boriladi. Bu jarayon bronza davriga kelib yanada kuchayadi.

Bronza davrga kelib O‘rta Osiyoda ko‘p sonli qabilalar va etnik guruhlar joylashgan bo‘lib, Qoraqum va Qizilqum cho‘llarining ichki hududlari hamda Pomir va Oloyning yuqori mintaqalaridan tashqari barcha hududlar o‘zlashtirib bo‘lingan edi. Bu hududlardagi moddiy madaniyat umumiy holatda ikki guruh chorvachilik xo‘jaligi sohiblari bo‘lgan Andronova tarixiy-madaniy jamoalari (shimoliy mintaqa) va dehqonchilik xo‘jaligi yuritgan Namozgoh tarixiy-madaniy jamoalariga (janubiy mintaqa) bo‘linadi. Ular va ularga qo‘shni bo‘lgan hududlar o‘rtasida almashinuv savdo munosabatlarining jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Ma‘lum hududlarda tayyorlangan mahsulotlar yoki xom ashyoning boshqa bir hududlardan topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Misol uchun Andronova madaniyatiga xos idishlar Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyona hududlaridan topilgan bo‘lsa, Xorazmda tayyorlangan sopol va metall shimoliy hududlarda ko‘plab uchraydi. Zamonbobo va Gujayli yodgorliklaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan mahsulotlar topilgan (Zamonbobo - quyi Zarafshon bo‘yi, Gujayli - quyi Qashqadaryo)².

Savdo-sotiqda asosiy vositachi sifatida tanga pullar ishlatilganga qadar muomalada qanday buyumlar ishlatilgan. Qadimgi tosh asrida (paleolit) ayirboshlash muomalasi asosan tosh qurollar bilan chegaranilgan.

² O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2-jild. – T., O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2001. B. 256.

Kavkazortiga xos buyumlarning shimoliy hududlarda uchrashi yoki Qrim yarim oroli makonlaridagi qurollarning Rus tekisligida paydo bo'lishi bunga misol bo'la oladi.

O'zbekiston hududida savdo-sotiqning dastlabki ko'rinishlari (Navoiy viloyati) Uchtut ustaxonalarida ishlangan mehnat qurollarida kuzatiladi. Yuqori paleolit va ayniqsa mezolit (o'rta tosh) asridan boshlab mol ayirboshlash va muomalada suyakdan yasalgan qurollar va hayvonlar ham ishlatila boshlagan.

Eneolit (mis-tosh) va ayniqsa bronza asridan boshlab hunarmandchilikning ixtisoslashuvi tufayli mintaqalararo savdo va ayirboshlash yuzaga keldi. O'lkalarni iqtisodiy jihatdan bog'lab turgan tabiiy savdo yo'llari paydo bo'ldi. Tanga pullar paydo bo'lgunga qadar savdo-sotiq va ayirboshlash jarayonida qoramol, qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar, quyma kumush va oltin yombilar ekvivalent bo'lib xizmat qildi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar bu yo'lni "Lojuvard yo'li" (Lazurit, La'l) deb ataydilar. Bronza davridagi O'rta Osiyoning savdo yo'llaridan biri Baqtriya va Marg'iyonani qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Miloddan avvalgi III ming yillikda Messopatamiyada Badaxshon lojuvardi mashhur bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikricha o'sha davrdagi yana bir yo'l Badaxshondan janubi-sharqqa tomon Afg'oniston orqali O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarini Mesopotamiyaning shaharlari - Ur, Uruk, Kesh, Lagash va boshqalar bilan bog'lagan. Miloddan avvalgi II ming yillikka kelib Farg'ona va Shosh hududlari ham qadimgi Sharq bilan aloqalar o'rnatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra bu davrda Mesopotamiya shaharlaridan chiqqan savdo yo'llari Eron va Janubiy Turkmaniston orqali Baqtriya va So'g'diyonadan o'tib Farg'onaga kelgan. Bu yo'lning bir tarmog'i Farg'onadan sharqqa Dovon orqali Sinszyan, Shimoliy Xitoyga ketgan³.

Bronza davri yo'llarida qatnagan ot, eshak, tuya karvonlari orqali qimmatboho toshlar, fil suyagi va undan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, ba'zi

³ O'zbekiston tarixi. - Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2003. B. 24-25.

hollarda mayda chorva va g'alla tashilgan. Turli hududlardan topilgan arxeologik topilmalar shu jarayonlardan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmiga kelib Gretsiya va Misrdan O'rta Osiyo va Hindistonga qadar ulkan hududlarda tashkil topgan ahmoniyalar davlati ko'pgina davlatlar, xalqlar va elatlarning turli tomonlama munosabatlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'rinda ayniqsa bu davrda paydo bo'lgan va tarixiy adabiyotlarda "Shoh yo'li" deb ataluvchi yo'lining ahamiyatini ham ta'kidlash joizdir. Bu yo'ning bir tarmog'i miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rta Yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eronddan Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan. "Shoh yo'li" dan tashqari "Cho'l", "Nefrit", "Oltin" yo'llari ham mavjud edi. "Oltin yo'li" akademik A.Sagdullayevning fikricha Qurama va Oltoy tog'lari boyliklari sharafiga bu nom qo'yilgan bo'lib, Zarafshon orqali Pop va Zarkentga borar edi. Yana bir akademik olimimiz Ahmadali Asqarov fikricha bu yo'l sibirga yo'l edi. Dovon (Farg'ona) dan o'tib, Issiqko'l qirg'oqlaridan oltin tashilgan. "Kumush yo'l" orqali Markaziy Osiyo kumushi bilan karvonlar Bolgar davlati, Kiyev va Yevropa davlatlariga borar edi.

G'arb bilan Sharqning bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog'lab kelgan ana shunday qadimgi yo'llardan biri – "Buyuk ipak yo'li" dir. Ushbu yo'l fanga "Ipak yo'li" nomi bilan XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalar edi⁴.

Qadimgi karvon yo'llaridan kimlar yurganligi ham diqqatga molik. Shubhasiz, bular orasida savdogarlar, elchilar va hajga boruvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Bundan tashqari, sayyohlar, darveshlar, xat tashuvchilar, jangchilar ham bu qadim yo'llardan foydalanishgan, qaroqchi – yo'lto'sarlar izg'ib yurgan.

⁴ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. - Toshkent, "O'qituvchi", 1997. B. 33.

Buyuk ipak yo‘lining asosiy va tarmoqli qismlarini tabiiy va iqtisodiy geografiya, etnografiya, arxeologiya, ekologiya kabi fanlarning nazariy va metodologik asoslariga tayanib tadqiq etish, karvon yo‘llarining har ikkala tomonida tutashgan maydonlarning tabiiy-ekologik va o‘lkashunoslikka oid xaritalarini tuzish, unga noyob tabiat va kishilar qo‘li bilan bunyod etilgan tarixiy-arxeologik obida va yodgorliklarni, qadimgi yo‘llarning ko‘rinishlarini tushirish lozim.

Qadimgi G‘arb – Rim, Afina dunyoning eng sharqiy chegarisi deb O‘rta Osiyo hududlarini xuddi shuningdek, Sharq-Xitoy esa “G‘arbiy mamlakatlar” deb aynan bizning diyorumizni bilar edilar. Demak, O‘zbekiston G‘arb bilan Sharq uchrashgan diyor, ikki dunyoning yaqinlashuvida, insoniyat sivilizatsiyasi yaxlitligida O‘zbekistonning xizmati buyukdir. Darhaqiqat, G‘arb – Yevropa va Sharq – Osiyo sivilizatsiyasi qachon bir-biri bilan uchrashdi⁵.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan yunon tarixchisi Gekatey “Yerning ko‘rinishi” asarida Osiyo, Sharq dunyosining ta‘rifini bergan. Yunonlar Hindistonning g‘arbiy hududlari va Pomir tog‘larini Osiyoning chegarasi sifatida, u yerlardan sharqda esa hayot yo‘q, qorong‘ulik va zulmatdan iborat cheksiz Okean deb tasavvur qilishgan.

Xuddi shuningdek, Gekateydan yarim asr keiyn, miloddan avvalgi V asr o‘rtalari o‘zining “Tarix” asarini yaratgan, tarix ilmining otasi nomi bilan mashhur bo‘lgan Gerodot ham Xitoyning borligini bilmas edi. “Quyosh chiqishidagi birinchi xalq bu-hindulardir, ularning sharqroq hududlari qumli sahrolardan iborat bo‘lib, u yerlarning qandayligini hech kim ayta olmaydi”, - deb yozadi Gerodot.

Lekin yunonlar va Rim tarixchilari bizning yurtimizni - “Baqtri”, “Xorazm”, “So‘g‘diyona”, “Marokanda”, “Ksenippa”, “Nautaka”, “Sisimetr qoyasi”, “Saklar”, “Oks va Yaksart”, “Oksiart va Rokshanak”larni dunyoga mashhur qildilar.

⁵ www.e-tarix.uz

Demak, ming yillar davomida G'arb dunyoning sharqiy chegaralari deb bizning yurtimiz hududlarini bilgan⁶.

Xitoy sivilizatsiyasi uzoq asrlar davomida tashqi dunyodan ajralgan holda mustaqil rivojlandi. Ushbu alohidalik hatto miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Konfutsiy falsafasida ham o'z aksini topdi. Unga ko'ra, dunyoning asosi mutanosiblik va nomutanosibliklardan iborat bo'lgan. Bu nima degani? Konfutsiy tilga olgan bu tushunchalar dunyoga emas, faqat Xitoyga taalluqlidir.

Mutanosiblik, bu Xuanxe va Yanszi daryolari havzalaridagi unumdor yerlar va u yerlarda joylashgan o'troq dehqonlar bo'lib, miloddan avvalgi II asrda Xitoyda hukmronlik qilgan Xan sulolasi ma'lum siyosiy maqsadlar bilan Turkistonga Chjan Szyanni elchi qilib yuborgan. Elchiga Xitoy manbalarida Dayueji (Ulug' yueji, Ulug' to'xoriylar davlatiga borib uning hukmdorini Xun imperiyasiga qarshi kurashda hamkorlik qilishga da'vat etish nomutanosiblik esa vohaning shimoli va g'arbiy chegaralaridagi qumli sahro hamda dashtlar, u yerlarda umrguzaronlik qiladigan ko'chmanchi chorvadorlar edi. Bu ikki dunyo bir-birlariga qarama-qarshi qo'yilgan edi va shu sababdan ham ularning o'zaro munosabatlari aksariyat davrlarda tinimsiz janglar tarixidan iborat bo'ldi.

Xitoyning "G'arbiy mamlakatlar"ni kashf etishi "Buyuk ipak yo'li"ning ochilishi bilan uzviy bog'liqdir.

"Buyuk ipak yo'li" qachon va qayerda shakllandi? Ushbu 1877 yili Germaniyada, nemis geografi Ferdinand fon Rixtgofenning "Xitoy" asari nashrdan chiqdi va ushbu kitobda ilk bor "Buyuk Ipk yo'li" atamasi tilga olindi. Nemis olimining niyati oqligidanmi yoki butun dunyo geograflari tilining uchida turgan atamani joyiga qo'yib, o'z vaqtida aytganidanmi - "Buyuk ipak yo'li" atamasi tez orada ommalashib ketdi va tarixda abadiy qoldi.

Savolga javob qidirish uchun bir-biri bilan bog'liq ikki voqelikni eslashni joiz deb bilamiz.

⁶ Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li . Toshkent. "O'zbekiston milliy ensklopediya"Davlat ilmiy nashriyoti.-2007. B. 91-93.

Birinchi voqelik. Miloddan avvalgi II asrda Yanszi va Xuanxe daryolari oralig'ida vujudga kelgan Xan davlati kuch-qudratga to'layotgan bir davrda, "Samoviy imperiya" tuzish niyatida yon-atrofiga hamla qilayotgan hukmdor "sirli G'arb" o'lkalariga Chjan Szyan nomli shaxsni elchi o'rnida jo'natgan. U 13 yillik safardan so'ng, miloddan avvalgi 126 yili omon-eson imperator saroyiga qaytib keldi. So'zsiz Chjan Szyan juda iste'dodli va o'ta sinchkov shaxs edi.

Ma'lumki unga josus vazifasi topshirilgandi. Ammo mazkur davlatga borish uchun u albatta Xunlar ta'siridagi hududlardan o'tishi lozim edi. Chjan Szyan Xitoyning poytaxti Chang'andan miloddan avvalgi 138 yili yo'lga chiqib, miloddan avvalgi 127 yili Farg'ona davlatiga yetib kelgan. Shu oradagi 11 yil davomida u Xunlar yurtida asirlikda bo'lgan⁷.

Xitoy elchisi asirlikdan qutulgandan so'ng, farg'onaga yetib keladi. Bu yerda u ko'p yangiliklar bilan tanishadi. Shirinlikda tengi yo'q bo'lgan Farg'ona uzumi va uning suvidan tayyorlangan ichimlik shifobaxsh ekanligi Chjan Szyanni hayratga soldi. Elchi miloddan avvalgi 126 yilda Chang'anga (hozirgi Shian shahri) qaytib borganida Xan sulolasi hoqoni Udiga (miloddan avvalgi 140-85 yillar) uzumning shirinligi va shifobaxsh ekanligi, undan tayyorlangan musallas ham inson sog'ligi uchun foydali ekanligi haqida mamnuniyat bilan so'zlab bergan va bu o'simlikni mo'jiza deb ta'riflagan. Bu haqda xitoy tarixchisi Lyu Yingsheng quyidagilarni yozadai: "Chjan Szyan g'arbiy mamlakatlarga elchi bo'lib borganida Doonda uzumdan ko'p miqdorda aroq ishlab chiqarilishini, boylar saqlaydigan uzum arog'ining hajmi ba'zida 10 ming puddan oshishini ko'rgan. Qadimda Xitoyda ishlab chiqarilgan aroqning quvvati nisbatan past bo'libgina qolmasdan, balki u osongina achib, buzilib qolar edi. Dovonda boylar saqlagan uzum arog'i bir necha yil tursa ham buzilmas ekan... Qaytishda elchi uzum tokidan Xitoyga olib ketib, Udiga taqdim qildi. Udi uzum tokini saroy bog'iga ekib qo'yishni buyurdi".

Udining farmoni bilan ekilgan tok keyinchalik ko'paytirilgan. Fikrimizcha, Chjan Szyan tokni o'stirish texnologiyasini ham yaxshi o'rganib kelgan bo'lishi

⁷ Shirinov T. G'arb bilan Sharq uchrashgan diyor. "Xalq so'zi", 2004 yil 16 oktabr.

kerak. Shundan ma'lumki, uzumning Xitoyga tarqalganiga 21 asrdan ko'proq vaqt bo'lgan.

Chjan Szyan vataniga qaytib kelganida uzumni zamonaviy xitoy talaffuzida "putuo, qadimgi talaffuzda "budav", uzumdan tayyorlangan ichimlikni esa "putuo jyu" deb atagan. Ikkinchi atamadagi "jyu" aroq so'zining ekvivalenti hisoblanadi. Lekin xitoy tilida ushbu atama barcha quvvatli ichimliklarga ishlatiladigan umumiy nom hisoblanadi. Uzumning Xitoyga tarqalishi bilan uning nomi xitoy tiliga kirib borgan. Ayrim xitoy olimlari qadimiy forsiy tilda uzum "buda", yunon tilida "budruvz" deb atalganligini hisobga olib, Chjang Szyan mana shu nomlarning birontasidan olgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilishadi.

Uzum o'stirish Xitoyga tarqalishi bilan birga, ushbu mamlakatda undan musallas ishlab chiqarish uslubi ham o'zlashtirildi.

Bedaning Xitoyga tarqalishi ham Chjan Szyanning Farg'onaga birinchi marta kelishi va bu yerda tezchopar tulpor otlarni ko'rishi bilan bog'liq bo'lgan. Chjan Szyan Farg'onada ko'rgan tulpor otlar tezlikda va uzoqqa chopishda mo'g'ul otlaridan katta farq qilgan. Shu bois elchi tulporlarni boqish uslubi bilan yaxshi tanishgan. Chjan Szyanga farg'onaliklar tulpor otlarni boqishda ishlatiladigan beda yangilik bo'lib ko'ringan. Vataniga qaytib ketishida u o'zi bilan beda urug'ini olib ketgan⁸.

Chang'anga qaytib borgandan so'ng Chjan Szyan Udi hoqonga tulpor otlar va ularni boqish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan o'simlik-beda haqida barcha ko'rgan – eshitganlarini so'zlab bergan.

Josuslik vazifasini o'tagan elchining, hatto biror-bir diqqat e'tiborga arzigulik ikir-chikirlar ham chetda qolmagan hisobotidan imperator Udi va saroy ahli hayratga tushdi. Imperator Chjan Szyanga "Buyuk sayohatchi" titulini berdi. Ilk bora "Samoviy imperiya" ayonlari sirli, afsonaviy "G'arb mamlakatlari" - Davan (Farg'ona), Kan (So'g'diyona), Kanszyuy (Xorazm), Dasya (Baqtriya), Ansi (Parfiya), Shendu (Hindiston) davlatlari haqida ajoyib-g'aroyib hikoyalarni eshitdilar. Ayniqsa, Chjan Szyanning Farg'onaning bo'yi ikki metr dan oshadigan

⁸ Zokirov Sh., Soatov A. Bu qadim yo'llar. Fan va turmush, 1991 yil. 7-son. B. 15-16.

bahaybat, o'ta baquvvat, yeldek uchadigan "samoviy otlar"i to'g'risidagi axboroti hammani hayratga soldi. Chunki, Xitoy ahli o'sha davrlarda odam minganda chavandozning oyog'i yerga tegib turadigan, harbiy yurishlar u yoqda tursin, hatto kundalik hayotda ham hech vaqoga yaramaydigan pakana, mitti poni otlarini bilar edilar. Bu axborot, ayniqsa, imperator Udini qiziqtirib qoldi⁹.

Ikkinchi voqelik. Xitoy hoqoni elchining gapini eshitib darhol shunday tezchopar otlar bilan qo'shinni ta'minlash rejasini tuza boshlagan. Shu bois Udi tulpor otlarni olib kelishdan oldin ularning asosiy ozuqasi bo'lgan bedani ham saroy yonidagi boqqa ekishga va shundan keyin uni ko'paytirishga farmon bergan. Oradan ko'p o'tmay Xitoyda beda ekish keng tarqala boshlagan.

Chjan Szyan Farg'onadan qaytib kelgandan so'ng imperator Udi shimoldan mamlakatga tahdid solib turgan turkiy Syuan qabilalariga qarshi kurashishda va yurt sarhadlarini kengaytishda muvaffaqiyat qozonishning yagona imkoniyati, bu o'z armiyasini Farg'ona otlari bilan qurollantirish ekanligini darhol tushundi, va ularni sotib olish uchun oltin pullar bilan g'amlangan katta savdo karvonini G'arbga –Davonga jo'natdi. Bu voqelik miloddan avvalgi II asrning so'nggi choragida yuz berdi, shu davrdan e'tiboran mamlakatlararo savdo yo'li ilk bora davlat nazoratida muntazam ishlay boshladi va u so'nggi "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan tarixga kirdi. Shu tariqa, Xitoy o'zi uchun G'arbni- O'rta Osiyoni kashf qildi. Ammo farg'onaliklar bir-ikkita ot sovg'a qilish bilan cheklanib, ko'p miqdorda ot sotishga rozilik bermaydilar.

Shundan keyin, miloddan avvalgi 104 yili Udi Farg'onaga Li Guangli qo'mondonligida katta qo'shin yuborib, mahalliy hukumatni tulpor otlarni berishga majbur qilmoqchi bo'ladi. Lekin Farg'onaga yuborilgan qo'shin maqsadga erisholmay, Uzgend (Uzgent)dan qaytadi. Mag'lubiyatga ko'nikolmagan Xitoy hoqoni Li Guanglini katta qo'shin bilan ikkinchi marta Farg'onaga yuborib, urush qiladi. Bu urush ham Xitoy hoqoniga u kutgan natijani bermaydi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi 102 yili Li Guangli 14 ta, boshqa

⁹ Mirzayev R. Syuan Szyan: budda ziyoratgohlariga sayohat. "Moziydan sado" jurnali №1, 2004 yil. B. 7-9.

ma'lumotlarga ko'ra 30 dan ortiq ot olib qaytib ketishga majbur bo'ladi. Shundan boshlab Xitoyda asta - sekin zotli otlar paydo bo'la boshlaydi¹⁰.

Yuqorida zikr qilingan ikki voqelik transkontinental savdo yo'lining ochilishi uchun bir turtki, sabab edi, xolos. Aslida, bu muammo mohiyatga borib taqaladi. Unga ko'ra, biror bir jamiyat, millat, davlat yakka holda boshqalardan ajralib rivojlana olmaydi. Buni amalga oshirishning ikkita yo'li bor, xolos. Birinchisi - harbiy yurishlar, ya'ni urush. Ikkinchisi – madaniy-ma'rifiy hamkorlik.

Miloddan avvalgi II ming yillardayoq O'rta Osiyodan Badaxshondan lazurit muntazam ravishda Xitoyga yetkazilib turilgan. "Buyuk ipak yo'li" faoliyat ko'rsata boshlagandan so'ng ikki buyuk qo'shni sivilizatsiyalar – O'rta Osiyo va Xitoy aloqalari nihoyatda faollashib ketdi.

Samarqandning anjiri, Farg'onaning uzumi, bodringi, anori, bedasi Xitoyda madaniylashtirildi va keng yetishtiriladigan bo'ldi. Xan, keyinchalik Tan sulolalari davrida saltanat saroylarida so'g'dlik va shoshlik musiqachilar hamda raqqosalarning san'ati ommaviylashib ketdi. O'z navbatida, Xitoydan O'rta Osiyoga, xususan O'zbekistonga chinni, pilla, shoyi, qog'oz, marvarid, simob va dorivor o'simliklar kirib keldi¹¹.

Milodiy I-II asrlarga kelib Ko'hna dunyo - Britan orollaridan tortib Tinch okeanigacha bo'lgan yerlar faqat to'rtta, lekin juda buyuk saltanatlar ta'sir doirasiga bo'lindi: G'arbda Rim imperiyasi, Sharqda Parfiya, Kushonlar imperiyasi va Xan imperiyalari edi. Ushbu imperiyalar qanchalik harbiylashganligidan qat'iy nazar, juda murakkab o'zaro siyosiy, harbiy, savdo va madaniy yo'nalishlarda muloqotlar o'rnatdilar.

Milodning I-II asrlarida yashagan rimlik geograflar Pomponiy Mila, Pliniy va Klavdiylar asarlarida dunyoning sharqiy chegarasi "ser"lar mamlakati bilan tugar edi. "Ser"lar mamlakti bu Xitoy va xitoyliklar degani edi. Chunki rimliklar ipakni

¹⁰ Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2007. B.148-149.

¹¹ Xo'jayev A. Farg'ona vodiysining Xitoy bilan savdo aloqalari. Moziydan sado, 2005 yil. 1-son. B. 13.

“serikum”, uni yetishtirganlarni “ser”lar, ya’ni “ipakli odamlar” deb nomlashgandi¹².

O‘z navbatida, Rimda yasalgan shisha va kristall buyumlar, zebu – ziynatlar ham savdo yo‘li orqali uzoq sharqqa yetib keldi. “Buyuk ipak yo‘li” so‘qmoqlaridan savdo karvonlari bilan qo‘shilib g‘oyalar ham harakatga keldi. Xuddi shu davrlarda eski Termizdagi Qora tepalik missionerlar, ajdodlarimiz butun O‘zbekiston osha Xitoyga budda dinini olib kirdilar¹³.

Ayniqsa, Tan imperiyasi gullab-yashnagan davrlarda (VII-IX asrlar) “Buyuk ipak yo‘li” dagi eng mashhur bozor Samarqandda bo‘lib, eng mohir savdogarlar esa so‘g‘dliklar edi. Shu sababdan ham so‘g‘d tili xalqaro savdo tili vazifasini o‘tagan.

So‘ngra butun tarix davomida “Buyuk ipak yo‘li”ning insoniyat sivilitsaziyasi taraqqiyotida beqiyos ahamiyatini chuqur his qilgan hukmdorlar, uni o‘z diqqat markazlarida ushlab turdilar. Chunki u ezgulikka, tinchlikka, obodonchilikka xizmat qiladi Ayniqsa, sohibqiron Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlaridan biri shuki, uning davrida “Buyuk ipak yo‘li” benihoya darajada rivoj topdi.

Buyuk ipak yo‘li – insoniyatning o‘z tarixiy mavjudligi jarayonida qanday rivojlanganligi, bir madaniyatdan boshqa madaniyatga qay holda o‘tganligi, turmush darajasini o‘zgartira olganligini yaqqol namunasi. U o‘ziga xos “Xalqlar tarixi kitobi” bo‘lib, savdo-sotiq va madaniy faoliyatda umumiy harakatini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, Buyuk ipak yo‘li shuni o‘am isbotladiki, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va muomalaning eng ma’qul usuli aynan savdo, madaniyat va ilm-fandir.

Tarixda O‘zbekiston o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra, sivilizatsiyasi, madaniyatining mohiyatiga ko‘ra G‘arb bilan Sharq o‘rtasidagi buyuk markaz vazifasini o‘tadi, ularni yaqinlashtirdi, birlashtirdi. Shu sababdan ham Sharq va G‘arbgga oid bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar millatimiz qalbida barobor aks etgan, diniy, madaniy, etnik bag‘rikengligimiz uzoq tarixiy ildizlarga egadir.

¹² Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. - Toshkent, 1997. B. 56-57.

¹³ Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. - Т., 1999. С. 78.

XX asrda Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov dunyo ahli oldida “Buyuk ipak yo‘li” ni qayta tiklash g‘oyasini ilgari surdi. Va bu yo‘lda behad ulug‘ tashkilotchilik qildi¹⁴.

Qisqa vaqt ichida ushbu missiya o‘z mevasini berdi. “Buyuk ipak yo‘li” g‘oyasi dunyo miqyosida obro‘-e‘tibor topdi. Xalqaro savdo va iqtisod rivojlanishining asosi bo‘lishi bilan bir qatorda, millatlar, davlatlar va sivilizatsiyalar muloqotiga, tinchlikka, Sharq va G‘arb yaxlit dunyo ekanligining e‘tirofiga qaytadan xizmat qilmoqda.

Buyuk ipak yo‘li asl mazmunini tashkil etgan ipak qachon va qayerda paydo bo‘ldi, degan savol masalasida fanda har xil qarashlar bor. Ammo, ipakning Vatani Xitoy bo‘lganligi shak-shubhasizdir. “Ipak yo‘li” Xitoydagi ana shu ipak savdosi bilan bog‘langan yo‘ldir. Xitoyda ipakchilikning dastlab keng tarqalgan joyi Xuanxe daryosining quyi havzasida joylashgan Shandun viloyatidir. Qadimgi Xitoydagi Sian (Shensi viloyati) Ipak yo‘lining boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Yunon muarrixlarining ma‘lumotlariga qaraganda, Xitoy ipagi Shimoliy Qora dengiz va Yaqin Sharq mamlakatlarida miloddan avvalgi V asrdan boshlab ma‘lum. Markaziy Osiyo hududida esa, Sopollitepada olib borilgan izlanishlarga qaraganda, ipakchilik janubiy viloyatlarda bronza davridan (miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalaridan) mavjud bo‘lgan. Sopollidan topilgan ipak matolari Xitoydan keltirilganmi yoki shu yerning o‘zida ishlangan matolarmi, degan masala hozirgacha javobsiz qolmoqda.

Miloddan avvalgi 111-‘105 yillarda Xitoy imperatori Udi Parfiya (Xitoy manbalarida Ansi) podsholariga, Qang‘ hukmdorigi, keyinroq esa Baqtriya yerlariga (Kushonlar) o‘z elchilarini jo‘natib ular bilan diplomatik savdo aloqalarini o‘rnatadi. Shu tariqa milodda avvalgi II-I asrlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘liga asos solinadi. O‘z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bu yo‘lning dastlabki tarmog‘i Xitoydagi Sian shahridan

¹⁴ Karimov I.A. Savdo yo‘lidan Ipak yo‘lini tiklash sari. Asarlar. 2 jild. - Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996. 366-368-betlar; Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Tanlangan asarlar to‘plami. - T., 1999; Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. - T., “Ma‘naviyat”, 2008.

boshlanib, Sharqiy Turkiston, Oʻrta Osiyo, Eron, Messopatamiya orqali Oʻrta Yer dengizigacha choʻzilgan.

Akademik Ahmadali Asqarov maʼlumotlariga qaraganda “Buyuk ipak yoʻli” yuqorida taʼkidlanganidek, Xitoyning qadimg markazi Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga keladi. Bu yerda u ikkiga ajraladi:

1. Janubi-gʻarbiy tarmoq.

2. Shimoli-gʻarbiy tarmoq.

Ipak yoʻlining janubi-gʻarbiy tarmogʻi Taklamokon sahrosi orqali Xotanga(Xoʻtan), undan Yorkentga kelib, Pomir togʻining daralari orqali Voxanga, undan Baqtriyaning bosh shahri - zariaspga (Balx) kelgan. Balxdan yoʻl yana uch tarmoqqa ajraladi. Gʻarbiy tarmogʻi Marvga, janubiy tarmogʻi Hindistonga, shimoliy tarmogʻi Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketadi.

Ipak yoʻlining shimoli-gʻarbiy tarmogʻi esa Dunxuandan Bami, Kuchi, Turfon orqali Tarim vohasiga-Qoshgʻarga boradi. U yerdan Toshqoʻrgʻon orqali Oʻzgan, Oʻsh, Quva, Axsikent, Popga, undan keyin Asht orqali Xoʻjand, Zomin, Jizzaxga, soʻngra Samarqandda Nautak yoʻli bilan birlashadi. Yoʻl Samarqanddan gʻarbga – Dobusiyaga, Malik choʻli orqali Buxoro va Romitonga, undan Varaxsha orqali Boykent va Forobga borib Amul shahriga oʻtadi. Amulda Marvdan Urganch tomon Amu boʻylab kelayotgan yoʻlga qoʻshilgan. Ipak yoʻlining asosiy karvon yoʻllaridan tashqari ichki savdo yoʻllari ham mavjud edi¹⁵.

Qadimda Marv shahri oʻzining qadimiy anʼanalari va turli geografik qulayliklariga koʻra ipak yoʻlidagi eng yirik shahar edi. Shuning uchun ham Marvda mahalliy din zardushtiylik ibodatxonalaridan tashqari Hindistonning budda, Vizantiya xristian olamining tayanchlari bor edi.

Karvon yoʻllarining yoʻnalishi faqatgina geografik shart-sharoitlarga bogʻliq boʻlmagan, baʼzi vodiylar vaqt oʻtishi bilan yoʻqolib ham ketar edi. Tabiiyki, karvon soʻqmoqlari oʻtadigan davlatlardagi hokimiyatning tuzilishi va xarakter ham bunda oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmagan.

¹⁵ Buyuk Ipak yoʻlidagi Markaziy Osiyo shaharlari. Konferensiya materiallari. Samarqand, 1994. B. 176-178.

Xan sulolasi hukmronligi davrida Xitoy tinimsiz istilochilik urushlari olib borar va buning natijasida Xuanxe va Yanszi daryolar oralig'idagi uncha katta bo'lmagan mamlakatdan ulkan mamlakatga Sariq dengizdan Sharqiy Turkistongacha cho'zilgan ulkan imperiyaga aylandi. Chjan Szyan davridan boshlab(miloddan avvalgi 139-129 yillar) xitoyliklar o'zlari uchun "g'arbiy o'lka"- O'rta Osiyoni ochdilar. Ular O'rat Osiyoga nisbatan istilochilik siyosatini yurgizdi va miloddan avvalgi II asr boshida Dovon (Farg'ona) mamlakatlariga harbiy ekspeditsiyalar uyushtirdi. Milodning 97-yilida Xitoy lashkarboshi Ban Chao Sharqiy Turkistonni bo'ysindirib, o'z qo'shinlarini hatto Marian Antioxiyasigacha olib boradi.

Xan sulolasining deyarli barcha yilnomalarida Xitoyga chegaradosh, qo'shni bo'lgan xalqlar va mamlakatlar haqida so'z boradi.

Qadim-qadimda savdo yo'li sifatida Kuyenlun orqali o'tadigan eski janubiy trassadan foydalanilgan. Budda manbalarining xabar berishicha, aynan shu yo'l bo'ylab piligrimmlar daydib yurganlar va sayohatchi Marko Palo ham shu yo'l orqali o'tgan.

Xitoyliklar Issiqko'l bo'yida yashovchi xalqlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatdilar, uyg'urlar ham ularga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan. Ammo, Tyan-Shan shimolidagi joylar aholisi xitoylik savdogarlar uchun yetib borish qiyin joylar sirasiga kirar edi, chunki bunga boshqa ko'chmanchi xalqlar xalaqit berar edilar.

Karvon yo'llari Terek tog' massivlari orqali yuqori Yaksart va Dovonga tomon borar edi. Ushbu mamlakat Xitoy savdogarlari ko'zlagan maqsadning o'zginasi edi. U yerdagi bozorlarda ipakni boshqa mamlakatlardan kelgan savdogarlar sotib olar va ipak bilan Eronni, Ikki daryo oralig'ini, Suriyani ta'minlar edilar.

Ipak yo'lining boshqa bir tarmog'i Baqtriyadan Qobul orqali Hindistonga borar edi.Miloddan avvalgi I asrda xitoyliklarning yanada uzoqroq joylashgan savdo sherigi Parfiya davlati bo'lgan.

Markaziy Osiyo orqali Xitoydan g'arbga o'tadigan savdo karvon yo'llari doimo so'g'dliklar nazorati ostida edi. So'g'dlik savdogarlar o'zlarining bu yo'ldagi hukmronliklarini saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Yenisey sohillariga qadar bo'lgan hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shansi viloyatida, Dunxuan kabi qator shaharlarida o'z karvonsaroylarini va qishloqlarini barpo qilganlar. Dunxuan shahrida III-IV asrlarda ming xo'jalikdan iborat so'g'd qishloqlari qad ko'targan. So'g'dlar IV-V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy Mo'g'ulistonga tomon ketgan uyg'ur yo'li, VIII asrda qaror topgan va Sharqiy Turkistondan Jung'oriya orqali Xakasiyaga borib yetgan qirg'iz yo'lidan foydalanganlar. Bu yo'llar ichida Dunxuandan shimoli-g'arbga ketgan ipak yo'li alohida ahamiyatga ega edi. Bu yo'lning ahamiyatini Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukmdori Udi tomonidan Sharqiy Turkiston xunnlarga qarshi ittifoq izlab, Qang'uyga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Szyan orqali ma'lum bo'lgan. Bungacha Xitoy g'arbiy meridional yo'lidan foydalangan. Bu yo'l orqali Xotan nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga miloddan avvalgi II ming yillikdan kela boshlagan. Nefrit savdosida yuyechji qabila ittifoqi asosiy vositachi bo'lgan Miloddan avvalgi 165 yilda bu yo'l xunlar qo'liga o'tdi. Ular bu yo'l uchun kurashib yuechjilarni Xotan, Turfon, Qoshg'ar vohasidan g'arbga siqib chiqardilar. Xunlar hatto Shimoliy Xitoy yerlariga ham da'vogarlik qildilar. Natijada Xitoy o'sha davrning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Qang'uyga yaqinlashishga majbur bo'ldi. Shu boisdan ham Xitoy hukmdori Udi Chjan Szyanni miloddan avvalgi II asrda Qang'uyga yuboradi. Ammo yo'lda u xunlar qo'lida 10 yildan ortiqroq asirlikda bo'lib, Qang'uyga yetib borgan bo'lsada, o'z maqsadiga yeta olmagan. Shundan keyin Xan podshosi Udi (Farg'onaga) Davonga ko'z tikib, miloddan avvalgi 104-101 yillarda bu hududga ikki marta harbiy yurish qiladi¹⁶.

Shimoli-g'arbiy ipak yo'li faqat iqtisodiy jihatdangina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, ayni paytda u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l ham edi. IV-VIII asrlarda

¹⁶ Jabborov I. Buyuk Ipak yo'li chorrahasidagi tarixiy obidalar. Moziydan sado. 2004 yil. 3-son. B. 21-22.

Xitoyning tashqi olam bilan har sohada aloqalari kengayadi, buddizm keng yoyiladi. Markaziy Osiyoning moddiy va ma'naviy qadriyatlari keng ko'lamda Xitoyga tarqaladi.

Ma'lum davrlardagi turli siyosiy vaziyatlar ham Buyuk ipak yo'li taqdirida o'zining o'chmas izini qoldirgan, davlatlararo urush va janjallar shunday yirik savdo yo'li rivojiga keskin ta'sir o'tkazib turgan. Shu sababdan ham biz ipak yo'li yo'nalishlarining o'zgarishini kuzatamiz. Masalan, Xitoy tarixchisi Pey Szyu ipak yo'li shimoliy qismini tasvirlar ekan, o'z vaqtida Sharqiy Turkistonni va So'g'dni Qora dengizbo'yi hamda Vizantiya bilan bog'lab turgan qadimiy yo'l qaytadan yangilanganini eslatib o'tadi. Ushbu o'zgarish aynan Buyuk ipak yo'lidagi siyosiy vaziyatning holatiga bog'liq bo'lgan. Ipak bilan tranzit savdo qilish Sosoniylar Eroni tomonidan taqiqlab qo'yilishi boshqa bir yo'l kerakligini taqozo qilar edi. Pey Szyuning ma'lumotlariga qaraganda, shunday yo'l turk-so'g'diy elchiliklari tomonidan ishga tushirilgan. U So'g'ddan boshlanib, Trapezundda, hozirgi Turkiya hududida nihoyasiga yetgan.

Markaziy Osiyo o'lkalarini bog'lovchi So'g'diyona va Baqtriya Tohariston savdo yo'llari qadim-qadimdan Buyuk ipak yo'lining eng gavjum tarmoqlaridan hisoblangan. So'g'diy savdogarlar Uzoq sharq va Vyetnamgacha borganliklari to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lsa, Baqtriya Toharistonning ushbu hududlarda buddaviy va monixeylik dinlar yoyilishidagi o'rni ham kattadir. Mazkur o'lkalarni bevosita bog'lab turgan janubiy Hisor tog'laridagi savdo yo'llarining asosiy yo'nalishi va mavsumiy tarmoqlari esa, arxeologik va yozma ma'lumotlarga qaraganda Buyuk ipak yo'li shakllanishida ming yillar avval amalda bo'lib, uch yo'nalishga ajralgan:

1. G'arbiy dasht yo'nalishi - hozirgi Surxondaryo viloyati bilan Turkmanistonni bog'lab turuvchi temir yo'lshoxobchasiga deyarli mos keladi. Bu yo'nalishdagi bir-biridan yarim va bar kunlik masofa joylashgan ko'plab sardoba va karvonsaroylarning qoldiqlari Amudaryodagi Kelif guzarigacha kuzatiladi. Dasht yo'li doimiy yo'nalish hisoblansada, jazirama yoz pallasida va qish

izg'irinlarida unda karvonlarning harakatlanishi anchayin og'ir kechgan. Kuz va bahor oylariga kelib yo'l nisbatan gavjumlashgan.

2. Temir darvoza orqali o'tadigan Markaziy yo'nalish eng qulay, yaqin va tabiiyki doimiy yo'l hisoblangan. Bugungi zamonaviy xaritalarga asosan Shahrizabdan Oqrabod devorlarigacha bo'lgan oraliq to'g'ri hisoblab chiqilganda, 90 kmni tashkil qiladi. Yunon tarixchilarining "Nautakadan chiqqan Iskandar qo'shinlari uch kunlik tog' yo'llaridan o'tibqor bo'ronlariga uchragan daraga yetib keladilar" (Arrian, 1962, III30,1). degan ma'lumotlariga qaraganda, yo'lning bu qismi Kaltaminor dovoni, Darvozakam darasi orqali va O'radaryo bo'ylab Oqrabodga chiqqan. So'ngra asosiy yo'l Temirdarvoza, Zog'xona dovoni (hozirgi Sayrob qishlog'i) va Sherobod daryosi bo'ylab Sherobod shahri, Amudaryoning Sho'rob kechuvi orqali Balxga borgan. Uning boshqa bir tarmog'i bu shaharga hozirgi Qorasuv va Angor qishloqlari, Termiz shahri va uning kechuvi orqali o'tgan. Tabiiyki, mazkur o'zan yo'nalishining ko'plab mavsumiy tarmoqlar ham bo'lib, ulardan biri hozirgi Bug'oloxona darasi yaqinida o'ng tomonga qayrilib, Alami va Go'rdara yaylovlar, turkmanistonning hozirgi Xo'jaipil qishlog'i orqali Ko'hitang daryosi bo'ylab va Kelif guzaridan o'tib Balxga yo'nalgan. O'rta asrlarga oid Cho'yanli va Munchoqtepa yodgorliklari qayd qilingan hozirgi Xomkon qishlog'idan keyin yo'l Tangidara orqali yana asosiy yo'nalishga Sherobod daryo bo'yiga chiqqan. Nazorat-kuzatuv inshootlari, tosh devorlar Uzundaradabo'lgani kabi, Tangidarada ham kuzatiladi. Hanuzgacha bu dara mahalliy aholi o'rtasida "Tangidevol" deb atab kelinadi. Daraning eng tor qismida joylashgan devor hozir ham soyning chap sohilidan tik qoyalargacha yaqqol ko'zga tashlanadi. Devorning aylanma yo'l orqali daraga kirish joyida qad ko'targanligi bu joy strategik jihatdan muhim manzil bo'lganligini ko'rsatadi. Aynan shu dara orqali Hatak va Laylagan qishloqlaridan o'tib, yana asosiy yo'lga chiqish mumkin bo'lgan. Ushbu qishloqlarda hamda Tangi va Egarchi qishloqlarida Kushonlar davridan to Temuriylar davrigacha bo'lgan xarobalar saqlanib qolgan. So'nggi tosh devorlarning qoldiqlari Sherobod daryosining o'ng qirg'og'ida, Sariqamish tizmalari bo'ylab bir chaqirimdan oshiqroq masofada

kuzatiladi. Daraning chap chekkasida esa qoya ustida Tavka qal'asi xarobalari joylashgan. Bu qal'a va tosh devorlar dastlab Kushonlar davrida yaxlit me'moriy majmua tarzida shakllangan bo'lsa, qal'aning asosiy davri ilk o'rta (VI-VII) asrlarga to'g'ri keladi¹⁷.

Yo'l markaziy yo'nalishida Temirdarvozadan o'tgach, yana bir tarmoqqa ajralib, Boysun orqali Chag'oniynga ketgan.

3. Sharqiy yo'nalish ham Hisor tog'laridan Toshqo'rg'on dovoni osha, tog' daryolari bo'ylab Baqtriya Chag'oniyon o'lkasiga chiqqan. Qizilsuv daryosi ham nazorat uchun bunyod etilgan tosh devor qoldiqlari borligi kuzatiladi. Xuddi shuningdek, Toshqo'rg'on da yirik qishloq xarobasi qo'rg'on bo'lib, u qadimda yo'l tarmog'i nazoratiga xizmat qilgan. Bunday nazorat qo'rg'onlari Sangardak daryosining suvayirg'ichi Oqsuv bo'yida, Dahana, Bog'cha va Sangardak qishloqlarida ham ko'zga tashlanadi. Arxologik tadqiqotlarga qaraganda, savdo yo'llarining bu tarmog'ida milodiy I asrlan buyon muntazam harakatlar bo'lib turgan. Sharqiy yo'nalishning yana bir tarmog'i Langar va O'ratepa bo'ylab hozirgi Boysun tumanining Qo'rg'oncha va Duoba qishloqlarigacha kelgan bo'lsa, boshqa shoxobchasi Sina qishlog'i oralig'ida pastak adirlarda milodiy I-III asrlarga oid Kofirqal'a devorlari topilgan. Qoldiqlari hozirda 5 km dan ziyodroq masofagacha cho'zilgan devorlar va Qo'rg'on asosan Kushonlar davrida shakllanib, ilk o'rta asrlarda ham xizmatda bo'lgan. Savdo va madaniy aloqalarda mavsumiy va mahalliy ahamiyaga molik yo'l tarmoqlari orqali xalq iste'mol mollari o'lkaning barcha hududlariga yetib borishi ta'minlangan. Shuni ham aytib o'tish joizki, Hisor savdo yo'llari ko'plab tosh devorlar va nazorat qo'rg'onlari vositasida muhofaza qilib turilgan. Bu esa savdo yo'llariga bo'lgan yuksak e'tibordan yaqqol dalolatdir.

1.2. Buyuk ipak yo'li manbashunosligi

“Buyuk ipak yo'li” qachon paydo bo'lgan degan masala hanuzgacha munozarali bo'lib kelmoqda. Ayrim tadqiqotchilar Xitoy manbalariga tayanib

¹⁷ Rahmonov Sh.. Buyuk Ipak yo'lidagi bojxona. Moziydan sado. 2001 yil. 4-son. B. 15-16.

mazkur yo‘l miloddan avvalgi II asrda Xitoy elchisi Chjan Szyanning Turkistonga kelishi munosabati bilan ochilgan deb, aytishgan. Bu fikr to‘g‘ri deb ayta olmaymiz, chunki elchi bu yo‘lning qadimiy Xitoy bilan Turkiston shaharlarigacha bo‘lgan qismini ochib bergan. Elchigacha bo‘lgan ming yildan ortiqroq davr davomida Yevropa va Yaqin Sharq davlatlaridan O‘zbekiston orqali Xitoyga boradigan savdo yo‘li mavjud edi. Unda asosan turkistonliklar faoliyat ko‘rsatgan. Xitoy manbalariga chuqurroq yondashilsa, Buyuk ipak yo‘li kamida 3-4 ming yillik tarixga ega ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Buni arxeologik manbalar ham tasdiqlaydi.

So‘nggi 30 yil davomida Xitoy arxeologlari tomonidan qadimiy Xitoy viloyatlaridan topilgan ashyoviy dalillar ushbu fikrni to‘la isbotlaydi. Chunonchi, 1976 yili Xenan o‘lkasi An‘an viloyatida joylashgan In xonligi hukmdori Udingning (miloddan avvalgi 1365-1324) kanizagi Fu Xao qabri Xitoy arxeologlari tomonidan ochilganda, uning ichidan ko‘p miqdorda qosh toshidan yasalgan buyumlar topilgan. Maxsus tekshirish va tadqiqotlar natijasida qabr ichidan olingan 1928 ta buyumdan 756 tasi oq, qora, yashil, novot va sariq rangli qosh toshlaridan nihoyatda ustalik bilan yasalgan buyum va taqinchoqlar bo‘lib, bundan 3,5 ming yil muqaddam Xitoy bilan Xo‘tan orasida savdo yo‘li mavjud bo‘lganligining isbotidir.

Hozirgi Shinjong Uyg‘ur Muxtr o‘lkasi hududida ham miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid qabrlar ichidan Xitoyda lakdan yasalgan likopcha, bronza va boshqa metallardan yasalgan oynaklar topilgan. Ushbu ashyoviy dalillar Chjan Szyangacha ham qadimiy Xitoydan g‘arb tomonga qarab yuriladigan yo‘llar mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Miloddan avvalgi IV-III asrlarda qadimiy Xitoyda ishlab chiqarilgan ipak matolarning Hindiston va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalishi ham Chjan Szyanning Farg‘onaga borishidan avval Xitoyda Janubiy Osiyo va Yevropa mamlakatlariga O‘zbekiston orqali o‘tadigan qadimiy savdo yo‘li bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Buyuk ipak yo'lida amalga oshirilgan ikki tomonlama harakatlar to'g'risida Hind daryosi yuqori qismlaridan topilgan ko'p sonli qoyatosh yozuvlari va suratlaridan ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Ular milodning I-VIII asrlariga tegishli bo'lib ko'pchilik qismi kushon davrida – I-II-III asrlarda yozib qoldirilgan yozuvlar turlicha shakldagi hind xatlari bilan bitilgan. Shuningdek Baqtriya, parfiya va xitoy yozuvlari ham mavjud. Ularning ko'pchiligi so'g'd tilida, Ushbu yodgorliklar harbiy askarlar, kushon, so'g'd, xitoy savdogarlari, rassomlar, budda monaxlari, ziyoratchilar tomonidan qoldirilgan bo'lib, ipak yo'lidan foydalanuvchilarning o'ziga xos "qaydnomalar daftarchasi" sifatida namoyon bo'ladi.

Buyuk ipak yo'lining janubiy yo'nalishida joylashgan Baqtriya hududidan topilgan Tillatepa (milodning I-II asrlar) va Bagram (milodning III asri) yodgorliklaridan buyumlar tadqiqotchilar uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi. Topilmalar orasida, ellin madaniyatiga mansub ashyolar-zargarlik buyumlari, bronza va shisha mahsulotlari, gipsdan yasalgan muhrlar, tangalar, Hind yodgorliklaridan bo'lgan ishlov berilgan fil suyaklari, bronza oynalar, lak-bo'yoqlar, zargarlik buyumlari kabi Xitoyda yasalgan yodgorliklar alohida ajralib turadi. Ularning har biri qay uslubda yasalganligi, qaysi xalq unga ishlov berib, tovarga aylantirganini yaqqol ko'rsatadi.

Savdo karvonlari bilan birgalikda ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab ko'chib yurgan turli shakl va ko'rinishdagi tangalar ham biz uchun qimmatli manbadir. Ular tarix ifodachisi, o'ziga xos yilnoma. Hozirgi kunda ham arxeologlar ushbu tarixiy savdo yo'li trassalaridan ko'pgina xazinalarni topmoqda. Topilayotgan tangalar bizga ma'lum davr haqida va asosiysi, savdoning xarakterini aniqlab beradigan barcha tarixiy jarayonlarda ishtirok etgan turli mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar haqida aniq ma'lumotlar bera oladi. Masalan, Termizdan Rim tangalar xazinasi, kushonlar tangalari O'rta Yer dengizi atrofi hududlaridan topilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Xitoy manbalariga chuqurroq yondashilsa. Buyuk ipak yo'li kamida 3-4 ming yillik tarixga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Buning dalili sifatida ana shu manbalardagi ayrim ma'lumotlarga murojaat qilish o'rinli, deb hisoblaymiz.

Dastavval Buyuk ipak yo'lini Xitoy elchisi Chjan Szyan ochgan degan fikrni qo'llovchi mualliflar ishora qilgan Xitoy manbalariga sinchiklab e'tibor berib ko'raylik. Darhaqiqat, miloddan avvalgi II asrdan keyin bitilgan ayrim xitoy manbalarida va tarixiy adabiyotlarida avvalgi Xan imperiyasi (Chyan Xan – miloddan avvalgi 206, milodiy 208), elchisi Chjan Szyanning Farg'onaga (qadimgi manbalarda Dayyuan yoki Davan), Kangqa (Kangkiya) kabi mamlaktlarga borib kelishidan oldin xitoyliklar ushbu davlatlar va ularga boradigan yo'l haqida aniq ma'lumotlarga ega emas edi. Ular faqat o'zlarining shimoliy va g'arbiy tomonidagi yon qo'shnilarnigina bilishar edi. Buning sababi birinchidan, Xitoyda tarqoqlik va o'zaro urushlar davom etib turgan bir paytda uning g'arbiy va shimoliy tomonida yashagan xalqlar kuchli davlat tuzumiga ega bo'lgan edi. Miloddan avval tashkil topgan Xunlar imperiyasi va undan ham oldin mavjud bo'lgan Yueji davlati ana shular jumlasidandir. Qolaversa, uzoq davr davomida xunlar Taklamakon cho'li atrofidagi mamlakatlar va ular hududidan o'tadigan savdo yo'llarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishgan. "Miloddan avvalgi 177-176 yili, - deb yozilgan Shiyuy tungishida, - Xun podshosi Mavdun Shangyuy xoqon yuejilarni tor-mor keltirib, ularning askariyat qismini o'z joylaridan ko'chib ketishga majbur qilgan, shundan so'ng Siyuy (g'arbiy mamlakatlar) xunlar ta'siriga o'tgan".

Ikkinchidan, Xitoy xalqi o'zlari yashagan joyning tabiiy sharoitiga moslashgan holda dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Xitoyning g'arbiy tomonidagi cho'llardan o'tish uchun xitoylarda ot va tuyalar bo'lmagan. Xunlar va ularga tobe bo'lgan xalqlar hayotida chorvachilik muhim rol o'ynaganligi sababdan, ularda harakat vositalari yetarli bo'lgan. Shuning uchun ham Chjan Szyangacha bo'lgan davrda Xitoyga Buyuk ipak yo'li bilan borib savdogarchilik qilganlar Markaziy Osiyo xalqlarining vakillari bo'lgan edi. Xitoylar yuejilar va xunlar nazoratidagi yerlardan o'tolmagan.

Haqiqatan xitoylar uchun ushbu yo'lni birinchi bo'lib bosib o'tgan shaxs Chjan Szyan hisoblanadi. Ma'lumki, Xitoy elchisi Farg'onaga yetib borguncha o'n

yildan ortiq vaqt xunlar tomonidan ushlab qolinadi. Hattoki, oilali bo‘lib qolsa u maqsadidan voz kechishi mumkin, degan o‘yda xunlar uni uylantirib ham qo‘yishadi. Chjan Szyan esa maqsadidan voz kechmaydi. Qaytishda elchi Taklamakon cho‘lining janubiy tomonidan aylanib o‘tmoqchi bo‘lganida yana xunlar qo‘liga tushib qoladi.

Xitoy manbalarini sinchiklab o‘rganilganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Chjan Szyanning Turkistonga ikki marta kelishi nafaqat xitoylar uchun mazkur mintaqaga yo‘l ochish, balki Xan imperiyasiga Buyuk ipak yo‘lini nazorat qilish huquqini xunlardan tortib olishga zamin yaratib berdi. Shunga asoslanib, Xitoy tarixchilari “Chjan Szyan Siyuyga yo‘l ochdi”, deb ta’riflaydilar. Ammo Ipak yo‘li Xitoy elchisining g‘arbga qilgan safari bilan ochilgan, undan avval u yo‘l yo‘q edi, deb aytish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Binobarin, Xitoy elchisining Farg‘onaga borishidan ko‘p asrlar muqaddam Markaziy Osiyo mamlakatlaridan, jumladan, sharqiy Turkistondan Xitoyga turli mollar olib borilgan. Bu haqda Xitoy manbalarida ham ko‘p ma’lumotlar mavjud¹⁸.

Buyuk ipak yo‘li va uning jahon madaniy taraqqiyotidagi ahamiyatini o‘rganishda “Tungshi” (Umumiy tarix), “Ziji tungjyan” (Hukmdorlar faoliyatiga yordam beruvchi ko‘zgu), “Tunjyan jishi benmo” (Hukmdorlar faoliyatiga yordam beruvchi muhim tarixiy voqealar bayoni), “Sin Tangshu (Tang sulolasining yangi tarixi), “Musulmon tabobati”, “Sichou chjilu maoyi shi”(Ipak yo‘li savdo aloqalari tarixi), “Yuan shi” (Yuan sulolasining tarixi), “Sayyid Ajjol shajarasi”, “Syanyang sulolasi shajarasi,”Jeng sulolasi shajarasi”, “Ma sulolasi shajarasi”, “Jeng Xe sulolasi tarixi, shuningdek Syuan Szyanning “G‘arbiy hududlar bo‘ylab sayohat haqida qaydlar” kabi xitoy manbalari muhim o‘rin tutadi.

O‘rta asrlarda Xitoyda ayrim tarixiy masalalarga bag‘ishlangan va avvalgi an‘analardan farqli o‘laroq, yangi uslub bilan yozilgan asarlar yuzaga kelgan. “Tungshi” (Umumiy tarix), “Ziji tungjyan”(Hukmdorlar faoliyatiga yordam beruvchi ko‘zgu), “Tunjya jishi benmo” kabi asarlar ana shular jumlasidandir.

¹⁸ Кобзева О. У истоков научного изучения Великого шелкового пути. О`zbekiston tarixi. 2000 yil. 4-son. В. 34-36.

Mazkur manbalarda so‘g‘dlarning kelib chiqishi, ularning Byuuk ipak yo‘lidagi faoliyati to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar mavjud.

766-801 yillarda yozilgan “Tundyan” nomli asarda So‘g‘d davlati “Pomirning g‘arbidagi yirik davlat uning qaromog‘ida 400 dan ortiq mayda shahar davlatlar mavjud. Tay‘udi davrida (milodiy 408-452) elchi yuborgan”, deb zikr etilgan.

Chjou sulolasi tarixida yozilishicha “Baodin (xoqonning) 4 yili (564) So‘g‘d xoqoni Chaanga sovg‘alar bilan elchi yuborgan”. Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, milodiy V asrdan VI asrning o‘rtalari so‘nggi choragigacha bo‘lgan davrda So‘g‘d davlati yirik davlat sifatida Xitoy bilan aloqa qilib turgan.

Suy sulolasi tarixining (Suy shu) 83-bobida ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston hududida joylashgan 9 shahardan borgan savdogarlarni “Chjaovu jyu shin xu (9 ismli yoki mamlakatli xo‘rlari) deb atalgan. “Chjaoo‘ xu” deb ham aytiladi. Mazkur 9 mamlakatga Kang (Samarqand), An (Buxoro), Tsao (Samarqandning g‘arbi-shimolida joylashgan Kabudan, Xabud shahri), Shi (Toshkent), Mi (Samarqand yonidagi Zarafshon daryosi janubida joylashgan Maymarx shahri), Xe (Samarqand bilan Buxoro oralig‘ida joylashgan Koshona shahri) Xuoshyun (Xorazm), Fadi (O‘zbekistonning g‘arbi-janubida joylashgan Betik shahri), Shi (Kesh, Shahri Syab) kabi kichik davlatlar kirgan. Sug‘d davlati parchalanib ketganidan so‘ng, uning o‘rnida 9 ta kichik xonliklar tashkil topgan¹⁹.

“Xitoyda Buyuk Tyan hukmdorligi vaqtida g‘arbiy hududlar bo‘ylab sayohat haqidagi qaydnomlar”ni Syuan Szyan imperator Tan Tsunga bag‘ishlab yozgandi va bu risola hanuzgacha islom lashkarlari kelguncha bo‘lgan Osiyo haqidagi asosiy hujjat bo‘lib qolmoqda.

Syuan Szyan 602 yilda Xunan viloyatida konfutsian oilada tug‘ilgan, odatda mazkur sulolada ilm olish va bilimli bo‘lish an‘anaviy edi. Uning to‘rt akasidan budda rohibi bo‘lgan birining ta‘sirida sakkiz yashar Szyan budda yozuvini o‘rgana boshlaydi.

Rohiblik tariqatiga butun vujudi bilan berilib ketgan o‘n ikki yoshli bola din amaldorlariga “yagona maqsadim Budda dinini keng yoyish” deya, qat‘iyan e‘lon

¹⁹ Xo‘jayev A. Xitoy manbalarida so‘g‘dlarga oid ayrim ma‘lumotlar .” O‘zbekiston tarixi”. N1. 2004.B. 52-61

qilib, yuzlab o'z yoshidan katta nomzodlardan o'zib ketib, erkaklar ibodatxonasining mo'min tinglovchisiga aylandi.

622 yilda u yetuk rohib bo'lib yetishadi. Budda matnlarini o'rganar ekan, Syuan Szyan shunday xulosaga keldi: sanskritdan tarjimada ko'plab noaniqliklar va yanglish joylar bor, qo'lyozmalar to'plamlarining o'zida esa uzuq-yuluq o'rinlar uchraydi. Shu bois yosh rohib sayohatlar orqali buddizmning birlamchi manbalarini topib kelishga umid bog'laydi. Mazkur ta'limot vujudga kelgan va uning asaochisi yashagan Shimoliy Hindistondagi muqaddas joylarga ziyoratga borishni maqsad qiladi.

Biroq imperator bunday sayohatga qarshi edi. 629 yili Syuan Szyan maxfiy ravishda Sianni tark etib, Xitoyning g'arbiy viloyatlariga yo'l oladi. Ziyoratchi Buyuk ipak yo'li bo'ylab Xitoy davlati sarhadlarini bildiruvchi beshta qorovul minorasini ortda qoldirib, xitoyliklar "Qum daryosi" deb ataydigan "Taklamakon" sahrosini kesib o'tadi. Ammo Tibet va Himolayni oshib o'tishning iloji yo'q edi. Hindistonga to'g'ri yo'l yo'q edi. Shu bois baland tog'li to'siqni O'rta Osiyo orqali shimoli-g'arbdan aylanib o'tishga to'g'ri kelardi²⁰.

Nihoyat, musofir Tyan-Shan etaklaridagi Homiy vohasiga, so'ng Buyuk ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i bo'ylab yastangan vohani kesib o'tib, Turfonga yetib bordi.

Uning kelgani haqidagi xabarni eshitib, Turfon hukmdori qo'lida mash'al bilan peshvoz chiqdi. Sayyohga g'oyat izzat-ikromlar ko'rsatildi, u dam olgach, katta karvon tuzib, boshqa davlatlar hukmdorlariga sovg'a-salomlar va muhofaza maktubi bilan ta'minlandi. Ziyoratchi Turfondan Qashg'ar yerlari bo'ylab hamrohlari bilan qalin qor bilan qoplangan Xon Tangri dovoni orqali Tyan-Shan tog' tizmalaridan olib o'tishga majbur bo'ldi. Bu xatarli sayyohati vaqtida odamlarining uchdan biri va ko'plab otlarni yo'qotgan karvon Issiqko'l yonida to'xtadi."Suvning rangi ko'kimtir-qora, ta'mi achiq va sho'r. Ko'l to'lqinlari qirg'oqqa tinimsiz kelib uriladi"-deb tasvirlaydi Syuan Szyan Issiqko'lni. Mazkur

²⁰ Mirzayev R. Syuan Szyan: budda ziyoratgohlariga sayohat. Moziydan sado, 2004 yil. 1-son. B. 23.

ko‘l qirg‘og‘i G‘arbiy Turkiston xonining qishlik o‘rdasi edi, yozda esa u Toshkentda bo‘lardi.

Syuan Szyan xon bilan 630 yilning oxirida To‘qmoqda uchrashdi. “Xon yashil atlas to‘n kiyib olgandi, boshiga aylantirib o‘ralgan sochini uch orqasiga tushirib qo‘yilgan va shoyi tasma bilan tang‘ilgan edi. U ikki yuz nafar anyon qurshovida edi, barchalari zarli to‘n kiygan, sochlari o‘rilgan edli. Xonning chap va o‘ng tomonida mo‘yna va jun matoli kiyim kiygan jangchilar hamrohlik qilar edi. Ular tuya va otlarda o‘tirib, nayza, yoy va bayroq ko‘tarib olishgandi. Ko‘z bilan ularning qanchaligini chamalab bo‘lmasdi”, - bu uchrashuvni ana shunday tasvirlaydi.

Rohib xonga Turfon hukmdorining maktubi va tuhfarini topshirgach, uni ziyoratga taklif etishadi. “Xon chodiri zardo‘z kashta bilan bezatilgan bo‘lib, ko‘zni olar darajada yarqirab turardi. Barcha ayonlari uzun bo‘yradan bo‘lib uning yonidan joy oldilar. Ular shoyi matodan tikilgan yaltiroq liboslar kiyib olishgandi. Xonning tan qo‘riqchisi undan orqaroqda turardi, garchi xon ko‘chmanchi hukmdori bo‘lsada, uning davrida muayyan tartib-qoidalar mavjud eid”, deb hayrat bilan ta‘kidlaydi sayyoh.

Syuan Szyan yo‘lda xonning o‘z vassallari – Gandxaran hukmdorlariga muhofza maktublari bilan ta‘minlangan xitoy jangchisi hamrohligida chiqdi. G‘arbiy xonlik hukmdori mehmonga ellik toy shoyi va qora – qizil atlasli kiyim in‘om qildi.

G‘arbiy xonlik poytaxti Toshkent (Che-Shen)da qisqa hordiqdan so‘ng, Syuan Szyan Samarqandning oltin vohasi tomon yo‘l oldi. “Shimoli-g‘arbda biz na suvi, na giyo‘hi bo‘lgan hosilsiz sahroga kirib keldik. Yo‘l chek-chegarasizday bo‘lib ko‘ringan sao‘ro ichida o‘oyib bo‘lar edi. Qandaydir uya yoki hamma joyda sochilib yotgan suyaklarga qarab yo‘lni topishga majbur bo‘lardik”.Tanholikda bir yuz ellik millik cho‘lni qanday kesib o‘tganini sayohatchi ana shunday ifodalaydi.

Buyuk ipak yo‘li chorrahasi bo‘lgan Samarqandda Syuan Szyanning aytishicha, “ko‘plab mamlakatlarning mollarini ko‘rish mumkin edi, hunarmandlarning mahorati o‘sha mamlakatlardagidan necha chandonbaland

edi”...Hindistondan kelayotgan karvonlar Xitoydan kelgan karvonlar bilan shu yerda yuz ko‘rishar edi.

Syuan Szyan markazi Samarqand bo‘lgan juda katta hudud – shimoli-sharqda “Suyob” (Mu daryosi vohasi) ning janubi-sharqdagi “Temir Darvoza”gacha So‘g‘d deb nomlaydi. Bu vaqtda sug‘dlik savdogarlar Buyuk ipak yo‘lida qizg‘in savdo olib borar edilar. Bu yo‘ldan O‘rta Yer dengizi, Vizantiya, O‘rta Osiyo Hindistonga xitoy shoyisi, bronza buyumlar, ayollar pardoz buyumlari, lak, guruch, choy kelar edi. U yerlardan Xitoyga shisha buyumlar, quruq mevalar, yangi sabzavot va ho‘l mevalar, paxta, otlar, turli ajoyib buyumlar borar edi. Sug‘ddan,masalan, qo‘ylar, sherlar, tozilar, qimmatbaho javohirot olib borishardi.

Samarqand Syuan Szyan o‘z sayohati vaqtida yetib borgan eng g‘arbiy nuqta edi. Sayyoh Buyuk ipak yo‘li o‘tgan kengliklarda buddizm nechog‘li betakror ma’naviy olam, noyob madaniyat yaratganini, ammo ba’zi joylarda u tanazzulga ham yuz tutganini ko‘rdi. Masalan,Samarqandda u bo‘m-bo‘sh huvillab yotgan ko‘plab otashparastlik va ikkita buddaviylik ibodatxonasini uchratgan.

Syuan Szyan Samarqand hokimining jasur jangchi ekanini, uning kuchli qo‘shini borligini ta’riflaydi. Buddha rohibi bilan bo‘lgan suhbatdan ilhomlanib, u 631 yilda Xitoyga elchilarini yubordi va ko‘p o‘tmay ikki mamlakat o‘rtasida siyosiy va savdo aloqalari o‘rnatiladi.

Samarqanddan sayyoh janubga, Shahrisabzga, so‘ngra Hisor tog‘lari orqali dovon bo‘ylab “Temir darvoza”dan o‘tadi va Darbanddan sal naridagi daradan, G‘arbiy xoqonlik sarhadlaridan chiqadi. Syuan Szyan o‘z sayohatnomalarida, “bu tor dara har ikki tomondan tik qoyalar bilan o‘ralgan. Yo‘lning torligi qiyinchilik va xatarni kuchaytiradi. Har ikki tomondagi qoyatoshlar ham temir rangida. Bu yerda ikki tabaqali, temir bilan mahkamlangan va ko‘plab qo‘ng‘iroqchalar bilan bezatilgan darvoza o‘rnatilgan,” deb hikoya qiladi. Termizda Syuan Szyanning ta’kidlashicha, ming kishidan ko‘proq bo‘lgan budda jamoasi, buddaning tasvirlari,

jumladan, nirvannaning mukammal holatda turgan haykali bilan bezatilgan bir necha ibodatxona va butxonalar borligini yozadi²¹.

Keyingi yillarda boshqa tarixiy manbalar qatorida Syuan Szyanning “G‘arbiy hududlar bo‘ylab sayohat haqida qaydlar”ini ham o‘rganib, olimlar Surxondaryoda qator arxeologik kashfiyotlarni qo‘lga kiritdilar va buddizmning Buyuk ipak yo‘lidan Markaziy Osiyoga kirib kelganligini tasdiqlashdi.

Masalan, Amudaryo qirg‘og‘ida mahobatli buddaviy haykal va relflari, shu jumlaan, mashhur Ayritom frizi topilgan. Eski Termiz yaqinida qadimshunoslar Syuan Szyan “Qaydlar”ida eslatib o‘tgan Qoratepa va Fayoztepa budda ibodatxonalarini ochdilar. Syuan Szyan sayohatini davom ettirib, diniy yodgorliklarga boy, karvonlar keldi-ketdisi uzilmaydigan Baqtriya (Balx) shahrini borib ko‘radi. Mazkur shahar ko‘p asrlar davomida yirik tarixiy-madaniy viloyatining poytaxti hamda Buyuk ipak yo‘lidagi, muhim markaz sifatida xizmat qilgandi.

Shundan so‘ng Syuan Szyaning yo‘li nihoyatda o‘tish xatarli Bomiyaqdagi Hindikush orqali davom etdi. “Bu tog‘lar baland va daralari chuqur, cho‘qqi va jarliklari g‘oyat xatarli. Goh qor, goh bo‘ron quturib turadi va yozning o‘rtalarida ham qishdagiday sovuq. Qorlar pasqumliklarni tep-tekis qilib qo‘yar, tog‘ so‘qmoqlarini topish qiyin. Bu yerda tog‘ jarlari va yovuz devlar hamisha qahrini sochib turishadi, har qadamda odamzotga dahshat soladi, tog‘larda qaroqchilar to‘dalari qaynaydi. Ular odam o‘ldirishni kasb qilib olishgan”,- rohib yo‘lining mazkur qismini shunday tasvirlagan.

Syuan Szyanning karvoni nihoyat, Buyuk Buddha vohasida joylashgan bog‘i eram –Bomiyaqa yetib keladi. Izg‘irinli ochiq havoda ular qizg‘ish tepalikni ko‘rishadi va sayohatchilar yaqinlashgani sayin qoyalarga o‘yilgan, tik turgan Buddaning ikkita ulkan haykali ko‘zga tashlanadi. Bu haykallar hajmi keyinchalik Buddaning Xitoy va Yaponiyadagi boshqa ulkan tasvirlariga namuna bo‘lib xizmat qildi. O‘shanda sayyohlar yana o‘n to‘rt asrdan keyin diniy mutaassiblar

²¹ Mirzayev R. Syuan Szyan: budda ziyoratgohlariga sayohat. Moziydan sado, 2004 yil. 1-son. B. 24-25.

Bomiyondagi bu haykallarni “majusiyluk butlari” sifatida portlatib yuborishlarini xayollariga keltirishganmikan?

Syuan Szyan Bomiyonga kelganida uni hukmdor kutib oldi va saroyga boshladi. Keyin rohiblar unga vodiyni ko‘rsatishdi. Uning yozishicha, bu yerda o‘nta budda ibodatxonasi va bir necha ming rohib bor edi.

Syuan Szyan ana shunday bir-biridan g‘aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirgancha oxiri Hindistonga yetib keladi. Buddha kitoblarini o‘rganib, buddaviy rohiblar va olimlar og‘zidan ma‘lumotlarni to‘plab, sanskrit qo‘lyozmalarni qidirgancha mamlakatning turli burchaklariga sayohatlar qilib, rosa o‘n yilni o‘tkazadi.

Syuan Szyan o‘zining G‘arbga sirli ravishda jo‘nab ketganidan keyin o‘n olti yil o‘tgach, Xitoyga qaytib keldi. U o‘zi bilan katta miqdordagi buddaviy qo‘lyozmalar, hujjatlar, xususiy yozmalarni keltirdi. “G‘arbiy hududlar bo‘ylab sayohat haqida qaydlar” ustida u bir yildan ortiq ishladi. Gullab-yashnayotgan Sug‘d, Farg‘ona vodiysi, Ustrushona, Kesh va Tohariston, Hindiston, bu mamlakatlarning tabiati, xalqlarning ahloq-odobi va urf-odatlarini tavsiflari. mamlakatlar o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha sharhlar, diniy-falsafiy mulohazalar bu kitobni bebaho tarixiy-adabiy yodgorlikka aylantirdi. Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asri va buddaviylik tarixining hozirgi zamon tadqiqotchilari uchun manba bo‘lib xizmat qildi.

Syuan Szyan umrining qolgan qismini u buddaviy qo‘lyozmalarni xitoy tiliga o‘girishga bag‘ishladi. U 664 yil 5 fevralda vafot etdi.

Buyuk ipak yo‘lining IV-XIII asrlar davrin o‘rganishda Plono Karpini, Rubruk, Marko Polo (XII asr), Ibn Fadlan (X asr) kundaliklari, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik”, “Hudud ul-olam” (X asr), Nosir Xusravning “Safarnoma” (XI asr), Al-Hakim at-Termiziyning “Navro‘znoma”, “Solnoma” (IX asr), Sa‘diy Sheroziyning “Sayohatnoma” (XIII asr), arab tarixchilari at-Ta‘bariy (VIII asr), Istahriy, Yoqut, Al-Maqsidiy (IX-XI asrlar) larning Markaziy Osiyo to‘g‘risidagi qimmatli ma‘lumotlar berilgan asarlari muhim ahamiyat kasb etadi

O‘zbekiston va xitoy xalqlari o‘rtasidagi savdo, siyosiy va madaniy aloqalar ko‘p ming yillik tarixga ega, O‘rta Osiyo va Xitoyning feodal hukmdorlari olib borgan. Agressiv tashqi siyosatning mahsuli bo‘lgan bot-bot o‘zaro urushlar uzoq davom etgan tinch-totuvlik munosabatlari bilan almashinib turgan. Ammo ikki qo‘shni mamlakat o‘rtasidagi qadimgi va o‘rta asrlardagi aloqalar yetarli darajada o‘rganilgan emas, voholanki, bu masalani har tomonlama va chuqur o‘rganish foydadan holi emasdir. Bunda Xitoy solnomalari bilan bir qatorda musulmon geograflari, tarixchilari tomonidan arab, fors, turk tillarida yozilgan noyob asarlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu asarlar ham faktik materiallarga boydir. Jumladan, mashhur tarixshunos at-Tabariy (839-923) ning “Tarix ar-rasul va l-muluk va –l-xulofa” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi”) nomli ko‘p jildlik asarida VII-VIII asrlarda sosoniylar Eroni, O‘rta Osiyo hamda Xorazmning Xitoy bilan o‘zaro siyosiy munosabatlari to‘g‘risida benihoyat qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Bunda so‘nggi sosoniy podshoh Yazdigard III (632-651) tarafidan Eronga bostirib kirgan arablarga qarshi kurashda yordam so‘rab Xitoyga elchi yuborilganligi to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan. At-Tabariy, shuningdek imperator Tay-szun (627-650) tomonidan Yazdigard III ga yuborilgan javob maktubining qisqacha mazmunini ham keltirgan. Maktub mazmunidan ma‘lum bo‘lishicha, Tan imperiyasi bunday ishga “nomaqbul harakat” deb qo‘l urmagan.

At-Tabariyning mazkur asarida arablarning, aniqrog‘i xalifa Al-Valid I (705-715)ning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim (715 yilda Andijon yaqinidagi Qilichmozor mavzeida o‘ldirilgan)ning Qoshg‘arga qilgan yurishi va bu yurishning tinch yo‘l bilan hal bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham mavjud.

S.P.Tolstov VII asr Xorazm tangalarini o‘rganish jarayonida to‘plangan material hamda aftidan qandaydir Xitoy manbasiga asoslanib, Xorazmshoh Shavshafar tomonidan Xitoyga elchilar yuborilgani to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi. S.P.Tolstov jumladan bunday deb yozadi: “Arablarga qarshi dushmanlik ruhida bo‘lagn bu harakat Xorazmning arab-xitoy kurashida yangidan mustaqillikka intilishidan dalolat beradi.”.

Oʻrta Osiyo bilan Xitoyning VIII-X asrlardagi oʻzaro munosabatlariga oid masalalar al-Utbiy (taxminan 961- 1036), ibn al-Asir (1160-1234) asarlarida ham oʻz aksini topgan. Chunonchi, ibn al-Asirning koʻp jildlik umumiy tarixida Oʻrta Osiyoning arab hukmronligi (VIII-IX asrlar), qoraxoniylar (999-1212) saljuqiylar (1038-1194) davrida Xitoy va Qoshgʻar bilan oʻzaro munosabatlari toʻgʻrisida original maʼlumotlar mavjud. Ibn al-Asirning 751 yilning iyul oyida Taroz (Qozogʻistonning hozirgi Jambul shahri) yaqinida Xitoy qoʻshinlari bilan arab-Oʻrta Osiyolik qoʻshinlar oʻrtasida boʻlib oʻtgan katta urush toʻgʻrisidagi maʼlumoti diqqatga sazovordir. Xitoy qoʻshinlariga Gao Syanchji, arab-Oʻrta Osiyolik qoʻshinlarga esa Ziyod ibn Solih qoʻmondonlik qilgan edi. Ibn al-Asir xususan bunday yozadi: “Mazkur yilda Fargʻona ixshidi (podshosi) va Shosh (Toshkent) maliki (shohi) arazlashib qolishgan edilar. Ixshid Chin podshosidan koʻmak soʻradi va u 100 ming jangchidan iborat qoʻshinni Toshkent hokimiga qarshi ixshidga yordamga yubordi. Shosh podshosini oʻrab oldilar, oxir-oqibatda u Chin podshosiga taslim boʻldi. Bu voqea arablarning Xurosondagi noibi Abu Muslimning qulogʻiga yetdi va u bilan urushishga Ziyod ibn Solihni yubordi. Arab Oʻrta Osiyo qoʻshinlari bilan Xitoy qoʻshinlari Taroz daryosi boʻyida toʻqnashdilar va musulmonlar bu jangda gʻolib keldilar...”²².

Oʻrta Osiyo va Povoljye hududida yashovchi xalqlar hayoti haqidagi eng ishonchli maʼlumotlarni yozib qoldirgan IX-X asrlardagi mualliflar orasida Ibn Fadlan alohida oʻrin tutadi. Ibn Fadlan X asr boshida Bagʻdod xalifasi elchilari tarkibida Buxoro va Xorazm orqali Volga Bulgʻoriyasiga safar qilgan. U oʻz sayohati haqida mufassal hisobot yozib qoldirgan. Ibn Fadlanning mazkur “Risola”si (Turklar mamlakatiga safar) Sharqiy Yevropa, shuningdek Oʻrta Osiyo ilk oʻrta asrlar tarixi haqidagi muhim manba boʻlib hisoblanadi. XIII asrda yashagan qomusiy olim Yoqut ar-Rumiyy oʻzining “Joʻgʻrofiyy lugʻat” iga “Risola”dan bir nechta parchalarni kiritganligini eslatib oʻtishining oʻzi kifoya “Risola” muallifining tarjima holiga oid maʼlumotlar deyarli saqlanmagan. Ahmad ibn Fadlan ibn al-Abbos ibn Rashid ibn Hammad Abbosiylar xalifaligi ayni gullab-

²² Jabborov I. Ipak yoʻli afsonalari. - Toshkent, “Fan”, 1993. B. 45-46.

yashnagan davrida bosh mirzaboshi vazifasida ishlaganligi ma'lum. Va turgan gapki, ushbu musulmon teokratiasining qudratli changali yetib borgan hududlarining birida yangi din islom dini tatbiq etilardi va u undan oldin nozil bo'lgan dinlar kabi kuch, sobit e'tiqod, iqtisodiy imtiyozlar bilan hamda zohid missionerlarning sa'y-harakatlari orqali amalga oshirilardi. Chunonchi, Bag'doddan Volga bo'ylariga elchilar yuborilishi buning yorqin dalili bo'la oladi. Volga bo'yilik Bulg'oriya xazorlarining hukmronligidan qutulish maqsadida Abbosiy xalifa al-Muqtadirga homiylik qilish uchun murojaat qilib, buning evaziga islomni qabul qilishni va'da qilganligi uchun mazkur elchilik favqulodda tezlik bilan tuzalgandi. Ibn Fadlan shohidlik beradi: "Musulmonlarning hukmdori al-Muqtadirga "slavyan" larning podshohi Shilli Yiltivarning o'g'li Almushdan maktub yo'llab, shahzoda uning huzuriga dinu e'tiqod yo'lga boshla, islomning qonun-qoidalarini tushuntirib, uning uchun masjid qurib berishni... hamda o'z dushmanlari bo'lgan boshqa podshohlardan saqlanish uchun qal'a qurib berishni iltimos qilgandi. Uning iltimoslarini bajo keltirish uchun rozilik berildi".

921 yilning 21 iyunida elchilar Bag'doddan jo'nab ketishdi. Elchilar bulg'or podshosiga xalifaning maktubi hamda qimmatbaho sovg'alar eltishmoqda edi, shunigdek, missiya tarkibida faqihlar va muallimlar bo'lib, ularning vazifasiga bulg'orlarni islom qonun-qoidalariga o'rgatish kirardi. Vakolatxona boshlig'i sultan ar-Rassi degan shaxs bo'lsa ham, ushbu tashrifning barcha og'irchiliklari va ishning ijobiy hal qilinishi bo'yicha javobgarlik Ibn Fadlan zimmasiga tushardi.

Missiya deyarli bir yil yo'l bosib 922 yilning may oyida Volga bo'yi Bulg'oriyasiga yetib keldi. Ular arab savdogarlari o'zlashtirgan savdo yo'li orqali harakat qilishdi, mazkur yo'ldan Eron, Iroq, Xorazmdan Quyi va O'rta Volga havzalariga qimmatbaho mo'ynaga almashtirish uchun tovarlar olib kelinardi. Ibn Fadlan, Shimoliy Kaspiy oldi hamda Volgabo'yi hududlari haqidagi ishonchli ma'lumotlari bilan bizning kunlargacha yetib kelgan birinchi sayyoh bo'ldi.

Nishopur, Seraxs, Marv va boshqa manzilgohlarni ortida qoldirib karvon Kushmaxon "sahrolar o'lkasi bo'lmish Amulga kirib keldi" (Sharqiy Qoraqum). Qum barxanlaridan eson-omon o'tib, Jayhun daryosi bo'yiga chiqqan karvon,

daryodan o'tib, nihoyat Buxoroga –Somoniyar davlatining poytaxtiga yetib keldi. Mamlakat hukmdori Nasr ibn Ahmad endigina 16 yoshga to'lgandi. "Podshoh besoqol bolakay", deb ta'riflaydi Ibn Fadlan. Amir vakolatxonasi xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ko'magini ayamadi, hatto Xorazmgacha kuzatib qo'yish uchun soqchilar qo'shib berdi. Bu fakt shuni tasdiqlaydiki, ya'ni X asrda Buyuk ipak yo'lidagi muhim markazlar, shu jumladan, Buxoro, o'z mamlakatlari hududidan o'tuvchi savdo yo'llarini ishonchli nazorat qilib turishgan.

Elchilar Bag'dodga amalda deyarli hech narsaga erisholmay 923 yilning bahorida qaytib kelganlar.

Ibn Fadlanning asari arab-fors dunyosida juda mashhur edi. Yoqutning shohidlik berishicha, XII asrda uning qo'lyozmalarining ro'yxati Sharqiy Erondagi ko'pgina odamlarda bo'lgan. Binobarin, faqat 1920 yildagina sharqshunos A.Validov tomonidan ushbu ma'lumot mashhur "Risola"ning ro'yxatlaridan biri imom Ali ibn Rizoning Mashhaddagi (Eron) maqbarasiga qarashli kutubxonadan topilgan. 1937 yili Mashhad qo'lyozmasining fotonusxasi SSSR Fanlar akademiyasiga Eron hukumati tomonidan sovg'a qilindi, uning asosida A.A Kovalevskiy rus tilidagi birinchi nashrni tayyorladi. 1956 yili Ibn Fadlan "Risola"sining qayta ishlab, to'ldirilgan nashri e'lon qilindi²³.

Arab sayyohi Ibn Battutaning "G'aroyib shaharlar va mo'jizakor sayohatlar haqida so'ylovchilarga tuhfa" nomli tarixiy-jug'rofiy asari Buyuk ipak yo'li tarixi bo'yicha eng ishonarli manbalardan biri hisoblanadi.

Ibn Battuta o'z hayoti davomida ikki marta sayohatga chiqdi. Birinchi sayohati 1325-1349 yillar, ikkinchi sayohati 1352-1354 yillar.

Marokashlik Ibn Battuta 1325 yilda 22 yoshidla birinchi sayohatini boshlaydi. Tenjer shahridan chiqqan karvon Shimoliy Sahroi Kabirni g'arbdan-sharqqacha kesib o'tib Misrga qarab yo'l oldi. Ibn Battuta Iskandariya va Qohirada bo'lib, bu shaharlarning diqqatga sazovor yerlari, ularning bozorlari bilan tanishgach, Nil daryosi bo'ylab yuqoriga keyin esa Qizil dengiz tomon ketdi. Sohilga yetib borgach, dengiz orqali Arabistonga o'tmoqchi bo'ldi. Biroq buning imkoni

²³ Mirzayev R. Ibn Fadlan: turklar mamlakatiga safar. Moziydan sado, 2005 yil. 1-son. B. 14-17.

bo‘lmadi: u yerda bir necha qabilalar Misr hukmdorlariga qarshi bosh ko‘tarib, urush qilishayotgan ekan. U noiloj Quyi Misrga qaytdi va Falastin orqali Makkaga keldi. Ibn Battuta ziyoratni tugatgach, Makkada qolib, keyinchalik bu yerdan yo voiz, yoki savdogar sifatida yaqin va uzoq mamlakatlarga bormoqchi bo‘ldi. U Makkada yashar ekan. Turli mamlakatlar haqida ma’lumotlar yig`a boshladi.

Zarur ma’lumotlarga ega bo‘lgan Ibn Battuta dastlab Shimoliy Arabistonga bordi, keyin Basra va Eronga o‘tdi. U Mosul orqali Turkiyaga keldi. Bu murakkab sayohat davomida u Mesopatamiya va Falastin bilan tanishdi. Shundan keyin Ibn Battuta yana Makkada ikki yil turib, savdo-sotiq ishlar bilan mashg‘ul bo‘ldi, boylik orttirdi.

Ibn Battuta o‘z safarini arab sayyohlari yuradigan yo‘ldan boshlaydi: Misr va Suriya orqali Qrimga, u yerdan daryolar bo‘ylab Astraxanga o‘tadi. Xuddi shu yerdan Volga daryosida uning uzoq safari boshlanadi. Ibn Battuta Astraxanga kelganda qish edi. U ne-ne azob-uqubatlar bilan Oltin O‘rdaning o‘sha vaqtdagi poytaxti Yangi Saroyga yetib bordi.

Ibn Battuta Yangi Saroy shahrida bir oz dam olgach, bu yerda olib kelgan mollarini sotish bilan birga Oltin O‘rdaning hayoti va tartib-qoidalari bilan sinchiklab tanishadi.

Ibn Battuta topshiriqni muvaffaqiyatli ado etgach, Yangi Saroy shahriga qaytadi. Endi u xon ko‘magiga suyanib, Koma daryosining Volgaga quyilish yerida joylashgan Bulg‘or shahriga yo‘l oladi. Bu shahar bilan tanishib bo‘lgandan keyin. Mo‘ynaga boy bo‘lgan Pechora havzasi yerlariga sayohat qilish rejasini tuzadi.

Keyingi sayohati davomida hammadan ham Xorazm unga ko‘proq manzur bo‘lgandi: “Bu eng yirik va go‘zal turk shaharlaridan biridir,- deb yozgan edi u. – Mashhur bozorlari, keng va ravon ko‘chalari ko‘p, serhasham binolarga boy. Agar uzoqdan shahar aholisini kuzatib turilsa, u dengiz to‘lqini singari chayqalayotgani ko‘zga tashlanib turadi”.

Ayniqsa, Xorazm qovuni tanjerlik sayyohni rom etdi. “Buxoro va Isfahon qovunlarini hisobga olmaganda, dunyoda Xorazm qovunining oldiga tushadigani yo‘q”- deydi mevalarning mashhur bilimdoni Ibn Battuta.

Arab sayyohi o‘z kitobida lo‘nda qilib: “Xitoy, ajoyib narsalarga boy bo‘lsada, menga yoqmadi”, deb yozgan edi.

Hindiston va uning atrofidagi mamlakatlarga qilgan safari bilan Ibn Battutaning 24 yil davom etgan birinchi sayohati tugadi. U ana shu sayohati mobaynida sharqqa Tinch okeangacha, janubga Mozambikkacha, shimolda Bulg‘orgacha bordi.

1347 yili Dehli sultoni vafot etib, saltanat tushkunlikka yuz tutgach, Ibn Battuta ikki yil yo‘l yurib ona shahri Tanjerga yetib keladi.

Sayyohning Tanjerda dam olishi uzoqqa cho‘zilmadi. U yana yangi o‘lkalarni ko‘rishni istardi. Tolmas Ibn Battuta Pireniya yarim oroli orqali Afrikaning musulmon mamlakatlari – Mali, G‘arbiy Sudanga yo‘l oldi²⁴.

Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta 1377 yili yetmish to‘rt yoshida olamdan ko‘z yumdi.

Ryui Gonzales de Klavixo va uning “Kundalik”lari .

Mashhur sayyoh va elchi Rui Gonzales de Klavixoning “Kundalik”lari o‘tmish tariximizni o‘rganishimizda muhim tarixiy manbalardan sanaladi. Bu kitob Temur va temuriylar davri tarixidan baho yurituvchi muhim asarlardan biridir. Kitob 1404 yili Samarqandda Temur saroyida turgan Kastiliya (Ispaniya) qirol Genrix III (1390-1400) ning elchisi Rui Gonzades de Klavixoning yo‘l xotiralaridan iborat, ya‘ni uning 1403-1404 yillari Turkiya, Eron va Movarounnahrda, xususan Amir Temur saroyida ko‘rgan-bilganlarini o‘z ichiga olgan muhim bir asardir.

“Kundalik” muallifi Rui Gonzales de Klavixo badavlat va nufuzli oqsuyak oiladan chiqqan. Otasi ham o‘zi ham qirol saroyida yirik mansabda turishgan. U qirol Genrix III ning vafotidan (1400) keyin ona shahri Madridga ketib qoladi va umrining oxirigacha o‘sha yerda istiqomat qiladi. Rui Gonzales de Klavixo 1412

²⁴ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. - Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997. B. 125-126.

yilda vafot etadi va avliyo Fransesko cherkovidagi ota-bobolarining xilxonasiga dafn etiladi.

Klavixoning Amir Temur yurtiga elchilik sayohati 1403 yilning 22 mayida boshlanib, 1406 yilning 24 martiga borib yakun topadi. Bu sayohatda Klavixo ilohiyot ilmining nomzodi (magistri) Alfenso Pax de Santa Mariya qirolning maxsus soqchisi Gomes de Salazar hamroh bo'ldilar. Klavixoning safari Amir Temurning 1402 yilda Ispaniyaga xoja Muhammad qozi boshchiligida yo'llagan elchiligiga javoban qilingan edi.

Klavixo va uning hamrohlari Ispaniyaning janubi-sharqiy tarafida joylashgan Kadas shahridan yelkanli kemada O'rta Yer dengizi bo'ylab suzdilar, so'ngra Istanbul, Arzirum, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balx orqali quruqlikda yo'l bosdilar. Ular Termiz qarshisida Amudaryodan o'tib, Kesh orqali 1404 yilning 31 avgustida Samarqand qishloqlaridan Misrga keldilar va sohibqironning shu atrofda chorbog'iga kelib tushdilar. Shuni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga Bobil (Misr) va Turkiya sultonining elchilari ham Samarqandga keldilar.

“Kundalik”da o'sha vaqtlarda Amir Temur qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, xalqining kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashbusi bilan barpo etilgan binolar, qasrlar, masjidlar, madrasalar, do'konlar, ustaxonalar, Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston Oltin O'rda, (Klavixo uni Tatariston deb atagan, Mo'g'iliston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo'lgan tartib qoidalar va nihoyat, sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy – siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

Asar birinchi marta 1582 yili, ya'ni yozib tamomlangandan keyin 150 yil keyin Ispaniyaning Sevilya shahrida “Buyuk Temurning hayoti va faoliyati nomi bilan chop etildi. Oradan 200 yil o'tgach, 1782 yili u Madradda shu nomda ikkinchi marta nashr etildi. “Kundalik” ispan tilida uchinchi marta 1949 yili Madridda nashr etildi. Asar rus tilida birinchi marta (tarjimon I.I.Srevnevskiy) 1881 yili Peterburgda chop etilgan. Yaqinda (1990 yil) “Kundalik”ning yana bittia

ruscha nashri (I.S.,Mirakova nashri) amalga oshirildi. Taniqli adabiyotshunos olim professor Ochil Tog'ayevning o'zbekcha nashri I.I.Sreznevskiy nashriga asoslangan va talab darajasida amalga oshirilgan²⁵.

Jenkinson Antoniy (Entoni) (tug'ilgan yili noma'lum -1611) - ingliz sayyohi, diplomati. Yevropa, Osiyo va Afrikaga sayohat qilgan. 1557-72 yillarda Rossiyaga 4 marta kelgan.Maqsadi Angliya qirolligi uchun Rossiyadan Xitoyga yangi yo'l ochish edi. Jenkinson 1558-59, 1562-64 yillarda Ivan Grozniyning ruxsati bilan Rossiya orqali Eron va O'rta Osiyoga o'tgan²⁶.

Moskvada ingliz-rus savdo kompaniyasi ishlay boshladi. 1557 yili, Chensler vafotidan so'ng,mazkur kompaniyaning Rossiyadagi bosh vakili qilib tajribali savdogar va ko'pni ko'rgan sayyoh Entoni Jenkinson tayinlandi. Bundan o'n yil avval u Levantda (Sharqiy O'rta Yer dengizini shunday atashardi) muvaffaqiyat bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgandi. Endilikda Jenkinson kompaniyadan Hindiston bilan Xitoyga boradigan yo'lni qidirish topshirig'ini olgandi²⁷.

Binobarin, Osiyoga Shimoli-Sharqiy yo'l orqali o'tishga urinish samarasiz bo'ldi. Kemalar Karib dengizidagi Vaygach oroligacha yetib kelib, orqaga qaytdilar. Endi quruqlik orqali harakat qilishga qaror qilindi. Sharqqa eng qisqa yo'l Rossiya podshohligi orqali Volga bo'ylab Astraxangacha, so'ng Kaspiy bo'ylab Buyuk ipak yo'lida davom etardi.

1557 yili kompaniya Angiya qirolligidan Moskva, undan Markaziy Osiyo orqali Xitoyga borish maqsadida ekspeditsiya tashkil qildi. Ekspeditsiyaga Entoni Jenkinson rahbar etib tayinlandi. Xalqaro ahvol ham ekspeditsiyaga qo'l kelayotgandi. Bundan sal oldin Rossiya Qozon va Astraxan xonliklarini bosib olib, o'z amloklarini janubi - sharq tomon ancha kengaytirgandi. Lekin boshqa tomondan, ekspeditsiya Moskvani tark etish arafasida Rossiya, Shvetsiya, Polsha va Litva o'rtasida Livon urushi deb nomlangan urush boshlangandi. Urushlar, odatda sayohatlar uchun tahlikali edi.

²⁵ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - Toshkent, 1997. B. 118-119.

²⁶ Mirzayev R. Entoni Jenkinsonning Buxoroga sayohati. Moziydan sado, 2004 yil. 4-son. 33-34.

²⁷Mirzayev R. Entoni Jenkinsonning Buxoroga sayohati. Moziydan sado, 2004 yil. 4-son. 33-34.

1558 yilning 23 aprelida ekspeditsiyai Moskvani tark etib, uzoq va mashaqqatli yo'lga otlandi. Rahbardan tashqari ekspeditsiya tarkibida ingliz-rus kompaniyasi xodimlari aka-uka Richard va Robert Jonson hamda tatar tarjimon kirgandi.

“16 oktabrda Urganch deb nomlanadigan shaharga yetib keldik, bu yerda o'zimizga hamda ot va tuyalarimizga boj to'ladik”. Xozarxda inglizlar ilk marotaba qovun va tarvuzlarni ko'rdilar, ular katta bodringga o'xshash, lekin sariq bo'lib xuddi qandday shirin edi”. Sayyohlar shunigdek, doni “qamishning uchida o'sadigan, uzum boshlariga o'xshab ketadigan” “jo'xori” hayratga soldi.

Jenkinson Urganch shahri tekislikda joylashgan va devorlar bilan o'rab olinganligini tasvirlaydi. Shaharda savdo-sotiq qilinadigan uzun ko'chalar borligini yozadi. Lekin tez-tez bo'lib turadigan urushlar tufayli savdo aloqalari ancha yomonlashgan, shu bois savdogarlarning mollari kam. Shaharda sotiladigan mollar asosan Buxoro va Erondan keltirilgan.

Jenkinson Xorazm podshohi Eshmuhammad sulton tomonidan qabul qilinadi, shunda u hukmdorga rus podshosining maktubi hamda sovg'alarini topshirdi. “Shuni ta'kidlash joizki, - deb yozadi ingliz sayyohi, - u bizni juda yaxshi qabul qilib, shohona ziyofat qildi. Ertasiga u yana meni o'z huzuriga taklif qilib, mamlakatimiz va qonunlarimiz haqida so'rab-surishtirdi. Suhbat oxirida esa, u menga xavfsizlikni kafolatlovchi xat taqdim qildi”²⁸.

Xozarm hukmdorining muhofazalovchi xati bo'lishiga qaramay, Xorazmdan Buxoroga yo'l olgan Jenkinsonning ekspeditsiyasini qaroqchilar tinmay bezovta qilishardi. Sahro sultonlari bo'lmish ushbu qaroqchilar xuddi qum bo'ronlari kabi beboshvoq bo'lib kutilmaganda bostirib kelishar va shu taxlit g'oyib bo'lishardi.

Nihoyat, yo'l mashaqqatlarini yengib, Jenkinson hamrohlari bilan Moskvani tark etganlaridan roppa-rosa sakkiz oy o'tgach, ko'z oldilarida Buxoroning ulug'vor devorlari namoyon bo'ldi. Sharq musulmonlari muruvvatli deb ataydigan, zero bu so'zlarga nafaqat diniy, balki estetik ehtirom hissi yo'g'rilgan Buxoro ingliz savdogarlarining tasavvurlarini lol qoldirdi. “23 dekabr Buxoroga, sobiq

²⁸ Masharipov Q. Xorazmning Yevropa bilan savdo aloqalari. Moziydan sado. 2003 yil, 2-son.

Baqtriyaga yetib keldik. Shahar ko‘plab darvozali baland devor bilan o‘ralgan. Mazkur katta shahardagi ko‘pgina uylar paxsadan qurilgan, lekin toshdan qurilgan va nihoyatda hashamdor bezatilgan inshoot va yodgorliklar ham bor. Bu dunyoda tengi yo‘q me‘moriy durdonalar bo‘lib, ularning qurilishi juda uzoq muddatni talab qilgan”, deb yozgandi Jenkinson.

Sayyohlar o‘zining mutanosibliigi hamda uyg‘unligi bilan lol qoldiruvchi Ismoil Somoniy maqbarasining go‘zalligiga hayratanishardi: yorug‘likka bog‘liq holda o‘zgarib turadigan yupqa g‘ishtdan hosil qilingan murakkab naqsh, maqbara devoridagi naqshlar soni bir kecha-kunduzdagi soatlar soniga mos kelishi va hokazo. Qadimda bu yerda istiqomat qilgan otashparastlar haqidagi ertaklarni tinglab, XII asrda otashparastlar ibodatxonasi o‘rnida qad ko‘targan Mag‘g‘oki Attoriy masjidining naqshlarini tomosha qilishdi. Shaharning eng ko‘zga ko‘ringan inshootlaridan biri, qirq metrli Kalon masjidining minorasi ulug‘vorlik hamda hamda osoyishtalik ramzi sifatida qad rostlab turibdi. Kalon minorasi yaqinida Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan uchta madrasidan biri joylashgan. 140 ta hashamatli me‘moriy yodgorliklar, ya‘ni sirlangan koshin bilan bezatilgan. Ganchkor naqshlangoan, muqaddas sanalmish laylaklar in qo‘ygan havorang gumbazli masjid, madrasa, karvonsaroy, hammom, xonaqohlar Buxoroni sharqona ertaklar shahriga mengzatardi.

“26 martda hukmdor bilan shaxsan tanishish imkoni tug‘ildi,- deb yozadi Jenkinson,. – Biz unga rus podshosining maktubini va sovg‘alarimizni topshirdik. Podshoh sovg‘alarni mamnuniyat bilan qabul qildi va shu munosabat bilan ziyofat uyushtirdi . Bir necha kun o‘tgandan so‘ng u meni huzuriga chaqirtirdi va biz turli-tuman narsalar, ya‘ni Buyuk Turklar, mamlakatimiz, davlat boshqaruvi, qonunlar, din haqida bir necha soat suhbatlashdik...”

Jenkinson Buxoroda har yili bo‘ladigan savdo yarmarkasini borib ko‘rdi. Karvonlar Hindistondan oq mato va parcha, mushki anbar va ziravorlar, Fors (persiya)dan jun gazlamalar, Rossiya va boshqa davlatlardan mo‘yna, idish-tovoqlar, teri olib kelishardi. Afsuski, o‘sha yili Xitoydan karvon kelmagandi.

Buyuk ipak yo'lining karvon so'qmoqlari Qoshg'ar va Toshkent orqali o'tardi, lekin u yerda uch yildan beri urush davom etardi.

Jenkinson hamrohlarini yana xavf-xatarga qo'yishni istamay, uyga qaytishga qaror qildi. Shu taxlit 1559 yil martida Jenkinsonning katta karvoni yo'lga tushdi.

1559 yil 2 sentabrda Entoni Eyenkinson eson-omon Moskvaga yetib keldi, undan u yog'iga Xolmagor, so'ng dengiz orqali Angliyaga yo'l yotardi.

O'rta Osiyo bilan Sharqiy Turkiston hamda Xitoy o'rtasida XVII-XVIII asrlarda mavjud bo'lgan o'zaro munosabatlar to'g'risida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror", Sang Muhammad Badaxshiyning "Tarixi Badaxshon", Mirza Olim Toshkandiyning "Ansob us-salotin sharqiy" asarlarida noyob ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, "Boburnoma" va "Bahr ul-asror"da O'rat Osiyo bilan Qoshg'ar o'rtasidagi o'zaro savdo va siyosiy munosabatlar, shuningdek Qoshg'ar, Oqsuv, Yorkand, Turfon kabi shaharlarning xalqi, ijtimoiy ahvoli to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

I bob bo'yicha umumiy xulosalar

I bob bo'yicha shunday xulosa chiqarish mumkinki,

1. Qadimgi savdo trinit yo'llari bronza davridayoq shakllana boshlaydi.
2. Buyuk ipak yo'li bir necha ming yillar davomida g'arb bilan sharqni bir-biriga bog'lab kelgan.
3. U davlatlar o'rtasida savdo-sotiq, madaniyat, ilm-fan, tibbiyot, harbiy, siyosiy va boshqa ko'pgina sohalar yuksalishiga sabab bo'lgan.
4. Buyuk ipak yo'li qadimgi Xitoyning Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopatamiya orqali, O'rta yer dengizigacha cho'zilgan.

II BOB. BUYUK IPAK YO‘LI BO‘YIDAGI SHAHARLAR TARIXI

2.1. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan O‘zbekiston shaharlar tarixi

Qadimgi Buyuk ipak yo‘li bir necha asrlar davomida Sharq va G‘arbni bog‘lab turdi. Eramizdan avvalgi II asrdan boshlab savdo yo‘llarining birikmasi Xitoy bilan Rim imperiyasini bog‘lar edi. Xitoy elchisi Chjan Szyan nomi bilan bog‘liq Ipak yo‘li I-II asrlarda keng rivojlandi. Xitoy bilan asosan O‘rta Osiyolik savdogarlar – dallollar savdo qilishardi.

Qadimda Ipak yo‘li munosabati bilan I-II asrlarda, ya‘ni 105-115 yillarda Xitoy Parfiya bilan aloqa bog‘ladi. Parfiyaliklar katta qiziqish bilan ipakni xarid qilar edilar. Parfiyaliklardan ipak haqida rimliklar bilishdi. Tarixchi Florning ma‘lumotiga qaraganda rimliklar ko‘rgan birinchi mato eramizdan avvalgi 53-yil Mark Litsiniy Krasni mag‘lubiyatga uchratgan forslarning bayrog‘i bo‘lgan. Savdo yo‘llarining asosiy qismlari siyosiy vaziyatga qarab o‘zgarib turardi. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tashkil topgandan so‘ng savdo aloqalari kuchaydi. Salavkiylarning davrida Ellin hukmdorlarining Oks ortidagi davlatlarga qiziqishlari ortdi. Salavk buyrug‘i bilan Demodam eramizdan avvalgi 293-280 yillarda Yaksartga hujum qildi. U yerda Yaksart orti Antioxiya shahri qurildi. Arxeologlar fikricha bu shahar Xonqa yaqinidagi (Toshkent viloyati, Oqqo‘rg‘on tumani) yoki bu shaharning o‘zi qadimgi Antioxiya bo‘lishi mumkin. Sirdaryo ham asosiy suv yo‘li sanalardi. Yaksartdan tepaga Chochdan Orol dengiziga undan Girkan (Kaspiy) dengiziga keyinchalik Volga bo‘ylab , Tanansiga borilardi. Antik davr mualliflari ma‘lumotlarida Oksdan G‘arbg hind mahsulotlari yetkazilardi.

Salavkiylar davridagi ikkinchi ekspeditsiya Patrokiya nomi bilan bog‘liq. Aristobul va Stratosfen patrokiya so‘ziga tayanib, Oks Osiyodagi yirik daryo deyishdi. Undan Girkan dengiziga ko‘pgina narsalar olib borilardi. Strabon ma‘lumotiga ko‘ra Oksdan o‘tuvchi 25 ta kechuv joylari aniqlangan.

Hindistonga boruvchi boshqa savdo yo‘li O‘rta Yer dengizidan Buxoro Baqtriyaga yoki Marg‘iyona (Turkmaniston), Drangean (Eron) va Afg‘onistonga borgan. Savdoning rivojlanishi shaharlar va aholi madaniyatining rivojlanishiga olib keldi. Miloddan avvalgi IV-II asrda Buxoro so‘g‘dida, Poykent, Varaxsha,

Ramish kabi shaharlar vujudga keldi. Ularning eng mashhuri Poykent bo‘lib, uni savdogarlar shahri deb atashardi. Ko‘pincha savdogarlar savdo yo‘lining oxirigacha borishmas edi, ular kerakli narsalarni yarim yo‘lda sotib olishar edi. Choch, Samarqand va Buxoroda Xitoy savdogarlari mahalliy aholiga mahsulotlarni sotib kerakli narsalarni sotib olishgan. Ipak yo‘lining shimoliy yo‘nalishi bo‘yicha Xitoy, O‘rta Osiyo va Xind tovarlari Kavkaz va qadimgi rus shaharlari: Kiyev, Novgorodga borar edi.

Miloddan avvalgi I asrda xitoyliklarning yanada uzoqroqda joylashgan savdo sherigi Parfiya davlati bo‘lgan. Bu davrda Eron, Xitoy, Hindiston bilan Parfiya davlati o‘rtasida muhim tijoriy-iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lgan: “Ipak yo‘li” dan – Vaxsh, Qorategin va Oloy vodiysi orqali Qashqarga; G‘arbiy yo‘l Parfiyadan Ekbatanga (Eron) bo‘ylab davom etgan; “Oltin yo‘l” - Dovon (Farg‘ona) orqali Issiqko‘ldan o‘tib Sibirga tomon cho‘zilgan. Hindistondan zirovarlar, mushki-anbarlar, Xitoydan ipak matolar, temir nikel, mo‘yna keltirilgan.

Markaziy Osiyoliklar va eronliklar Xitoy bilan Vizantiya yoki Xitoy bilan Yaqin Sharq davlatlari o‘rtasida bevosita savdo aloqalarining rivojlanishidan hech qachon manfaatdor bo‘lmaganlar. Chunki bu harakatning ostida katta iqtisodiy manfaat siyosati bor edi. Shu boisdan ham ipak yo‘li uchun III asrdan boshlab Eron bilan Markaziy Osiyo o‘rtasida hayot-mamot kurashi kuchaydi. Eron va Parfiya o‘rtasida qattiq janglar bo‘ldi²⁹.

Kushon podshohlari davrida O‘rta Osiyo xalqlari hayotida bir qator omillar tufayli katta o‘zgarishlar yuz berdi:

- birinchidan: ulkan markazlashgan quldorlik davlati tashkil topdi;
- ikkinchidan: shaharlar ko‘payib, xalqaro savdo aloqalari kengayib bordi.

Savdo aloqalari quyidagi yo‘nalishlarda rivojlandi: “Ipak yo‘li” sharqda-Xitoy, janubda Hindiston, G‘arbda-Eron orqali Suriya va Rim, shimolda-Xorzam va alanlar mamlakati orqali Sharqiy Yevropa bilan olib borildi. Yana bir yo‘l-Sibir “Oltin yo‘li” mavjud edi.

²⁹ Rahmonov Sh.. Buyuk Ipak yo‘lidagi bojxona. Moziydan sado. 2001 yil. 4-son. B. 15-17.

Eftalitlar (V-VI asrlar) xalqaro tijorat sohasida Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy bilan keng aloqada bo'lishgan. Ipak, shisha, dorivorlar, qimmatli tosh va bo'yoqlar bilan savdo qilishgan.

Eftalitlar davrida rangli oyna ishlab chiqarish rivojlangan. U O'rta Osiyodan asosan Xitoyga tashilar edi.

“Ipak yo'li savdosida Xitoy manbalariga qaraganda” III-VII asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati so'g'dlarning qo'lida bo'lgan. Binobarin, Vey sulolasi tarixining 102-bobida “So'g'd davlati savdogarlari ilgari ko'proq Lyang zaminiga kelib tijorat qilar edi”. Guzangda (Lyang va Guzang hozirgi Uvey shahri bo'lib, ular qadimda Xesi koridoridagi yirik savdo markazlari bo'lgan) ularni ko'plab uchratish mumkin edi”, deb yozilgan.

Milodiy IV asrda Xesi koridorida yashovchi so'g'diylarning soni ko'payadi. Binobarin, ayni zamonda, Xitoyda o'zaro urush bo'layotganligi tufayli savdo ishlariga katta putur yetgan. Xesi koridori hukmdori ana shunday qaltis vaziyatda ham savdo ishlariga katta e'tibor berib, so'g'diylarga qulay va imtiyozli sharoitlar yaratishga harakat qilardi. Natijada, so'g'd savdogarlari bu yerda yashashni ma'qul topib, Markaziy va G'arbiy Osiyo mamlakatlaridan olib kelingan mollarni Xitoyning boshqa o'lkalariga tarqatishda faol harakat qilishardi. Oradan ko'p o'tmay Markaziy Xitoyning bir qator shaharlarida ham so'g'diy mahallalar tashkil topgan³⁰.

“Tan sulolasining yangi tarixi” (Sin tangshu) ning “G'arbiy mamlakatlar” nomli bobida zikr etilishicha, So'g'd davlati yemirilgandan keyin uning ta'siri ostida hududda bir qancha mayda xonliklar tashkil topgan. Ana shu davrda Xesi koridoriga kelib joylashib tijorat bilan shug'ullanganlar soni ko'paydi. Mazkur manbada so'g'diylar “savdo ishlariga qobil keladi, erkaklari 20 yoshga to'lgan zahoti o'zga mamakatlarga borib o'z rizqlarini terishga harakat qiladilar”, deb ko'rsatilgan.

³⁰ Buyuk Ipak yo'lidagi Markaziy Osiyo shaharlari. Konferensiya materiallari. Samarqand, 1994. B. 176-177.

Vang Chjengya, Guan Lyanji, Li Mingvey Chen Aychju va Jin Yue kabi bir guruh xitoy olimlari so'g'diylarning Buyuk ipak yo'li orqali bo'lgan savdo va madaniy aloqalarda katta rol o'ynaganligiga katta baho berishgan: "So'g'diylar miloddan avvalgi V asrlardan boshlab to milodiy X asrgacha bo'lgan taxminan 1500 yillik davr davomida Ipak yo'li orqali bo'lgan aloqalarni rivojlantirishda nihoyatda ulkan hissa qo'shgan".

So'g'diylar, ayniqsa, Dunxuan viloyatida ko'p edi. So'nggi yillarda mazkur viloyat hududida amalga oshirilgan arxeologik qazilmalar natijasida ko'pgina ashyoviy dalillar topilgan: so'g'd tilida yozilgan hujjatlar, savdo ishlariga oid tizim daftarlari hamda o'sha davrga oid ashyolar shular jumlasidandir. Chunonchi, Dunxuan viloyatida topilgan R-3559 raqamli tizimlash daftarida quyidagilarni uchratish mumkin: "Dunxuan viloyatida jami 13 ta qishloq mavjud bo'lib, ularning biri Sungxua qishlog'i deb ataladi, unda yashovchilar orasida xo'rlar nihoyatda ko'p. Sao Syaosyao, Sao Tulichji, Kang (Samarqand) davlatidan kelgan Kang FU, An davlatidan (Buxoro) kelgan An Xaozi, An Jyasha, Shi (Shosh, Toshkent) davlatidan kelgan Shi Sho'lo'dan, Shi Mono', Mi (Zarafshon daryosi janubidagi Samarqand davlatiga qarashli kichin xonlik) davlatidan kelgan Mi Fo'chjengyan, Mi Yuyvan ismliklar yashaydi".

R-3929 raqamli ikkinchi bir hujjatda Dunxuanda yashagan so'g'diylarning olovga topinganligi va ularning ibodatxonasi borligi zikr etilgan. Shuning bilan birga, bu yerdagi so'g'diylar ibodatxonasi hovlisining kattaligi eniga 100 qadam kelishi ham ko'rsatilgan. Xitoy tarixchisi Li Min Veyning yozishicha, Dunxuan viloyatining Sungxua qishlog'i va Ancheng shahri so'g'diylar eng ko'p yashaydigan joylar hisoblangan. Lyu Yinsiengning yozishicha IV asrning birinchi yarmida Dunxuanda yashagan "xushang" (xo'r savdogarlari) ning soni 100 kishidan ortiq bo'lgan. Vey (220-265) va Jin (317-420) sulolari davrida so'g'diylar Ipak yo'lidagi Uvey (Lyangjou) shahrida ko'paygan.

So'nggi yillarda Datang viloyatida topilgan Shimoliy Vey sulolasi davriga oid so'g'd madaniyatiga xos buyumlarning jumladan, kumush va tilladan yasalgan idish-tovoqlarning topilishi bunga isbot bo'ladi.

Xitoy manbalaridagi ayrim ma'lumotlarga qaraganda qadimiy Xitoyning poytaxti Chang'an (Sian) ham so'g'diylar ko'p joylashgan shahar hisoblangan. Ularning ko'pchiligi yirik savdogarlar sifatida faoliyat ko'rsatishgan. Chang'anda bir necha bozor bo'lganligi va so'g'diylar odatda bozorga yaqin joylarda yashaganligi chun shaharning bir qator joylarida zardushtiylar ibodatxonasi mavjud bo'lgan.

Turk xoqonligi davrida (VI-VIII asralar) O'rta Osiyo Eron bilan savdo-sotiq aloqalari yaxshi emas edi. Turklar Vizantiya bilan bu borada bog'lanish uchun 568-569 yillar o'z elchilarini Istanbulga yuborishdi. Ular Kaspiy dengizining shimoli Kavkaz orqali o'tishi kerak edi.

VI asr 70-yillarida Vizantiya va Eron o'rtasida urush boshlandi. Turk xoqonligi bu paytda kuchayib bir necha bor Xitoyga yurish qildi. Va xitoyliklarni kuniga 1000 bo'lak ipak miqdorida o'lpon to'lashga majbur etdi.

VI asr 80-yillarida xoqonlik sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib ketdi.

VII asr boshlarida g'arbiy xoqonlik yana yuksala boshladi va Xitoy bilan birlashuvi kuchaydi. 627-647 yillar Xitoyga O'rta Osiyodan sovg'a-salomlar bilan 9 marta savdo elchilari yuborildi.

VII asrning 30-yillari O'rta Osiyoga xitoylik ziyoratchi Syuan-Szyan keladi. U bu to'g'risida o'z kechmishlarini yozib qoldirgan. Syuan-Szyan Issiqko'l, Chu vodiysi, Choch, Samarqand, Buxoro va Amudaryo bo'ylab sayohat qildi³¹.

630 yili g'arbiy Turk xoqonligining yuksalish davri boshlandi. Uning chegarasi eftalitlar davridagi kabi Hind daryosi qirg'oqlarigacha edi. Shaharlarning ko'payishi Xitoy, Eron bilan savdo-sotiqni jonlantirdi. Karvonlar Marv orqali Chorjo'y, Buxoro, Samaraqand, Choch, Isfijob, Talas, Siyob va so'ng Sharqiy Turkiston vohasiga o'tishgan.

VIII asr o'rtalariga kelib "Ipak yo'li" ning g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tadi.

Tohiriylar va Somoniylar davrida (IX-X asrlar) Movoraunnahrning asosiy viloyatlari, chunonchi Zarafshon vodiysi xo'jalik jihatidan ilg'or edi. Shahar bilan

³¹ Jaborov I. Buyuk ipak yo'li chorrahasidagi tarixiy obidalar. Moziydan sado. 2004 yil. 3-son.

qishloq o'rtasida, qishloq dehqonchilik rayonlari bilan ko'chmanchi dasht o'rtasida muttasil ortib boruvchi mol ayirboshlash, shuningdek, karvon savdosining gurkirashi qishloq xo'jaligining, konchilik va hunarmandchilikning rivojlanishiga imkon berdi.

Movarounnahrda dehqonchilik va bog'dorchilikka ham katta e'tibor berilgan. Shaharlarda ham, qishloqlarda ham hunarmandchilik ishlab chiqarishda ko'plab odamlar mashg'ul bo'lishgan. Zandona (Buxoro viloyatida) qishlog'ida bo'z to'qilgan va bunday mahsulot Iroq, Eron, Hindistonga ham yuborilgan. Iskijkat qishlog'idan bo'z matolarni boshqa joylarga ko'p miqdorda olib ketilardi. Buxorodan qo'y juni, yog', soch moyi, mehmonxonalarga to'shaladigan matolar, Ushmun matolari, egar, Tabariston matolari, go'sht va qovunning alohida turlari olib ketilar edi.

Samarqanddan Samarqand matolari, singin (kumushrang) matolar, kimxoblar, Mamarajil deb ataladigan qizil matolar, sinizi matolari, har xil shoyilar, ro'mollar, uzangilar, sovluqlar, qayishlar, katta mis qozonlar, yong'oq va shu kabilar olib ketilar edi.

Shosh yoki Choch viloyati a'lo sifatli charmi va charm mahsulotlari bilan mashhur edi. Shoshdan boshqa yerlarga ot terisidan ishlangan baland egarlar, o'qdonlar, chodirlar, xom terilar, shuningdek chakmonlar, joynamoz gilamchalar, g'alla, kamon, igna va qaychilar chiqarilar edi.

Sharqiy Yevropa Somoniylar mo'ynasi, oq suvsar mo'ynasi, tulki, quyon, echki mo'ynalari, shuningdek sham, o'q, oq terak po'stlog'i, uzun qalpoqlar, baliq yelimi, baliq tishlari, kanakunjut moyi, anbar, ot terisidan ishlangan charm, asal, yong'oq, qalqon, qayin po'sti, slavyan qullari, qo'ylar va sigirlar – bularning bari bulg'orlardan olingan. Bundan tashqari, Xorazmda quruq mevalar, targ'il movut, qand-qurs, gilamlar, sovg'abop kimxoblar, qulflar, baliq, qayiqlarni ko'plab xarid qilish mumkin edi³².

³² www.ziyounet.uz

Somoniylar davrida Movarounnahrda janubi-sharqiy Yevropa, shuningdek Eron va Kavkazni O'rta Osiyo orqali Mo'g'iliston va Xitoy bilan bog'lab turuvchchi karvon savdosi katta ahamiyat kasb etdi.

Agar VII-IX asrlarda karvon yo'llari orqali faqat zeb-ziynat byumlari tashilgan bo'lsa, Somoniylar davrida (X asr) eng zarur narsalar ko'proq uchraydigan bo'ldi: bular oziq-ovqat mag'sulotlari hunarmandchilik xom ashyolaridir.

Old Osiyoni Mo'g'uliston va Xitoy bilan tutashtirgan karvon yo'li Bag'doddan boshlanib, Hamadon, Nishopur, Marv, Omul (Chorjo'y), Buxoro, Samarqand, Shosh (Toshkent), Taroz (Jambul), Qulon (Lugovaya bekati), Marki, Balosog'un, Suyob, Issiqko'lning janubiy sohili orqali o'tib, keyin Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga borar edi.

O'rta Osiyodan Yevropaga olib boradigan yo'lning ahamiyati katta edi. Xazar podsholigiga qarshi kurash davrida bu yo'l Marv, Buxoro va Xorazm orqali, ya'ni O'rta Osiyo yo'llari orqali o'tgan. Savdogarlar Buxorodan Jayhun (Amudaryo) tomon yurib, so'ngra daryo bilan Qiyot (Xorazm), keyin Urganchga (Jurjoniya), bu yerdan Zamjanga borganlar, so'ngra Elba, Ural, Samara, Kinel, Cherelishan daryolaridan o'tib, Bulg'orga yetib borganlar.

Xorazmning Xazar podsholigining Itil va boshqa viloyatlari bilan madaniy va boshqa savdo iqtisodiy aloqalari ham mustahkam bo'lgan.

X asrda savdogarlar savdo uyushmalariga birlashgan, savdo-sotiqda cheklar ko'p qo'llanar edi. Katta miqdordagi pulni biror shaharda biror sarrofga berib, uning evaziga undan chek olish va mo'ljallangan joyga borish bilan shu chekni ko'rsatib, o'sha chekda ko'rsatilgan miqdordagi pulni to'la ravishda qaytarib olish mumkin edi.

Savdo asosan mol ayirboshlash yo'li bilan olib borilar, pul esa hisob-kitob birligi bo'lib xizmat qilardi, xolos. Savdogarlar o'z mollariga muayyan narx qo'yar va boshqalarning ham shunday narx qo'yilgan moliga o'z mollarini ayirboshlab olar edilar. Masalan, Xitoyda kumush dirhamlarni qabul qilmay, faqat molga mol

ayirboshlaganlar. Sharqiy Yevropada esa dirhamlar ham pul, ham mol o'rniga o'tgan.

Karvon savdosi murakkab xizmatni talab etardi. Shahar va qishloqlarda karvonsaroylar qurilgan, ularda savdogarlar va karvonga xizmat qiluvchi xodimlar uchun hujralar, tuyalar, otlar, xachirlar, eshaklar uchun og'ilxonalar bo'lgan. Zarur yem-xashak va oziq-ovqat saqlanar edi.

Xitoydan O'rta Osiyoga kimxob va shoyi, arzon matolar, oltin va kumush aralashtirib to'qilgan zarboj matolar olib kelinar edi. O'rta Osiyodan Xitoyga shisha yuborilar, ayniqsa Samarqand shishasi o'zining yuqori sifatlilikligi bilan yuqori baholanardi. Ilgari shisha zeb-ziynat buyumi hisoblangan. O'rta Osiyodan Xitoyga otlar ham sotib turilgan.

Sharqiy Yevropaga, ikki yirik bozor: Itil va Bulg'orga O'rta Osiyodan zarb etilgan dirhamlar, sholi, ip gazlama, jun va shoyi matolar olib ketilgan.

Xorazmga Sharqiy Yevropadan ko'plab teri, mo'yna, mo'ynali hayvonlar, teri oshlashda ishlatiladigan po'stloq, qoramol va qullar olib kelingan. Shimoliy Yevropadan mo'yna va teridan tashqari asal va qullar keltirilgan.

XII asrning ikkinchchi yarmiga kelib Xorazm xalqaro savdoning yirik markaziga aylanib qoldi. Bu yerda savdogarlar Volgabo'yi, Hindiston, Erondan kelishar, bu yerdan esa savdo karvonlari Yaqin Sharq, Sharqiy Turkiston va Xitoyga yo'l olar edi. Xorazm poytaxti Urganchdan yo'llar Mo'g'ulistonga, qipchoq dashtlari orqali esa Volga mansabidagi port shahar Saksiyaga rus knyazliklariga va Yevropaga yo'nalgan.

XIII asrga kelib "Ipak yo'li"ning barcha tamoqlari bo'ylab nazoratni Chingizxon o'z qo'lga oladi. Bu holat to XIV asr o'rtalarigacha davom etdi. So'ngra "Ipak yo'li" Temur va temuriylar nazorati ostiga o'tdi.

XV asrda Temuriylar davlati uzoq va yaqin qator qo'shni mamlakatlar: Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rossiya, Volga bo'yi va Sibir bilan muntazam savdo-sotiq qilardi. Xitoydan asosan ipak, shoyi matolar, xususan atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk; Hindistondan nafis oq rangli ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar; Erondan surp, marvarid, durlar, Rossiya, Tatariston va

Sibirdan qimmatbaho mo'yna, teri va mo'm olib kelinar edi. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida farang gazmollari, movuti, Cherkas pichog'i bor edi.

Samarqanddan chet mamlakatlarga, xususan Rossiya, Tatariston va Sibirga arzon narxli ip matolar, asosan bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta va kalavalar chiqarilgan.

Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari katta rol o'ynadi. XV asrning birinchi choragida Ulug'bek va Shohruh daavlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam ravishda elchilar almashib turiladi. Xitoy temuriylar bilan savdo qilishdan manfaatdor edi. Xitoy Movarounnahr va Xurosondan yilqi sotib olardi. Har ikkala davlat o'rtasidagi savdo va elchilik aloqalari bu davrda yanada rivoj topadi. Deyarli har ikki – uch yilda Samarqand bilan Hirotga Xitoy elchilari va savdogarlari, Xonbaliqqa (pekinga) esa Movarounnahr va Xuroson elchilari va savdogarlari qatnab turishgan. 1418 yilda Ardasher boshliq Shohruh elchilari Xitoyda bo'ladilar. 1419 yilda bunga javoban Li-Do va Jong-Fu Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar. Elchilar Ulug'bek va Shohruh nomiga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususidagi takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a-salomlar topshiradilar. 1420 yilda Shohruh va Ulug'bek 530 nafardan iborat elchilik karvonini Xitoyga jo'natdilar. Temuriylarning elchilari ikki yildan ortiqroq Xitoyda bo'lib, 1422 yilda o'z vatanlariga qaytib ketadilar. Movarounnahrdan Xitoyga o'sha zamonlarda ikki karvon yo'li orqali borilgan. Birinchi yo'l Toshkent, Sayram, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning Turfan va Kumul shaharlari orqali, ikkinchi yo'l Farg'ona vodiysi orqali Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va O'sh orqali Oloy vodiysi bo'ylab borgan va Sharqiy Turkistonning Qoshg'ar, Xo'tan, Yorkent shaharlari orqali o'tgan.

Shohruh bilan Ulug'bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatiladi. 1421 yilda Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. 1441-1442 yillarda Shohruh Hindistonga Bijanagar saroyiga tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilarni yuboradi. U

Karmon, Ormuz va Fors qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayyohatini yozib qoldiradi.

Osiyo xalqlari iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati beqiyosdir. U sharqda Xitoydan boshlangan. Shu sababli shaharlar tarixini o'rganishni Buyuk ipak yo'li yo'nalishi bo'yicha boshlasak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xitoy shaharlaridan Sian, Dunxuan, Kumul(Xami), Urumchi, Qoshg'ar, Yorkent, Xotan Buyuk ipak yo'lidagi qadimiy shaharlardan hisoblanadi.

Sian - Xitoy davlatlarining qadimiy va o'rta asrlardagi poytaxti bo'lib, bu yerda ko'plab mashhur tarixiy, arxeologik va arxitektura yodgorliklari mavjud. Sian shahrida 772 yil qurilgan budda ibodatxonasi hozirgacha saqlanib qolgan. Shensi viloyatidagi muzeyning arxeologiya ko'rgazmasida Sin, Xan, Tan sulolalariga mansub buyumlar uchraydi. Ular orasida qurollar, terrokata haykalchalar, idish-tovoqlar ko'zga tashlanadi. Ko'rgazmaga qo'yilgan buyumlarning aksariyati o'rta asr Xitoyining Ipak yo'li orqali savdo aloqalari haqida shohidlik beradi³³.

Dunxuan - Xitoyning Gansu profinsiyasining g'arbida joylashgan shahar. Dunxuan milodning birinchi ming yilligida Xitoyni Janubiy va G'arbiy Osiyo bilan hamda G'arbiy Osiyo orqali Yevropa bilan bog'laydigan Buyuk ipak yo'lida muhim nuqta bo'lgan. Dunxuandan 14 km janubi-g'arbda g'orlarda joylashgan budda monastri bor. Syanfodun ("Ming budda g'ori 353-366) bor. 480 ga yaqin g'or saqlanib qolgan. (Eng kattasi Mogao g'ori), 1899 yili g'orlardan birida 20 mingdan ortiq Xitoy, Hindiston, O'rta va Kichik Osiyoda yashagan xalqlar tilida yozilgan qo'lyozmalar topilgan. 1907 yili bu topilmalarning ko'pchilik qismi Aurel Stey ekspeditsiyasi tomonidan Angliyaga olib ketilgan va Britaniya muzeyiga topshirilgan, bir qismi Pekin kutubxonasida saqlanmoqda.

Xami - (hozirgi Kumul shahri) Shimoliy-g'arbiy Xitoydagi shahar. Sinszyan – Uyg'ur avtonom respublikasining sharqiy qismida. Lansin temir yo'li va

³³ Raxmonov Sh.A. Tavka. Turon Movarounnahr sivilizasiyasi. – Toshkent, , A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2001.

Lanchjou –Urumchi avtomobil yo‘llari ustidagi transport punkti. Bu shaharda arxeologik ko‘rgazmasi paleolitdan to o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrga mansub turli madaniy ashyolaridan iborat muzey mavjud. Ko‘rgazmalarda bronzadan ishlangan mehnat qurollari, qurol-yarog‘lar, taglikda bronza qozoni, xunn davri buyumlari, qadimgi turk madaniyati ashyolari va hokazolar bor. Sak madaniyati topilmalari alohida xonaga qo‘yilgan. Xami shahrida Adkara masjidi hamda Tan davrida yashagan va Xitoyda islom dinining ilk targ‘ibotchilaridan biri bo‘lgan G‘ozixon Vali mozori bor.

Urumchi (xitoycha nomi-Dixua) - Xitoydagi shahar. Sinsyan – Uyg‘ur avtonom respublikasining ma‘muriy va asosiy sanoat markazi. Tyanshan tog‘larining shimoliy etagida, Urumchi daryosi vodiysidagi vohada joylashgan. Urumchi shahri muhim iqtisodiy va madaniy markaz hisoblanadi. Shuningdek transport yo‘llarining muhim tarmog‘ida joylashgan

Qoshg‘ar – Qashg‘ar, Kojg‘ar, Kashi- Xitoyning g‘arbiy qismidagi shahar. Sin Szyan-Uyg‘ur avtonom respublikasining, Qashg‘ar daryosi sohilida, Tyanshan tog‘larining janubiy etagida joylashgan. Shahar to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi manbalarda uchraydi. Milodiy I asr boshida Qoshg‘ar bir kichik xonlik poytaxti bo‘lgan. Keyinchalik u xunnlar, kushonlar.eftalitlar davlatlari, Turk hoqonligi (V-VII asr), Uyg‘ur hoqonligi (VII-IX asr) tarkibiga kirgan. X-XII asrlarda Qoraxoniylar davlati poytaxti bo‘lgan. Bu davrda u sharqiy Turkistonning siyosiy va madaniy markaziga aylangan. Hozirgi Qoshg‘ar shahri Abu Bakr Dug‘lat davri (1480-1514) da qayta qurilgan. Yorkent xonligi va jung‘orlar hukmronligi davrida poytaxt Yorkent shahriga ko‘chdi. 1878 yili manjur-xitoylar Sharqiy Turkistonni bosib olgach, Qoshg‘ar yana ma‘muriy, madaniy markazga aylandi. Qoshg‘arda arxitektura yodgorliklaridan Mahmud Qoshg‘ariy, Oppoq Xo‘ja, Yusuf Xos Hojib kabi allomalarning maqbaralari va budda ibodatxonasi mavjud.

Yorkent - Xitoyning Sinszyan – Uyg‘ur avtonom respublikasidagi shahar. Takla-Makon cho‘lining g‘arbiy qismida, Yorkentdaryoning o‘ng sohilida, 1200 metr balandlikda joylashgan, Shahar ikki qism-musulmonlar yashaydigan Yorkent

va xitoylar yashaydigan Shachedan iborat. Yorkent muhim savdo va tranzit punkti hisoblanadi. Yorkent orqali qadimda O'rta Osiyodan Sharqiy Turkistonning boshqa shaharlari va Hindistonga boriladigan karvon yo'li o'tgan.

Xo'tan - Xitoyning shimoli-g'arbiy qismidagi shahar. Sinszyan – Uyhur avtonom respublikasidir. Yurunqosh daryosi vodiysidagi bu shahar Shimoliy Kunlun avtomobil yo'lidagi transport punkti hisoblanadi. Xo'tan shahri Taklamakon cho'lidagi vohaning markazi bo'lib. Qadimda karvon yo'llarining kesishgan joyi bo'lgan. XV asrgacha Xo'tan orqali Xitoydan Yevropaga ipak olib borilgan. Shahar atrofida ipakchilik rivojlangan ipak yigirish fabrikasi mavjud.

Lohur – Pokistonning shimoli-sharqiy qismidagi shahar. Chinob daryosining so'l irmog'i ravining chap sohilida. Panjob viloyatining ma'muriy va iqtisodiy markazi. Kattaligi jihatidan mamlakatda Karachidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Lohur transport yo'llarining muhim tarmog'ida joylashgan bo'lib, Pokistonning savdo moliya va diniy markazi hisoblanadi. Hunarmandchilik (oltin va kumush buyumlar tayyorlash. Gilam to'qish, kashtachilik va naqqoshlikning qadimiy markazi. Lohur shahrida san'at va savdo muzeyi mavjud.

Kobul – Afg'onistonning poytaxti bo'lib, Kobul daryosi vodiysida, 1820 metr balndlikda, Asmon va Sherdarvoza tog'lari orasidagi vohada joylashgan shahar.

Ptolemey asarlarida Kobul Kobur shaklida uchraydi. Kushon podsholigi, keyinchalik eftalitlar davlati tarkibida bo'lgan. Eftalitlar davlati tanazzulga uchragach, Kobulni buddizm dinidagi mahalliy hokimlar (Kobul shohlari) idora qilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari "Boburnoma"da shunday satrlarni o'qiymiz: "Hindiston bilan Xuroson orasidagi karvon yo'llarida ikkita shahar bor. Biri Kobul, yana biri Qandahor. Kobul-Hindiston bilan Xuroson o'rtasidagi vositachidir. Bisyor yaxshi savdoxonadir. Xitoy yoki Rumga (Kichik Osiyoga) borganlarida ham shunchalik savdo qilg'aylar. Har yili yetti-sakkiz – o'n ming ot Kobulga keladi. Quyi Hindistondan o'n-o'n besh-yigirma ming o'ylik (mayda ho'kiz) karvon Kobulga keladi. Hindistondan oq mato. Qandliklar va

dorivor giyohlar keltiradilar. Xuroson va Iroq, Rum va Chin (Xitoy) mollari Kobulda topiladi” .

Bomiyon (Bomion, Bamion) - Afg‘onistonning Kobul shahridan 230 km shimoli-g‘arbda, tog‘ ustida joylashgan qadimgi shahar. Bomiyon I asrdan ma’lum. U kushonlar saltanati va ilk feodalizm davrida tog‘dan o‘tadigan savdo karvon yo‘li ustida qurilgan. Unda budda ibodatxonalari qurilgan va ma’budalar haykallari qo‘yilgan. Haykallardan biri erkak kishi gavdasining uzunligi 36 metr bo‘lgan. Xitoy sayyohi Syuan Syanning (VII asr) ta’rifiga ko‘ra, Bomiyonda o‘nta budda ibodatxonasi va mingdan ortiq budda rohiblari bo‘lgan.

XXI asr boshida Bomiyon o‘lkasidagi Buddha haykallari va g‘orlar terrorchilar tomonidan yer bilan yakson qilindi. O‘zining bebaho “xazina”si, “mo‘jiza”si bilan necha asrlardan buyon dunyo sayyohlarini o‘ziga maftun etgan Bomiyon o‘lkasi o‘rnida ukltepa qoldi, xolos.

Hirod - Afg‘onistonning shimoli-g‘arbiy qismidagi shahar. Herirud daryosidan sug‘oriladigan kattagina vohada joylashgan. Kushka, Mashhad. Qandahor va Shimoliy Afg‘onistonga boriladigan avtomobil yo‘llari tarmog‘ida joylashgan.

Shaharning nomi miloddan avval ham ma’lum bo‘lib, Sosoniylar davrida yirik shaharlardan biriga aylangan. VII asrdan Arab xalifaligi tarkibida bo‘lib, ancha rivojlandi. Somoniylar davrida esa Hirod Xurosonining eng asosiy shahri hisoblanardi. U Seyiston, Forsning janubidagi shaharlar bilan savdo-sotiq qilardi. X asr boshida Hirod G‘uriylar davlati tarkibiga kirdi. 1020 yildan Hirodni G‘aznaviylar noibi Sulton Mas‘ud boshqargan. 1221 yili Hirodni Chingizxonning o‘g‘li Tulay qo‘shinlar egallab, butunlay vayron etdilar. 1234 yili O‘qtoyxon Hirodni qayta tiklashni buyurdi. Marv va Balxning mo‘g‘ullar tarafidan vayron etilishi natijasida karvon yo‘llari O‘rta Osiyodan Hindiston va Xitoyga Hirod orqali o‘tgan. Kurtlar hukmronligi davridan Hirod Xurosonning asosiy shahri sifatida tez rivojlandi. 1383 yili Amir Temur Hirodni egallab, o‘z davlatiga qo‘shib oldi. Hirod dastlab Mironshoh (1368-1408) ning , keyinchalik 1397 yildan Shohruh (1377-1447) Abu Sa‘id (1458-690, Sulton Husayn (1469-1506) va boshqa temuriylarning poytaxti bo‘lgan. Hirod temuriylar hukmronligi yillarida juda taraqqiy etgan. O‘rta

Sharqning yirik savdo, hunarmandchilik va madaniy shahriga aylangan. Hindiston, Xitoy, Moskva davlati va boshqalar bilan savdo va madaniy aloqalar olib borgan³⁴.

Nishopur - Eronning shimoli-sharqiy qismidagi shahar. Xuroson ostonasidan Nishopur orqali Mashhad-Tehron temir yo‘l, avtomobil yo‘li o‘tgan. Nishopur yaqinidan feruza qazib olingan. Nishopur nomi Shopur I (yoki Shopur II) ismi bilan bog‘liq, 650 yilda uni arablar egallagan. IX asrda Tohiriylar davlatini, 10 asrda somoniylar davlatining Xuroson noibliги poytaxti, IX-XII asrlarda Fors, Kirmon, Xuroson, Gurgon, Sind mollari uchun yirik bozor bo‘lgan. XI-XII asrlarda saljuqiylarning qarorgohlaridan biri, 1221 yilda mo‘g‘ullar Nishopurning barcha aholisini qatl etgan. XIV-XV asrlarda shahar qayta tiklangan. Nishopurda Umar Xayyom va Fariddiddin Attor yashab, ijod qilgan va shu yerda dafn etilgan. 1963 yilda Umar Xayyomning qabriga maqbara qurilgan³⁵.

Tehron – Eronning poytaxti. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, savdo moliya va madaniy markazi. Tehron XII asrda Ray shahri yaqinidagi manzilgoh o‘rnida barpo qilingan. XIV asrdan boshlab yirik savdomarkaziga aylandi.

Bag‘dod – Iroqning poytaxti. (1921). Dajla daryosining har ikki sohilida, Markaziy va Janubiy Osiyo hamda O‘rta dengiz mamlakatlarini birlashtirib turuvchi yo‘llar chorrahasida joylashgan. Mamlakatning eng katta shahri hisoblanadi.

Bag‘dodni 762 yili xalifa Mansur (754-775) madinat us-Salom (Tinchlik shahri) nomi bilan bino qilib, Abbosiylar xalifaligi poytaxtiga aylantirgan. Bahdod etimologiyasi to‘g‘risda bir necha rivoyatlar bo‘lib, shulardan eng ko‘p tarqalgan: Bog‘i Dod (Dodning bog‘i) va But tuhfası (Qadimgi forscha – bag‘ – but (sanam), dod berilgan) IX asrda Bag‘dod hunarmandchilik, savdo va arab o‘rta asr madaniyatining markazi bo‘lgan.

Istanbul - (yunon. Konstantinapol) Turkiyadagi eng katta shahar. Istanbul viloyatining ma‘muriy markazi. Istanbulga 326 yilda Vizantiya imperatori Konstantin asos solgan va shahar uning nomi bilan atalgan. 1453 yilda Istanbulni

³⁴ Raxmonov Sh.A. Tavka. Turon Movarounnahr sivilizatsiyasi. – Toshkent, , A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2001. 133-135.

³⁵ Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. - Toshkent, 1997.

turklar bosib olgan va Usmonli turk imperiyasining poytaxtiga aylantirilgan, shu vaqtdan boshlab shahar Istanbul deb atala boshlangan.

Istanbul qulay geografik oʻrnida joylashgan. Istanbul mamlakatning muhim sanoat, moliya, savdo markazi. Turkiyadagi jami savdo ishlarining yarmi Istanbulga toʻgʻri keladi. Istanbul dengiz, quruqlik, havo yoʻllarining tarmogʻida joylashgan. Turkiyaning asosiy porti, bu yerdan xalqaro kema yoʻllari oʻtadi. Temir yoʻl orqali Yevropadagi koʻpgina poytaxt shaharlar va mamlakatning ichki rayonlari bilan bogʻlangan.

Toshkent - Markaziy Osiyoning yirik qadimiy shaharlaridan biri – Oʻzbekiston Respublikasining poytaxtidir. Oʻrta Osiyoning ulkan sanoat-transport chorrahasi va madaniyat markazlaridan biri. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan togʻlari etaklarida, 440–480 m teppalikda, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan. Shahar sifatida Toshkent haqidagi birinchi maʼlumotlar eramizdan avvalgi II asrdagi qadimgi-sharqiy manbalarda uchraydi; Xitoy manbalarida Yuni deb atalgan; Fors shohi Shopur I eramizdan avvalgi 262-yildagi “Zardusht Kaʼbasi” qaydnomalarida Toshkent vohasi Choch deb nomlangan. Choch – oltin eksporti, qimmatbaho toshlar, shirinliklar va aslzot otlarni boshqa shahar va mamlakatlarga olib oʻtishdagi yoʻlning chorrahasida joylashgan. “Tosh shahar” maʼnosini anglatuvchi bugungi Toshkent – zamonaviy respublikaning poytaxti, oʻtmish maʼlumotlarini saqlovchi, Oʻzbekiston tarixi haqida koʻp maʼlumotlarni xotirlovchi, 2 milliondan ortiq aholisi boʻlgan bu shahar Markaziy Osiyoning eng katta industrial markazlaridan biridir. Shahar “Toshkent” nomi bilan dastavval XI-asrning mashhur allomalari - Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshgʻariyning asarlarida tilga olinadi. Beruniy “Hindiston” asarida Toshkent nomining kelib chiqishi toʻgʻrisida soʻz yuritib, “Tosh” soʻzi asli turkcha boʻlib, Shosh koʻrinishini olgan. “Toshkand – toshli qishloq demakdir”, deb izohlaydi. Mahmud Qoshgʻariyning maʼlumoti boʻyicha, Toshkent XI–XII-asrlarda “Tarkan” deb ham yuritilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” da Toshkent nomi ustida toʻxtalib, asarlarda Toshkent nomini Shosh, baʼzan Choch yozadilar” deb qayd etadi. Biroq XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Toshkent toponimi

shuhrat topib, uning qadimgi Choch, Shosh va Binkat nomlari asta-sekin muomaladan tushib qoldi. XVII-asrda yashagan tarixchi olim Mahmud ibn Vali shunday yozadi: “Shosh – Sayxun (Sirdaryo)ning u tomoniga joylashgan shahar va Turkiston (viloyat)ga qaraydi. Uni Choch ataydilar. Biroq hozirgi vaqtda u Toshkent nomi bilan mashhurdir”. Toshkent vohasida shahar madaniyatining saqlanib, shaharning qad ko`tarishi shu o`lkada yashagan qadimgi chorvador va dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo`lib, bu jarayon shubhasiz o`lkaning o`zlashtirilib, obod etilishi, ayniqsa, unda chorvachilik va dehqonchilik xo`jaliklarining tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog`liqdir. Bu jarayonning tarixiy manzarasi nihoyatda keng bo`lib, u yozma manbalarga nisbatan ko`proq arxeologik tadqiqotlar vositasi bilan tiklanmoqda. Shuning uchun ham Toshkent hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari qadimgi va o`rta asrlarga oid manbalardagi ma`lumotlarni to`ldirib, ularga aniqlik kiritmoqda.

Xiva– Xorazmning qadimiy shaharlardan biri bo`lib, o`rta asr sharq me'morchiligining tengsiz javohiridir. U hozirgi Urganch shahridan 25 km janub tomonidagi tekislikda joylashgan.

Rivoyat qilishlariga ko`ra Xiva shahriga Nux payg`ambarning o`g`li Som asos solgan. Shahar karvon yo`lida joylashganligi uchun u erda savdogarlar tez-tez bo`lishib turishardi. Shaharga tushib, uning chuqur quduqidan chiqayotgan obihayotdan bahra olgan yo`lovchilar hayratdan “xey-voh” deb yuborishgan. Buni o`zlaricha talqin qilgan mahalliy axoli shaharni “Xey-voh”, “Xayva”, “Xivaq” deb aytib boshlashgan. O`sha davr solnomachilaridan biri Al-Istaxriy (930 yil) Xiva shahrini o`z davrining eng yirik 30 ta shahri ro`yxatiga kiritgan. Xiva shahri va uning tevarak-atrofi Xeykanik (hozirgi Polvonyop) arig`idan sug`orilib obod va xushmanzara bo`lgan. Mazkur ariq Amudaryodan bir irmoq sifatidan ajralib chiqqan. O`zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan 1984-1993 yillarda Xiva shahrida o`tkazilgan

arxeologik qazishmalar natijasi shuni ko'rsatadiki, "Ichan Qal'a" xududi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo'lgan. Savdo-sotiq rivojlangan, obod Xiva shahri XIII asr boshlarida mo'g'illar tomonidan vayron qilingan, keyingi asrlarda shahar har tomonlama rivojlangan. Bu erda ma'muriy binolar qurilib, shahar obodonlashtirilib, savdo-sotiq rivojlandi. Lekin, bu yuksalish uzoq davom qilmadi. 1740 yili Eron shoxi Nodirshox Xiva xonligiga xujum boshlaydi. 1740 yili kech kuzda Xiva shahrini ishg'ol qiladi. Nodirshox xujumi natijasida Xiva shahri butunlay vayron qilinib, mamlakat Eronga qaram bo'lgan o'lkaga aylantirilgan. Shundan keyin mamlakatda bir necha yillar ko'chmanchi turkman zodagonlari hukmronlik qildilar. Ular bilan mahalliy o'zbek zodagonlari o'rtasida davlatni qo'lga olish uchun bo'lgan qonli kurashlar natijasida mamlakat vayron bo'ldi, xalq esa chidab bo'lmas darajada qashshoqlashdi. Nihoyat, qonli urushlar, o'zaro nizolarga bir qadar barham berildi. XIX asrning boshlariga kelib Xiva xonligi taxtiga Qo'ng'iro't sulolasidan bo'lgan xonlar chiqib 1920 yilgacha idora qilishgan.

XIX asrga kelib shahar kengaydi, u ikki qismdan, ya'ni Ichan Qal'a shahriston (ichki shahar) va Deshon Qal'a rabot (tashqi shahar)dan iborat bo'lib. Shahar tevaragida esa o'nlab qishloqlar joylashgan edi. Ichan Qal'a shahriston o'ziga xos yaxlit me'moriy inshootlardan iborat bo'lib, baland paxsa devor bilan o'ralgan, devor aylanasining uzunligi qariyib 2200 metrgacha, balandligi 7–8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5–6 metrga teng. Ichan Qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, ya'ni 26 gektar maydonni egallaydi, to'rtta darvozasi dunyoning to'rt tomonga qaratib qurilgan. Ichan Qal'a devorlari vaqt o'tishi bilan bir necha bor buzilgan va qayta ta'mirlangan.

Deshon Qal'a – rabot. Ichan Qal'a atrofida XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Deshon Qal'ada kambag'al-kosiblar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashashgan. Deshon Qal'a 1842 yilda baland devor bilan o'rab olingan bo'lib, hashar yo'li bilan bir oy davomida qurilgan,

qal'ani qurishda xonlikning 200 mingdan ziyod aholisi qatnashgan. Bu haqda Ogahiy shunday yozadi: “Ham shu yili 1268 hijriy (1842 melodiy) Muhammad Yoqub mehtar va Otamurot qushbegi boshchiligida Rajab oyining sakkizida, dushanba kuni Xiva devorini qurish boshlangan va o'ttiz kun davomida qurib bitkazilgan”. Deshon Qal'ani o'rab olgan devorning uzunligi 6250 metr, uning o'nta darvozasi bo'lgan: Xazorasp (Qo'y darvoza), Pishkanik, Angariq, Shixlar, Tozabog', Shoximardon, Doshyoq, Gadoylar, Qo'sha darvoza va Gandimyon. Deshon Qal'ada turar joylardan tashqari xonning yozgi qarorgohlari uchta bog' – Rofanik, Nurullabek va Nurullaboy bo'lgan. Deshon Qal'a qurilishi bilan shahar ikkita qismga bo'lingan va shahar maydoni bir necha o'n marta kengaygan.

1920 yilgacha Xiva shahrining Ichan Qal'a xududida 33 ta mahalla (machitqo'm) va Deshon Qal'a xududida 34 ta mahalla mavjud bo'lib, ularning har biri o'z nomiga ega edi. Mahalla nomlari u erda istiqomat qilgan kishilarning kasb-koridan darak berib turgan. Shaharda 109 ta katta va kichik ko'chalar, 79 ta masjid, 120 ta qorixona, 64 ta madrasa bo'lgan.

Xiva shahri Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo'lining eng muhim chorraxalaridan birida joylashgan. Xiva shahri 1990 yil 12 dekabrda YuNESKOning Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib «Butun jahon merosi» sifatida ro'yxatga olingan. Xiva «Ichan-Qal'a» Davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekistonning eng ko'hna muzeylaridan biridir. Qo'riqxonada 54 ta qadimgi tarixiy memoriy binolar, 360 xonadon 2600 aholi istiqomat qiladi. Xiva «Ichan-Qal'a» tarixiy me'moriy Davlat muzey-Qo'riqxonasi bisotida Xorazmning 3000 yildan ko'proq uzoq tarixini, uning ma'naviy va moddiy madaniyatini yorituvchi 40.000 ga yaqin nodir, asosiy fond eksponatlari saqlanmoqda.

Buxoro-asrlar davomida ulkan sharqning ilmu ma`rifat va madaniyat markazlaridan biri sifatida jahonga dong`i ketgan mashhur, qadimiy shahardir.

O`rta asrlarda Buxoro Movraunnahrning yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va ma`muriy markazlaridan biri bo`lib, yaqin va o`rta sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog`lagan qadimiy xalqaro savdo yo`li –”Buyuk ipak yo`li” ana shu shahar orqali o`tgan. Bu davrda Buxoro O`rta Osiyo va O`rta Sharqda ilm-fan, ma`rifat va madaniyatning markazlaridan biriga aylanib, mazkur shaharda diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan. Bu yerda o`z davrining mashhur mutafakkir olim va adiblari Ismoil Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Narshaxiy, Pudakiy, Daqiqiy, Xo`ja Bohovuddin Naqshbandiy va boshqalar yashab ijod etganlar. Buxoro ilk o`rta asrlardayoq ”Qubbatul islom”, Buxoroi sharif” sifatleri bilan musulmon olamida shuhrat topgan.

Arxeologik ma`lumotlarga ko`ra, Buxoroga miloddan avvalgi 1-ming yillik o`rtalarida asos solingan. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara – hayvonot va o`simlik dunyosi betakror, ko`l va oqar suvlarga boy bo`lib, tarixchi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi ma`lumotlar buni tasdiqlaydi.

Buxoro nomi ilk o`rta asr Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxaer, Buxuaer, Buxala, Buxuala, Fuxo, Puxuala va boshqalar) atalgan. Bu atamalardan avvalgi uchtasi Buxoro shahrining xitoycha nomlari bo`lib, qolgani “Buxoro” so`zining xitoy tilidagi talaffuzidir. O`rta asr arab manbalarida esa Buxoro shahri Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo`rg`on), Al – Madina assufriyya (Mis shahar), Madinat attujjor (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar) kabi nomlar bilan tilga olingan.

“Buxoro” atamasi sanskritcha “vixora” so`zining turkmo`g`ulcha shakli – “buxor” (“ibodatxona”) dan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama sug`diycha “bug`” yoki “bag” (“tangri”) hamda “oro” (“jamol”) so`zlaridan iborat bo`lib, “tangri jamoli” degan ma`noni anglatadi, degan fikr ilgari surilmoqda.

Shahrisabz - o`rta asrlardan Kesh deb nomlangan qadimgi Nautaka shahri. “Dilkash”, “Qubbatul ilm val-adab” tashbehlari bilan e`zozlangan .1336 yil 9 aprelda Shahrisabz shahri yaqinidagi Xo`ja Ilg`or qishlog`ida barlos urug`idan

bo'lgan aslzoda Tarag'ay oilasida buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tug'ulmaganida ,bu shahar dunyoga bu qadar mashhur bo'lmadi. Shahrisabz Amir Temur ulkan davlatining ikkinchi poytaxti bo'lib, u bu shahar to'g'risida doim g'amxo'rlik qilgan, obodonlashtirgan va zeb bergan.O'sha paytda tengi bo'lmagan hashamatli Oqsaroy qasri buning yaqqol dalilidir.

Ko'hna Qashqadaryoning sharqiy qismida qanday sabablarga ko'ra ,milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda avvalgi rivojlanish bosqichlarini kechirmay turib , mustahkamlangan ,manzilgoh (sangirtepa) yuzaga kelgani ,keyinchalik ulkan shaharga refugiunga (Uzunqir) aylangani masalasi hozir ham noaniq bo'lib qolmoqda.Ahamoniylardan oldingi va ahamoniylar davridagi (mil. Avv.VI-IV asrlar)Uzunqir Nautaka viloyatining yirik poytaxti, bo'lajak Shahrisabzning ilk darakchisi bo'lgan.Ilk o'rta asrlarda (V-VIII asrlarda) shahar yangi joyga ko'chib,alohida mulk poytaxti sifatida qaror topib , 190 yilcha , ya'ni milodiy VII asr boshidan VIII asr o'rtalarigacha mavjud bo'lgan va arablar tomonidan tugatilgan Kesh qaror topdi. Ma'lumotlarga ko'ra Kesh XIV asrga kelib, Shahrisabz deb atala boshlagan va hozir ham shu nom bilan yuritiladi. O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lgan Shahrisabz (Yashil shahar) toponimi ilk bor 1351 yilda chig'atoy xon Bo'yonqulixon nomidan zarb qilingan tangalarda uchiraydi. Janubiy So'g'dning Shahrisabz Kitob vohasi arxeologik va me'morchilik yodgorliklari xalq hunarmandligi, amaliy va badiy san'at markazlari keng tarqalgan o'lka bo'lib uning tarixi muhim voqeaga boy. Voha qadimgi savdo yo'llari chorrahasida joylashgan, yozma manbalarda uning to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. O'rta asrlar yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tizma tog'ining janubiy yonbag'rlaridan boshlanib, hozirgi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor va O'radaryo vohasi yerlarini o'z ichiga olganligi qayd etilgan. Uning markaziy shahri-shahrisabz Kitob vohasida rivoj topgan.Yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, Kesh Buxoro, Samarqand So'g'di, Toxariston, Xuroson, bilan savdo madaniy aloqalar olib borogan. Xitoy bilan munosabatlar to'g'risida ma'lumotlar kamida VII asr boshlariga taalluqlidir. Xitoy bilan aloqalarni birinchi bo'lib mahalliy hukmdor

Dichje o`rnatgan, deb hisoblanadi. Bu shahar garchi, Buxoro, Xeva, Samarqanddan farqli ravishda, hech qachon o`rta asrlar davlatining poytaxti bo`lmagan bo`lsada, shahar qurilishi hamda me`morchilik bo`yicha O`zbekiston jahonning tarixiy shaharlari qatorida xaqli ravishda kiritilgan.

Afrosiyob — Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat XVII-asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug`d manbalarida Smarakanve deb atalgan. Mil. av. IV-asrda Samarqand Aleksandr Maqsuniy qo`shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Samarqand deb atala boshlandi. XI – XV asrlarda turkiy tilda bitilgan adabiyotlarda Samarqand Semizkent sifatida uchraydi. XV asrdan forsiy va turkiy tillardagi manbalarda bir xilda Samarqand nomi ishlatiladigan bo`ldi. Afrosiyob hozirgi Samarqandning shimoliy chegarasiga tutashgan keng bo`sh tepaliklar bo`lib, uning maydoni 219 ga teng. Tepalikning shimoliy Siyob arig`i bilan chegaralangan. Janubiy tomondan “eski shahar” deb atalgan Samarqandga qo`shilib ketgan. Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma`lumotlar juda kam uchraydi. Ko`hna shaharda o`tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday ma`lumotlarni ko`proq bermozda.

Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo`lganligini ko`rishga, boylar va kambag`allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do`konlarini, ko`cha va maydonlarni, shohona saroylar va ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta`minlash tizimi va hokozolarni aniqlashga yordam beradi.

2.2. Buyuk ipak yo`li bo`yida joylashgan karvonsaroy va sardabolar tarixi

Buyuk ipak yo`li chorrahasida bizgacha yetib kelgan noyob obidalar uzoq o`tmishdagi ajdodlarimiz hayotini o`rganishga yordam beradi. O`zbekistonda to`rt mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Ular ibtidoiy jamiyat neolit davridan to hozirgacha saqlanib kelgan hashamatli binolardan, noyob ashyo va

buyumlardan, turli inshoot va san'at namunalaridan iborat. Bunday ajoyib yodgorliklarning eng boy xazinasi Xorazm vohasidadir.

Qadimgi Xorazm ming yillar avval suv va quruqlik orqali Yevropa va Sharq bilan, sibir va janubdagi yuksak madaniyat markazlari – Qora dengiz bo'yi, Krit-Miken (ellin), Moxenjodaro) (Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Janubi-Sharqiy Eron) va Xitoy qadimiy madaniyatlari chatishib ketgan. G'arb va Sharqni bog'lab turgan ikki buyuk suv magistrallari – Amu va Sirdaryo bo'ylab, Qizil va Qoraqum sahrolari, sulton Uvays tog' tizmalari etaklaridan o'tgan karvon yo'llari Markaziy Osiyoda qadimiy davrlardan dehqonchilik va shaharlarning paydo bo'lishida, sivilizatsiyaning yuksalishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Madaniy aloqalar va etnik jarayonlar ham qadimda Xorazmni shimolda Sibir bilan, janubi-sharq tomondan Hind okeani, janubda Fors bo'g'ozi, janubi-g'arbda Qizil dengiz va Arab yarim oroli bilan bog'langanligini tadqiqotlar orqali aniqlangan. O'sha vaqtda oltin tangalarni podsho, kumush tangalarni mahalliy hokimlar bosib chiqarishga haqli bo'lishgan. Pul munosabatlarining yaxshi yo'lga qo'yilishi, katta bozorlar va yarmarkalar o'tkaziladigan shaharlarning mavjudligi xalqaro savdo keng rivojlanganligidan darak beradi.

Eron podsholari Doro I va Kir davrida bosilgan oltin tangalar butun Markaziy Osiyoda tarqalganligi to'g'risida tarixiy manbalar xabar beradi.

Ko'p tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga qaraganda X asr oxirlarida Xorazm iqtisodlity jihatdan juda rivojlana boshlaydi. Bunga shaharlarning o'sishi dalil bo'la oladi. Agar Ta'bariy 712 yilda Xorazmda 3 ta shahar bo'lganligini ko'rsatib o'tsa, al-Istahriy X asr boshlarida Xorazmda shahrlar soni 13 taga yetganligini ko'rsatadi. 985 yillarda esa al-Maqdisiyning yozishicha shaharlar 32 taga yetadi. Arxeologik qazilma vaqtda topilgan kulolchilik mahsulotlar bu davrda shaharlarda hunarmandchilik tez rivojlanganligidan darak beradi.

Iqtisodiy yuksalishning yana bir muhim ko'rsatgichi savdo-sotiqning rivojlanishidir. Arab manbalariga qaraganda X-XI asrlarda Xorazm yirik savdogarlari Qozog'iston va Turkmaniston dashtlarida shuningdek Volga

bo'yidagi Xazor va Bulg'or podsholigi bilan ayirboshlash ishlarini keng tarzda olib borganlar.

“Xorazm,- deb yozadi Istahriy,-yong'oqdan boshqa oziq-ovqat va mevaga boy bo'lgan hosildor shahar (madina), unda paxta va jundan xilma-xil mahsulot ishlanib, uzoq mamlakatlarga yuboriladi...”Al-Maqsidiy o'sha davrda Xorazmdan chetga chiqarilgan matolarning ro'yxatini keltiradi. Bu ro'yxat Xorazmda ayirboshlash muhim rol o'ynaganligini va bu o'lka tranzit savdo markazlaridan biriga aylanganligini yaqqol ko'rsatadi.

Arxeologlarimizning tekshirishicha, Xazar podsholigining markazi Itilga boradigan savdo yo'li Belovul xarobasi orqali Embaning quyi oqimi, ural va Volgaga qarab o'tgan. X asrning oxirlari, XI asrning boshlarida shu yo'ldan yurgan arab sayyohi ibn Fadlan kesilgan toshlardan qilingan va chetiga tosh terilib ishlangan quduqlari bo'lgan hashamatli karvonsaroylar bo'lganligini hamda karvonsaroylar orasidagi masofa taxminan 25 km ga teng bo'lganligini ko'rsatadi. Bu holat karvonlarning normal yurishini ta'min qilgan.

XII-XIII asrlarga kelib Gurganch buyuk Xorazm davlatining go'zal va ajoyib poytaxti bo'lib taniladi.

Dunyoning juda ko'p yerlarini aylangan atoqli arab sayyohi va geografi Yoqut bu shahar haqida quyidagilarni yozadi: “Men umrimda bu shaharga o'xshash boy, chiroyli shaharni ko'rmaganman...Bitmas-tuganmas boyliklari, poytaxtning kengligi hamda aholisining juda ko'pligi va yaxshiligi bilan Xorazmning bosh shahriga o'xshagan shahar bo'lmasa kerak deb o'ylayman”.Istahriyning ta'rificha:”Gurganch Xorazmning eng katta shahri u o'g'izlar bilan savdo qiladigan joy bo'lib, u yerdan Jurjoniya Xazarlariga, Xurosonga karvonlar jo'naydi”.

YUNESKO qarori bilan 1991 yilning yozida O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'ylab o'tkazgan ekspeditsiya o'zining “Dasht yo'l” deb nomlangan dasturini Turkmaniston poytaxti Ashxoboddan boshlagan edi. Shuningdek ekspeditsiya a'zolari Buyuk ipak yo'li chorrahasidagi hashamatli Eski Nisa (Eron bilan chegaradosh, Marv (Mari)kabi shaharlarda bo'ldilar.

Buyuk ipak yo'lining harakatlanishida karvonsaroylarning ahamiyati katta bo'lgan. Rabot so'zi arabcha bo'lib, musofirxona, karvonsaroy ma'nolarini anglatgan. Hozirgi kunda "Rabot" so'zi qo'shilgan ko'plab joy nomlarini uchratamiz. Masalan, Oqrabot, Qo'shrabot. Karvonsaroylar orasidagi masofa 25 km dan bo'lgan.

Eng qadimgi karvonsaroylardan biri miloddan avvalgi II asr oxiri va milodning IV asrlariga oid bo'lgan Tumanqo'rg'on hisoblangan. Tumanqo'rg'on qal'asi Boysun dovonidan janubi-sharqiy tarafda "Rabot" yerlarida joylashgan bo'lib, Kesh va Naxshabdan Darband orqali Chag'oniyon tomon yo'l olgan karvonlar ana shu joyda to'xtab, savdo-sotiq qilganlar. Bu joyning savdoda tutgan muhim o'rnini Rabot atamasidan ham anglab olish mumkin.

XIX asrda rus harbiy muhandislari tomonidan tuzilgan xaritada Rabot atrofida so'nggi o'rta asrlarga oid karvonsaroy o'rnini tushirilgan. Yodgorlik esa Tumanqo'rg'on deb nomlangan.

Ba'zi bir adabiyotlarda va shu yerli xalq orasida bu obida Poyqo'rg'on, ya'ni Quyiyo'rg'on ham deb yuritiladi. U Boysun markazidan bir necha kilometr janubda, Oqjar qishlog'iga yaqin yerda joylashgan. Ilk bor 1959 yilda san'atshunos L.I.Rempel tomonidan qayd etilgan.

Yodgorlikda 1985-1991 yillarda T. Annayev, 1992 yillardan buyon K. Abdullayev rahbarligida keng ko'lamda qazishma ishlari olib borilgan. Umumiy maydoni 1 gektarga yaqin. Qal'a uch tarafi tik jarlik bilan chegaralangan tabiiy tepalik ustida barpo bo'lgan. Qal'a darvozasi uning eng quyi qatlamlarida qazib topilgan sopol idishlarga ko'ra taxminan miloddan avvalgi IV asrning oxiridan shakllana boshlagan. 1985-1991 yillarda T. Annayev rahbarligida Tumanqo'rg'onning janubiy qismida mudofaa istehkomi yon tomoni bo'ylab bir-biri bilan tutash turli hajmdagi 10 dan ortiq xonalar qazib ochilgan. Ba'zi bir xonalarning tomlari ravoqsimon uslubda yopilganligi. Xonalarda ko'plab xumlarning mavjudligi ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanganligidan dalolat beradi. Tumanqo'rg'onida qazib o'rganilgan ashyoviy manbalar turli-tuman bo'lib, bular ma'budaning taxtda o'tirgan holatdagi tasvirlari yoki musiqa (ud) asbobi

chalayotgan haykalchalar, bronza (jez) va temirdan yasalgan taqinchoqlar, kamon o'qlari va juda nafis ishlangan sopol idishlardan tarkib topgan³⁶.

Tavka qal'asi. Sherobod dahanasida, daryoning chap sohilidagi qoya ustida joylashgan Tavka qal'asida olib borilgan izlanishlar Buyuk ipak yo'lini o'rganishda o'ziga xos kashfiyot bo'ldi. Qal'a nomi "Alpomish" dostonidagi bosh qahramon Alpomishga g'oyibona oshiq bo'lgan Qalmoqshoh Toychixonning qizi Tavkaoyim nomi bilan bog'liq. Dostonning mahalliy variantlaridan birida "Tavkaoyim qal'asida go'zal qizlar suratlari bor" degan jumla keltiriladi. Ushbu doston mazmuni bilan tanish kimsa tashlandiq qal'adagi devoriy suratlarni ko'rib, u yerda Tavkaoyim qal'asiga qiyoslaganini anglaydi.

Tavka devoriy suratlarining tahlili va boshqa arxeologik topilmalar asosida bu qal'ani milodning VI-VII asrlari bilan bog'lash mumkin. Ma'lumki, o'sha davrda Tohariston O'rta Osiyoning ko'plab hududlari singari G'arbiy Turk hoqonligi tarkibiga kirgan. Bu hoqonlik bilan Sosoniylar va Vizantiya imperiyasining Buyuk ipak yo'lidagi o'zaro raqobati ularning yo'lga bo'lgan munosabatlaridan, ya'ni yo'lning ular iqtisodiyotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan.

Keyingi yillarda ochilgan qator arxeologik Sherobod dahanalari, jug'rofiy sharoitga ko'ra, tog' hududida tekislikka chiqish yo'li bo'lganligini tasdiqlamoqda. Dahana tosh devorlari shu davrlarda ham amalda bo'lgan. Yuqorida qayd qilingan asosiy va mavsumiy tarmoqlarda joylashgan yodgorliklar ichida Tavka qo'rg'onining alohida o'rni bo'lgan. U so'zsiz Buyuk ipak yo'lining janubiy G'isor tog'lari bo'ylab o'tgan qismida muhim manzilgohlardan biridir. O'zaro hamohang yagona me'moriy majmuani tashkil qiluvchi qo'rg'on va tosh devor, izlanishlarning dastlabki natijalaridayoq: "Bojxona" deb talqin qilingan. Avvalo, qo'rg'onning bevosita shimoli-g'arbiy Tohariston tog' va tekislik vohalari chegarasida yoxud bu hududdan o'tgan savdo yo'lining asosiy yo'nalishi bo'yida, ya'ni tarixiy-madaniy chegara (Temir Darvoza) yaqinida joylashganligi uni "Davlat Bojxonasi" deb atashimizga asos bo'ladi. Chunki Dahana tog' va tekislik vohalari uchun ham darvoza vazifasini bajarib kelgan bo'lib, bu yerda bojxonaning

³⁶ Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. - Toshkent, 1997.

joylashganligi tabiiydir. Yodgorlikning ixcham va ayni bir paytda mahobatli ko‘rinishi, hashamatli bezatilganligi, qishki, yozgi qabulxonalari, savdo karvonlaridan tushgan bojlari vaqtincha saqlashga mo‘ljallangan xonalari, karvonlar yetib kelgunlariga qadar ularni kuzatish imkoniyati bu chindan ham Davlat bojxonasi bo‘lganligini isbotlaydi³⁷.

Ma’lumki, bojxonalar qadim-qadimdan faqat boj olish maskanigina bo‘lib qolmay, balki savdo karvonlariga xizmat ko‘rsatish muassasalari hisoblanib, ular yaqinida karvonsaroylar faoliyat ko‘rsatgan. Xuddi shunday karvonsaroy qoldig‘i Tavkadan yarim chaqirim shimolda joylashgan Qo‘rg‘on yodgorligi o‘rnida bo‘lgan. Yozma manbalaorda Termiz va Temir Darvoza oralig‘ida ko‘plab ana shunday manzilgohlar amal qilganligi qayd etiladi. Arablar bosqini arafasida deyarli mustaqil viloyat hisoblangan SHerobod (Guftan) vohasi to‘g‘risida at-Ta’bary keltirgan ma’lumotlar ham shuni tasdiqlaydi.

Talayxonota karvonsaroyi Xorazm vohasida joylashgan bo‘lib, X asrning oxirlari, XI asrning boshlarida shu yo‘ldan yurgan arab sayyohi Ibn Fadlning “Risola” asarida qayd etilgan. Talayxonota saroyi doira shaklida (diametri 60 m) va pishgan g‘ishtdan solingan bo‘lib, uni o‘ragan devorning bir qismi saqlanib qolgan. Karvonsaroyning o‘rtasida kvadrat shaklda to‘rt tomoni ayvonlar bilan bezalgan hovli bo‘lib, unga ikki tomondan 18 ta xona qo‘shiladi. Hovli o‘rtasida pishgan g‘ishtdan terilgan zinapoyali (diametri 7,1 m, chuqurligi 3,5, hajmi 138 m kub keladigan) sardoba kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Arxeologik qazishma paytida xilma-xil idishlar, jumladan, suvdonlar, temir buyumlardan esa belkurak, qaychi, bigiz va hokazolar topilgan. Kiraverishda tosh devorga kufa yozuvida yozib qo‘yilgan xatlar kishi diqqatini o‘ziga tortadi.

Urganch shahri xarobalaridan “Karvonsaroy darvozasi” joylashgan yerdagi katta ko‘cha bo‘yidagi shahar mahallasining xarobalari qazib tekshirildi (XV-XVII asrlarga oid). Karvonsaroy oldidagi Chorsuda juda ko‘p hunarmandlarning ko‘cha tomon qarab turgan do‘konlari, bir burchakli choyxona, oshxona va baliqxon

Raxmonov Sh.A. Tavka. Turon Movarounnahr sivilizatsiyasi. – Toshkent, A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2001.

borligi ma'lum bo'ldi. Oshxona oldida katta qozon uchun qazilgan o'choqlarning izlari bor. Choyxona xarobalaridan juda ko'p choynak siniqlari va kichik bir xaltachada mayda chaqalar topilgan. Bu yerda katta tandirli nonvoyxona, temirchi do'koni, hammom va shunga o'xshash qurilishlarning borligi aniqlangan.

Sardoba atamasi forscha ikki so'z birligidan yasalgan (sard-sovuq, ob-suv) Markaziy Osiyoning ba'zi hududlaridagi tub aholi uni "gumbaz", "gumbazli hovuz" deb ham atashgan. Ayrim sharq mamlakatlarida hanuzgacha foydalanilayotgan bunday inshootlar "obambar" deyiladi.

Markaziy Osiyo hududida sardobalar odatda ichimlik suvi tanqis yerlarda, ko'pincha cho'l hududlarida qurilgan. Bunday inshootlar asosan savdo karvonlari hamda chorva otarlarini suv bilan ta'minlash maqsadida bunyod etilgan. Sardoba ichimlik suvini saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz bo'lib, joy refiga ko'ra qor-yomg'ir va yer osti suvlari, oqar suvlar bilan to'ldirilgan.

Yozma ma'lumotlarga ko'ra Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan sardobalardan 44 tasi hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Shulardan uchtasi Mirzacho'lda bunyod qilingan. Qadimshunos M.S.Massonning ta'kidlashicha, sardobalarga o'xshash dastlabki inshoot X asrda Qashqadaryoning quyi havzasidagi (hozirgi Kasbi tumaniga qarashli Eski Fazli qishlog'i yonida) Buxoro yo'li yoqasida qurilgan bo'lib, u "hovuzi Sand" nomi bilan tarixga kirgan. Bu hovuz atrofi turli shakl va o'lchamdagi toshlardan aylantirib ixotalangan, lekin usti gumbaz bilan yopilmagan. Bu inshoot keyingi davrlarda qurilgan sardobalarning ilk ko'rinishidir. Buxoroga sayohat qilgan rus sayyohi L.Kostenko o'z estaliklarida Jizzax-Chinoz savdo yo'lidagi mavjud bo'lgan uchta sardobani sanab o'tadi. Yakka sardoba, Mirzarabod sardoba hamda Yog'ochli sardobalardir. Shulardan hozirgi kungacha Yohochli sardoba to'liq holatda saqlangan. Yohochli sardoba devori kvadratik gumbaz shaklida pishiq g'ishtdan ko'tarilgan. Gumbazning tepa qismida hamda pastida hovuzga suv tushadigan "kulfak"-ravoqsimon tuynuklar qoldirilgan. Sardoba devori kesimi silindr shaklida bo'lib, pastki poydevor eni 1,25 metr, devorning umumiy balandligi 11,20 metrga teng. Hovuzning diametri esa

15,55 chuqurligi 5,50 metr keladi, undan suv olish uchun 10 pog'onali zinadan foydalanilgan. Mazkur sardobaning ustki qismi bir tabaqali gumbaz bilan yopilgan.

Sardobalar yonida odatda tuya, ot kabi hayvonlar sug'oriladigan maxsus oxur bo'lib, unga tarnov orqali suv oqizilgan. Shayboniylar sulolasiga mansub o'zbek xoni Abdullaxon II o'z davrida "taraqqiyparvar, ma'rifatli xon" deb tanildi, chunki u qator qurilishlar, obodonchilik ishlari bilan Movarounnahrning xalqaro savdodagi avvalgi shuhratini tiklash uchun ko'p harakatlar qilgan. Ko'hna karvon yo'llari yoqasidagi sardobalar shunday sa'y-harakatlarning amaliy natijasi sifatida qad ko'tardi. Abdullaxon II davrida qurilgan sardobalarning deyarli hammasi avvaldan ma'lum bo'lib, karvon yo'llari yoqasida, vayron bo'lgan rabotlar o'rnida va hatto foydalanilgan karvonsaroy yonida qad ko'targan bo'lsa ajab emas. Bu haqda "Abdullanoma"da ham ma'lumot berilgan. (Hofiz Tanish Buxoriy).

Sardobalar qurilish tarixi"Buyuk ipak yo'li" faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Jizzax-Chinoz oralig'ida bunyod qilingan sardobalar shu vohalarda savdo-sotiq aloqalarini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan Ular qadimiy karvon yo'llarini, uning mayda shoxobchalari yo'nalishini belgilovchi asosiy gidrotexnika inshootlaridandir³⁸.

Qoratepa. Kushon davri Baqtriya buddaviylik yodgorliklari orasida ham miqyosi jihatidan, ham ahamiyati jihatidan Eski Termizdagi Qoratepa buddaviylik markazi alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ushbu yodgorlik hududida o'zbek va yapon olimlari hamkorlikda olib borgan arxeologik tadqiqotlari O'rta Osiyo buddaviylik madaniyatini o'rganishda yangi sahifa ochdi.

Qoratepa yodgorligi umumiy maydoni 8 ga bo'lgan uchta tepalikni egallab, Eski Termizning shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan. Qoratepaning janubiy va g'arbiy tepaliklarida yer osti ehrom binolari, shimoliy tepalikda esa yer usti ibodatxonasi joylashgan.O'zbek-yapon mutaxassisleri o'z faoliyatining dastlabki yillaridanoq (1998 yil) aynan ushbu, ya'ni tadqiqotchilar nazaridan qolib kelgan majmuani o'rganishni boshladi Olimlar 2003 yilgi dala mavsumidagi tadqiqotlari davomida shu yerda joylashgan binolarning loyihaviy tuzilishini aniqlash

³⁸ Xoliqova R. Abdullaxon rabotlari va sardobalari. San'at, 2003 yil, 2-son. B. 16-18.

maqsadida arxeologik qazilmalarni davom ettirdilar. Tadqiqotlar natijasida ibodatxona hovlisining umumiy tarhi aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, bu Baqtriya me'morchiligining an'anaviy uslubida qurilgan majmuaning bir qismi ekan. Butun perimetr bo'ylab zalvorli va baland ustunli ayvon bilan qurshalgan chorsi hovli markaziy asosini tashkil qilgan. Yo'lak ancha baland gumbazsimon tom bilan yopilgan. Devorlarga o'rnatilgan nur o'tkazib turuvchi tuynuklar, shuningdek, yo'lak ichida havo aylanishini ham ta'minlab turgan. Shimoliy va sharqiy yo'laklar bo'ylab usti baland gumbazlar bilan yopilgan chorsi hujralar joylashgan. Ravoqli o'tish yo'llari yo'lakka olib chiqqan. Xonalarning ichki ko'rinishi bejirimligi bilan ajralib turadi. Shamlar uchun kichik-kichik mehrobchalar yasalgan devorlar loysuvoq ustidan ganch bilan suvalgan, ularning ayrimlari qizg'ish bo'yalgan.

Ehrom majmui shimol tomondan katta stupaning janubiy yo'lagi bo'ylab joylashgan ko'hna binoga borib tutashadi. Shu yerdagi binolardan birining markazida chorsi shakldagi stupaning ikki zinali tagkursisi topilgan. Pastki zinaning yuzasi boshdan-oxirigacha nilufar yaproqli shaklidagi bo'rtma naqshlar bilan bezatilgan. To'rtala tomonning yuza qismi nayzasimon va trapetsiyasimon arklari bo'lgan besh hoshiya bilan bezatilgan. Mehroblarning ichki yuzasi polixrom rang tasvirlar bilan naqshlangan. Markaziy mehrobda qaddini rostlagan iloh haykal bor bo'yi bilan o'rnatilgan. U qizil libosda bo'lib, o'ng qo'lini "dxyana mudra" qiyofasida yuqori ko'tarib turibdi. Dalilli taxminlarga ko'ra, bu Buddha tasviri bo'lishi kerak, gavda atrofidagi oq nur chambar shundan guvohlik beradi.

Kushon davri Baqtriyasining buddaviylik me'morchiligidagi bino ichida mahobatli stupaning bo'lishi va badiiy yuksak bezatilishi yagona holdir. Aftidan, O'rta Osiyo, aniqrog'i, Baqtriya postulati buddaviylik sig'inish marosimlarida stupaning ahamiyati ortishi bilan bog'liq.

Katta stupaning janubi-g'arbiy burchagidan topilgan noyob topildiqlar sirasiga Buddaning odam bo'yidan balandroq gil-ganch haykali bo'laklari va yuzlari chiroyli ikki ayol sahobaning g'oyat o'ziga xos haykal tasvirini kiritish mumkin.

San'at asarlari va maishiy ashyo topilmalari Kushon davri Termiz moddiy, badiiy va ma'naviy madaniyati nechog'li yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Haykal va rangtasvir asarlarini yaratgan haykaltarosh hamda rassomlar o'tgan davrlarda yaratilgan an'analar asosida katta ijodiy tajriba orttirgan mohir san'atkorlar bo'lishgan. Ular o'z ijodlarida gandhar budda sa'atining eng yaxshi yutuqlaridan keng foydalanganlar. Topilgan buyumlar Kushon davrida Termizda o'z an'anaviy uslubiga ega badiiy maktab yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Mazkur maktab an'analari buddaviylikning bundan keyin Osiyoning ichkarisidagi mamlakatlar - Xitoy va Yaponiyaga tarqalishi davrida ular tomonidan o'zlashtirilganligi ehtimoldan xoli emas.

Fayoztepa – Kushon (Termiz) devorlari shimoliy g'arbida, Qoratepaning shimoliy yonidagi tekisliklarda shimoliy-g'arbdan janubiy sharqqa yo'naltirib qurilgan buddizm ziyoratgohi, sangarama tipidagi ibodatxona kompleksidir. U to'rtburchakli ichki hovlisi ikki tomonidan yo'g'on sutumlarda ko'taridgan, ayvon bilan o'ralgan imoratdir.

Bu yodgorlikning qurilgan vaqti Kushon-Baqtriya davriga binokorlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at rivojlangan davrga, ya'ni eramizning I-II asrlarga to'g'ri keladi.

Jamlanma asosan uch qismdan:

1. Hindiston me'morchiligiga asosan qurilgan kohinlar yotoqxonasi.
2. Markaziy ibodatxona.
3. Kohin jamoasi uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlaydigan xo'jalik va yordamchi bo'limlardan iborat.

Asosiy qismlardan biri diniy muqaddas, tabarruk yodgorliklarni saqlaydigan joy Sangaramaning sharqida, qo'ng'iroqsimon (silindrsimon) bo'lib, pastki qismi turtib chiqqandek plintuslangan hovonchadir. Hovoncha asosn xom g'ishtdan terilgan. Uning usti oppoq ganch bilan suvalgan. Hovoncha ibodatxonaning boshqa jamlanmalari hovli o'rtasida bo'lmay, uning tashqarisida "Siymo uyi" budda

haykalchasi dargohiga qarama-qarshi joyda o'rnatilgan. "Siymo uyi"dan topilgan³⁹.

II bob bo'yicha umumiy xulosalar

II bob bo'yicha shunday xulosa qilishimiz mumkin:

1. Savdo-sotiqning rivojlanishi shaharlar va aholi madaniyatining rivojlanishiga sabab bo'ldi.
2. Qadimiy karvon yo'llari joylashgan Turon ellarining rivojlanishi, Sharq bilan G'arb, Shimol bilan Janub o'rtasidagi an'anaviy do'stona munosabatlarning yuksalishi, turkiy xalqlar madaniyatining ravnaq topishida Buyuk ipak yo'lining hissasi katta bo'lgan.
3. Sardobalar va karvonsaroylar qurilishi Buyuk ipak yo'li bilan chambarchas bog'liq.
4. Buyuk ipak yo'lida joylashgan sardobalar va karvon saroylar O'zbekiston shaharlari tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

³⁹ Кобзева О.П. М.А.Стейн – новый археолог Шелкового пути. Вестник НУУз. 2000, №4.

III.BOB. BUYUK IPAK YO`LI VA HOZIRGI ZAMON

3.1.Buyuk ipak yo`li tarixini tiklashda YUNESKOning roli

1946 yil noyabr oyida London shahrida 44ta mamlakat vakillari tomonidan BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha qumitasi - YUNESKOning nizomi qabul qilindi. Bir yil o'tgach, 4 noyabr kuni ushbu nizom 20ta davlat tomonidan tasdiqlandi va YUNESKO tashkil etilganligi rasman e'lon qilindi.

Bugungi kunda qarorgohi Parijda joylashgan YUNESKO tashkilotiga 188 ta davlat a'zo bo'lgan. YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyalar 178 ta a'zo mamlakat, jumladan O'zbekistonda faoliyat ko'rsatmoqda, bundan tashqari 165 ta davlat YUNESKO qarorgohida o'zining doimiy vakolatxonasiga ega.

YUNESKO o'z nizomida bayon etilgan tamoyillariga sadoqat bilan amal qilib, ta'lim, fan va madaniyat orqali jahon xalqlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yo'lida salmoqli hissa qo'shdi, inson huquqini, madaniy merosini himoyalash yo'llarini izladi.

O'zbekiston o'zining ko'p asrli tarixi, ulkan madaniy-ma'naviy merosi bilan YUNESKOda hamisha qiziqish uyg'otgan. O'zbekiston istiqbolga erishgach, uning YUNESKO bilan aloqalari nihoyat darajada faollashdi. 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi YUNESKO ga a'zo bo'ldi, 1994 yilda esa, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy Komissiyasi tashkil etildi. Mana bir necha yildirki, YUNESKO qaroriga binoan Buyuk Ipak Yo'lini hartomonlama tadqiq etish bo'yicha xalqaro loyiha tatbiq etilmoqda. Bu loyiha ikkita dasturdan iborat: "Inson atrof-muhiti, yer va dengiz zaxiralari" va "Madaniyatlar va kelajak".

YUNESKO sobiq bosh direktori Federiko Mayor o'zining nutqlaridan birida shunday degan edi: "Cho'l-biyobon va dengizlar orqali o'tgan Ipak Yo'li insonlar o'rtasida aloqa va so'zlashuvni tiklash borasida katta imkoniyatga ega edi, buyuk sivilizatsiyalarning o'zaro boyishib borishiga xizmat qildi. Ipak Yo'lini hartomonlama o'rganish loyihasining maqsadi xalqlarga so'zlashuv (dialog)ni tiklash zaruratini anglatib, bu yo'lda joylashgan sivilizatsiyalarning bir-birini tushunish va boyitishga xizmat qilishdan iborat".

YUNESKO tashabbusi bilan O'zbekistondagi ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklar dunyo madaniy merosi durdonalari ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatga kiritilgan Buxoro shahrining tarixiy markazi, Xivadagi Ichan-qala kompleksi va Shahrisabz endilikda jahon xalqlarining umumiy qadriyati hisoblanadi va ular jahon hamjamiyati tomonidan muhofaza qilinadi. Bundan tashqari, YUNESKONing og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxatiga O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan mislsiz qo'lyozmalar va Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi folklor an'analari ham qo'shilgan. Jahon kinematografiyasi merosi ro'yxati esa, o'zbek kino san'ati ustalari tomonidan yaratilgan yigirmata badiiy va hujjatli filmlarni ham o'z ichiga olgan. Bu ro'yxatda "Alisher Navoiy", "Tohir va Zo'hiro", "O'tgan kunlar", "Shumbola" kabi filmlarni ko'rish mumkin. Shuningdek, YUNESKO "Avesto" kitobining 2700 - yilligi (2001 y.), Termiz shahrining 2500 - yilligini (2002 y.) tayyorlash va o'tkazilishida ham faol qatnashdi.

Bu yerda mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning jahon madaniyati qo'riqchisi – YUNESKO va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik aloqalarni ravnaq topishiga qo'shgan hissasini alohida qayd etish zarur.

O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil 22 aprel kuni Parijda YUNESKO qarorgohiga borib, bu tashkilot Ijroiya qo'mitasining 149 sessiyasida nutq so'zladi. O'sha yili YUNESKONing u vaqtdagi Bosh kotibi Federiko Mayor O'zbekistonning "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.

1987 yildayok YUNESKO BMTning madaniyatni rivojlantirish butunjahon dekadasi doirasida "Ipak Yo'li -so'zlashuv yo'li" dasturini qabul qilgan edi. Bu dastur Markaziy Osiyo xalqlari tamadduni tarixini hartomonlama o'rganishiga qaratilgan. Ammo Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash; bu ikkita katta qit'a yashayotgan xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash mazkur dasturning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Bu dastur doirasida ilmiy anjumanlar va seminarlar o'tkazildi, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab qo'shma xalqaro ekspeditsiyalar tashkil etildi, kinofilmlar yaratildi, kitoblar, risolalar va maqolalar chop qilindi, ayrim arxeologik va me'moriy

yodgorliklar ta'mirlandi. Tashkil etilgan o'n bitta ekspeditsiyalardan: "Marko Polo izlari bo'ylab" (1987 yil, iyun-avgust, Istambul-Pekin); "Dengiz ekspeditsiyasi" (1990 yil 23 oktabr - 1991 yil fevral); 1991 yilda Xiva shahrida maxsus ilmiy seminar bilan yakunlangan "Markaziy Osiyo respublikalari bo'ylab" ekspeditsiyasi; "Ko'chmanchilar madaniyati marshrutlari bo'ylab ekspeditsiya" (1992 yil, iyun-avgust, Mo'g'iliston); "Yevropadagi Ipak Yo'li" (1995 yil, Istambul-Lion) va boshqa ekspeditsiyalarni tilga olish mumkin.

Buyuk ipak yo'liga bag'ishlab o'tkazilgan ko'pgina xalqaro ilmiy konferensiyalardan "Qadimda va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanishi" (Samarqand, 1990 yil, oktabr); "Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab davlatlarning eposlari" (Turku, Finlyandiya, 1993 yil, iyul); "Ipak Yo'li bo'ylab tillar va yozuvlar" (Kipr, 30 sentabr-oktabr 1994 yil); "Ipak Yo'li tiklanishi: O'zbekistonda sayyohlik va meroslar o'yg'onishi" (Buxoro, 1996 yil, fevral)ni alohida qayd etish mumkin.

Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri-Lanka, Yaponiyada Buyuk Ipak Yo'lini o'rganish bo'yicha maxsus institutlar tashkil etilgan. Masalan, BMT va YUNESKO qarori bilan O'zbekistonning Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro institutiga asos solindi. Bu institutning ish loyihalaridan biri Buyuk ipak yo'li bo'ylab shahar va yo'nalishlarni o'rganishga qaratilgan. Bugungi kunda mazkur institutning ko'magi bilan Buyuk Ipak yo'li tarixiga bag'ishlangan monografiya nashrga tayyorlanmoqda.

1997 yil Parijda "Buyuk Ipak Yo'li" dasturining yakuniy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya doirasida Osiyo xalqlarining turli asrlarga taalluqli madaniy merosining nodir namunalari qamrab olgan ko'rgazma ham tashkil etilgan edi.

YUNESKO O'zbekistondagi me'moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish va muhofazalash ishlarida ham faol qatnashmoqda. Jumladan, Fayoztepadagi Budda ibodatxonasini asl holida asrash bo'yicha YUNESKO dasturi tuzilgan. Ushbu loyihaning maqsadi: Fayoztepani muzey shaklida ochiq osmon ostida asrab-avaylashdan iboratdir. Bu yerda fransuz arxitektorlari YUNESKO Markaziy

Osiyodagi shoʻbasining rahbari Maykl Barri Leyn boshligida ishlamoqdalar. Barri Leyn janoblari koʻmagida ushbu loyihani tatbiq etish maqsadida Yaponiyadan sarmoya ajratish masalasi hal etildi. Demak, sayyohlar Buyuk Ipak Yoʻlida joylashgan Budda shaharlari, Fayoztepa va Qoratepadan topilgan yodgorliklarni koʻrish imkoniyatiga ega boʻldilar.

1999 yil Oʻzbekistonda "Ipak Yoʻli radiosi" tashkil etildi, uning faoliyati xalq maʼnaviy meros va xalq anʼanalarini asrab-avaylash va tiklashga qaratilgan.

2005 yil Oʻzbekistonning Markaziy Koʻrgazmalar zalida YUNESKO ishlari boʻyicha Milliy Komissiyasi koʻmagida chop etilgan "Sharq miniatyuralari"ning I va II jildlarining taqdimoti boʻlib oʻtdi.

YUNESKO Oʻzbekistonda joylashgan Ipak Yoʻli shaharlari boʻylab sayyohlikni rivojlanishiga ham koʻmaklashmoqda. Chunonchi, M. Barri Leyn taklifiga binoan, Yaponiya va Germaniya elchixonalari koʻmagida 2005 yilning yozida "Xorazmning oltin halqasi" (Xiva-2005) xalqaro sayyohlik yarmarkasi oʻtkazildi. Xorazm mintaqasi katta turistik imkoniyatlarga ega, bu boy imkoniyatdan toʻliq foydalanish kerak. Xiva shahrida YUNESKO yordamida sayyohlar uchun axborot markazi tashkil etilgani aynan mazkur maqsadni ruyobga chiqarishga yordam beradi.

1991 yil may-avgust oylarida YUNESKO "Buyuk ipak yoʻli –muloqot yoʻli" shiori ostida Oʻrta Osiyo hududida moʻljallangan xalqaro ekspeditsiya rejalanganidek oʻtdi. Unga koʻra 3 ta asosiy ekspeditsiya uyushtirildi. Birinchi ekspeditsiya Buxoro-Varaxsha-Koʻkartli-Qizilrabot-Mishiql-Qalʼa-Sharoxon-Toʻrtkoʻl-Urganch-Xiva yoʻnalishi boʻylab tekis choʻllardan 400 km masofani piyoda bosib oʻtadi. Ikkinchi ekspeditsiya sayyoh-tadqiqotchilar otlarda togʻ tizmalari va daryo vodiylarida hamda qadimgi aholi yashash joylari orqali yuradilar. Ular Piskon qishlogʻi-Piskon tizmasi-Koʻksuv vodiysi-Burchmulla qishlogʻi-Chotqol vodiysi –Oqbuloq vodiysi-Chotqol tizmasidagi Arashon davoni-Ohangaron platosi-Qurama tizmasidagi Qamchiq dovoni-Pungon - Pon-Chust kabi manzillardan 300km yoʻl bosadi. Uchinchi ekspeditsiya aʼzolari Navoiy-Nurota-

Jusentab-Rabot-Zarmitan-Forish-Yangi-qishloq-Chaqar-Jizzax aholi punktlari joylashgan 300 kmlik masofani bosib o'tadilar.

YUNESKO tomonidan "Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li" dasturining qabul qilinishi natijasida O'rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Undan tashqari, bu dasturning asosiy maqsadi-Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustahkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan ko'p sonli xalqlarning o'zaro munosabatlarini yaxshilashdan iborat.

Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq nuqtalarda 150 dan ortiq ilmiy seminar va ekspeditsiyalar uyushtirildi. O'tkazilgan ekspeditsiyalar orasida "Marko Polo izlaridan"(1987 yil, iyun-avgust, Istanbul-Pekin), "Dengiz" (1990 yil, 23 oktabr-1991 yil 23 fevral) va boshqalar misol bo'la oladi.

Sharqning bir qancha mamlakatlarida - Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri-Lanka, Yaponiyada Buyuk ipak yo'lini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy institutlar tashkil etildi.

O'zbekistonda Samarqand shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va YUNESKO tomonidan Markaziy Osiyodagi izlanishlar xalqaro instituti tashkil etildi. Buyuk ipak yo'liga bag'ishlangan ilmiy xalqaro konferensiyalarga "Qadimda va O'rta asrda Markaziy Osiyoda Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va shakllanishi" (1990 yil Samarqand), "Ipak yo'li bo'yidagi davlatlarning dostonlari" (1993 yil iyun, Finlandiya, Turkiya), "Ipak yo'li bo'yidagi yozuvlar va tillar" (1994 yil 30 sentabr-1 oktabr, Kipr) kiradi. Buyuk ipak yo'li dasturining yakuniy konferensiyasi 1997 yil Parijda bo'lib o'tdi.

1993 yil mayda Bryusselda Yevropa komissiyasi tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari va Kavkaz vakillari hamda Yevropa ittifoqi uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Unda Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'li (TRASEKA) haqida kelishib olindi.

Bunda ekspeditsiya ko'zlangan maqsad Buyuk Ipak yo'lining asosiy va yordamchi tarmoqlarini izlab topish va ular geografiyasini ilmiy jihatdan asoslash, savdo-sotiqda nimalar tashilganligini va ayirboshlash uslublarini aniqlashdan iborat. O'tmish tariximizni, milliy va ma'naviy boyligimiz hamda an'alarimizni

o'rganish, kishilarning tabiatga ta'sir darajasini, o'lka ekologiyasi o'zgarib borishini aniqlash va imkoniyatlarini baholash, xalqaro, mamlakat, regional va mahalliy ahamitga molik turistik va sport-sog'lomlashtirish, eng muhimi kelajakda qadimiy Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamkorlik va samimiy muloqot yo'liga aylantirishdan iboratdir.

3.2. Mustaqillik yillarida Buyuk ipak yo'lini tiklash va rivojlantirishda O'zbekistonning ishtiroki

Hozirgi paytda Markziy Osiyoda mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi bilan mazkur qadimiy karvon yo'lidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar o'z mavqeini qaytadan tiklashga muyassar bo'lmoqda. Ayni shu mintaqada bir-biriga nisbatan iqtisodiy tomondan ehtiyojining o'sib borishi bu joylarda milliy sanoatning rivojlanishiga sabab bo'lib, ma'naviy birlikni muayyanlashtirib, xalqaro do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qadimiy karvon yo'llari joylashgan Turon ellarining rivojlanishi esa Sharq bilan G'arb, Shimol bilan Janub o'rtasidagi an'anaviy do'stona munosabatlarning qaytadan yuksalishi, turkiy xalqlar madaniyatining ravnaq topishiga yana o'z hissalarini qo'shishi muqarrardir. 1978 yilda Xitoydagi iqtisodiy islohotlar tuqayli 1980 yillarning o'rtalariga kelib, Turkistondan o'tadigan qadimiy karvon yo'lida yana savdo munosabatlarida jonlanish paydo bo'ldi.⁴⁰

O'zbekiston Respublikasi mustaqil hayot va taraqqiyot yo'lidek eng buyuk yo'lni tanlab, «Buyuk ipak yo'li»ni ham qayta tiklash g'oyasini birinchilar qatori ilgari surgan va ushbu g'oyani royobga chiqarish uchun tinimsiz harakat qilayotgan davlatdir. Shuning uchun ham O'zbekiston qadimiy «Buyuk ipak yo'li»ning yuk ortilgan ot va tuyalardan iborat karvonlarga moslangan «Ipak yo'li»ning o'ta zamonaviy mazmun va darajalarda, eng yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollangan ilg'or, murakkab transport va aloqa kommunikatsiyalari sistemasi sifatida qayta tiklanish uchun ko'p tadbirlarni

⁴⁰ Boxodir Eshov O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi Toshkent 2012

ko'rmoqda. Bu tadbirlarga ham mamlakatlarni iqtisodiy rivojlantirish, ham «Buyuk ipak yo'li»ni tiklash vositalari deb qaramoqda.

«Buyuk ipak yo'li»ning yangi mazmunda va sifatlarda to'la-to'kis tiklanishi bilan Evropa va Osiyo mamlakatlari xalqlari uchun butunlay yangi taraqqiyot manbalari, omillari va imkoniyatlari vujudga keladi. Ular yanada kengaya borib, ekologik muammolarning eng og'iri – Orol dengizi muammosini yechishga ham yordam berishi mumkin.

«Buyuk ipak yo'li» tiklanishining asosiy samaralari xususida quyidagilarni aytish mumkin. «Buyuk Ipak yo'li»ning to'la tiklanishi bilan eng avvalo mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari kuchayadi, savdo hajmi oshadi va ular iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Yangi korxonalar, zamonaviy texnik stansiyalari va xizmat ko'rsatish shahobchalari vujudga kelib, mamlakatlarning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanadi. Ilmiy-texnik aloqalar hamda yangi texnika va texnologiyalar keltirilishi natijasida fan-texnika taraqqiyoti tezlashadi, xo'jaliklar va tovarlarning raqobatdoshligi kuchayadi. Ko'plab yangi ish joylari tashkil qilinadi va ular ko'payib boradi, ishsizlarning ko'pchiligi o'z joylariga ega bo'ladi.

Har bir mamlakat ichida va xalqaro ko'lamda mehnat taqsimoti chuqurlashadi va kengayadi, mehnatning yangi turlari va yangi kasblar vujudga keladi. Milliy va xalqaro munosabatlar yanada o'zgaradi va takomillashadi. Ekologik muhitni yaxshilash, tovarlar sifatini oshirish imkoniyatlari kengayadi. Mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xarid qilishning eksport va import ishlarining arzonlashuviga, iqtisodning o'sishiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar, omillar yanada kengayadi. Bular natijasida kishilar moddiy hayoti yaxshilanadi, moddiy farovonligi oshadi.

Xalqlar o'rtasidagi madaniy, ma'naviy va ma'rifiy munosabatlar, aloqalar, shu jumladan, ma'rifiy turizm yanada rivojlanadi va takomillashadi. Barcha xalqlarning har tomonlama rivojlanishi kuchayadi. Iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa munosabatlarning o'sishi, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarga, xalqaro vaziyatga ijobiy ta'sir etadi, xalqaro tinchlik va hamkorlik

kuchayadi. , omillar yanada kengayadi. Bular natijasida kishilar moddiy hayoti yaxshilanadi, moddiy farovonligi oshadi.

III bob bo'yicha umumiy xulosalar

III bob bo'yicha xulosa

1. O'zbekiston istiqloлга erishgach, uning YUNESKO bilan aloqalari nihoyat darajada faollashdi.
2. 1991 yil may-avgust oylarida YUNESKO tomonidan "Buyuk ipak yo'li – muloqot yo'li" shiori ostida O'rta Osiyo hududida xalqaro ekspeditsiya bo'lib o'tdi.
3. O'zbekiston Respublikasi mustaqil hayot va taraqqiyot yo'lidek eng buyuk yo'lni tanlab, «Buyuk ipak yo'li»ni ham qayta tiklash g'oyasini birinchilar qatori ilgari surgan va ushbu g'oyani royobga chiqarish uchun tinimsiz harakat qilayotgan davlatdir.
4. O'zbekiston Respublikasi Samarqand shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va YUNESKO tomonidan Markaziy Osiyodagi izlanishlar xalqaro instituti tashkil etildi.

XULOSA

Buyuk ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'lib qolmasdan, Yevrosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan jarayondir.

Magistrlik dissiryatsiyasi ishning asosiy qismida bayon etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib quyidagilarni xulosa tariqasida berishimiz mumkin:

1. Qadimiy karvon yo'llari joylashgan Turon ellarining rivojlanishi, Sharq bilan G'arb, Shimol bilan Janub o'rtasidagi an'anaviy do'stona munosabatlarning yuksalishi, turkiy xalqlar madaniyatining ravnaq topishida Buyuk ipak yo'lining hissasi katta bo'lgan.

2. Dunyo fani va madaniyatining ravnaqiga, hunarmandchilik va sanoat markazlarining tarkib topishiga, davlatlararo siysiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning o'rnatilishiga Buyuk ipak yo'li ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

3. Buyuk ipak yo'li bo'yida joylashgan O'zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Termiz, Shahrisabz shaharlari sivilizatsiyasida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati beqiyosdir.

4. O'zbekiston Buyuk ipak yo'li an'analarini qayta tiklash va rivojlantirishda birinchilar qatorida harakat qilayotgan va tashabbus ko'rsatayotgan davlat hisoblanadi.

5. Tog' qulashi, suv toshqini, zilzila, qor ko'chkilari kabi tabiiy-iqtisodiy omillar Buyuk ipak yo'lining asosiy va yordamchi tarmoqlarining ahamiyati o'zgarib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Lekin asosiy o'zgarish o'rta asrlardagi buyuk gografik kashfiyotlar arafasida boshlandi. Ayniqsa, G'arbni Sharq bilan birlashtirgan janubdagi nisbatan xavfsiz va arzon dengiz yo'lining kashf etilishi munosabati bilan Buyuk ipak yo'li o'zining dastlabki savdo-sotiq va davlatlararo diplomatik munosabatlar o'rnatishdagi o'z mavqeini asta-sekin yo'qota bordi.

6. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Buyuk ipak yo'lining eng taraqqiy etgan davri VI-VII va X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Lekin Kichik, Markaziy va Sharqiy Osiyo hamda Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy va diplomatik aloqalar o'z maromida davom etgan.

7. Bosqinchilik urushlari tufayli Buyuk ipak yo'li va uning muhim bo'g'inlarida hayot inqirozga uchragan paytlari bo'lgan. Jumladan, arablar va Chingizxonning qonli urushlari, xonliklarning o'zaro nizo va urushlari salbiy ta'sir ko'rsatgan.

8. O'lkamiz hududida Buyuk ipak yo'lining uzil-kesil tanazzulga uchrashi o'rta asr o'rtalaridagi siyosiy-iqtisodiy voqealar bilan bog'langan. O'lkamiz doirasida Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va uning inqirozga yuz tutishigacha bo'lgan davrlardagi o'ziga xos bosqichli tarixiy-geografik silsilasini chuqur tadqiq etish ham muhim mavzu hisoblanadi.

Taklif va mulohazalar

- Buyuk ipak yo'lining asosiy va tarmoqli qismlarini tabiiy va iqtisodiy geografiya, etnografiya, arxeologiya, ekologiya kabi fanlarning nazariy va metodologik asoslariga tayanib tadqiq etish, karvon yo'llarining har ikkala tomoniga tutashgan maydonlarning tabiiy-ekologik va o'lkashunoslikka oid xaritalarini tuzish.

- Tarixiy-geografik tadqiqot ishlarini o'lkamiz miqyosida yanada jonlantirish va yagona dastur asosida uzluksiz olib borish zarur.

- Qadimgi arxeologik obidalar orqali o'tgan Buyuk ipak yo'lining tarmoqlariga maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish, tadqiqot jarayonida qadimgi qo'lyozma kitoblar, toponomik, arxeologik ashyo va dalillar, toshlarga o'yib yozilgan yozuv, chizma va naqshlar, hozirgacha yetib kelgan afsona, ertak, rivoyat va hokazolardan unumli foydalanish zarur.

- Manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlarni atroflicha tahlil qilish va umumlashmalar yaratish g'oyat muhimdir.

- O'lka ekologiyasi o'zgarib borishini aniqlash va imkoniyatlarini baholash, xalqaro, mamlakat, regional va mahalliy ahamiyatga molik turistik va sport-sog'lomlashtirish, eng muhimi kelajakda qadimiy Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamkorlik va samimiy muloqot yo'liga aylantirish.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

Rahbariy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsuyasi. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2018.
2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston. 2017.
3. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2017
4. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. O'zbekiston.2018
5. Sh.Mirziyoyev. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent, O'zbekiston. 2018
6. Sh.Mirziyoyev. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. «Xalq so'zi». 2016 yil, 19 oktabr.
7. Sh. Mirziyoyev. Farzandlar sog'lom yurtning kelajagi buyukdir. Xalq so'zi. 2017.
8. Sh. Mirziyoyev. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik - xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. Xalq so'zi. 2017.
9. I.Karimov. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T:Manaviyat;2008
10. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T:1998
11. Karimov I.A. Savdo yo'lidan Ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar. 2 jild. - Toshkent, “O'zbekiston”, 1996. 366-368-betlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. - Toshkent, 1997.
2. Buyuk Ipak yo'lidagi Markaziy Osiyo shaharlari. Konferensiya materiallari. Samarqand, 1994.B.176-178.


3. Jabborov I. Buyuk Ipak yo'li chorrahasidagi tarixiy obidalar. Moziydan sado. 2004 yil. 3-son.B.21-22.
4. Jabborov I. Ipak yo'li afsonalari. - Toshkent, "Fan", 1993.
5. Zokirov Sh., Soatov A. Bu qadim yo'llar. Fan va turmush, 1991 yil. 7-son.
6. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. - Toshkent, "O'qituvchi", 1997.B.125-126.
7. Masharipov Q. Xorazmning Yevropa bilan savdo aloqalari. Moziydan sado. 2003 yil, 2-son.
8. 13.Mirzayev R. Ibn Fadlan: turklar mamlkatiga safar. Moziydan sado, 2005 yil, 1-son
9. Mirzayev R. Entoni Jenkinsonning Buxoroga sayohati. Moziydan sado, 2004 yil. 4-son.B.33-34.
10. Mirzayev R. Syuan Syan: budda ziyoratgohlariga sayohat. Moziydan sado, 2004 yil. 1-son.
11. Rahmonov Sh.A. Buyuk Ipak yo'lidagi bojxona. Moziydan sado. 2001 yil. 4-son.B.15-17.
12. Rahmonov Sh.A. Tavka. Turon-Movarounnahr sivilizatsiyasi. – Toshkent, A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2001.B.133-135.
13. Shirinov T. G'arb bilan Sharq uchrashgan diyor. "Xalq so'zi", 2004 yil 16 oktabr.
14. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - Toshkent, 1997.B.118-119.
15. Xoliqova R. Abdullaxon rabotlari va sardobalari. San'at tarixi. 2003 yil, 2-son. B.16-18.
16. Xo'jayev A. Xitoy manbalarida so'g'dlarga oid ayrim ma'lumotlar // "O'zbekiston tarixi".N1. 2004. B. 52-61.
17. Xo'jayev A. Farg'ona vodiysining Xitoy bilan savdo aloqalari. Moziydan sado, 2005 yil. 1-son.B.12.
18. Xo'jayev A.Buyuk ipak yo'li. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2007. B.91-92.
19. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. - Toshkent, 2000.

20. O‘zbekiston tarixi. - Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2003.
21. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2, 4, 6 jildlar. – T., O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2000-2005 yu.
22. Кобзева О.П. У истоков научного изучения Великого шелкового пути. O‘zbekiston tarixi. 2000 yil. 4-son.В.34-36.
23. Кобзева О.П. М.А. Стейн – новый археолог Шелкового пути. Вестник НУУз. 2000, №4.
24. Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. - Т., 1999.С.78.
25. Формирование и развитие трасс Великого Шелкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье. Тезисы докладов. - Самарканд, 1990.

Internet saytlari

1. www.e-tarix.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.arxeologiya.uz

ЎОVALAR



Buyuk ipak yo'lining xaritasi






Zamonaviy karvon



Sian shahri buyuk ipak yo'lida



Buyuk ipak yo'lidagi shaharlar



Eramizdan avvalgi II asrda Buyuk Ipak Yo'li



Buxoroning umumiy ko'rinishi



Buxoro arki yonidagi zamonaviy karvon



Termizdagi Fayoztepa yodgorli





Termizdagi Sulton Saodat majmuasi



Xivaning umumiy ko'rinishi



Xazoraspdagi Sulaymon qal'a



Samarqanddagi Registon majmuasi



Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasi



Bomiyondagi Budda haykali (Afg'oniston)



Ko'hna Marv xarobasi



Marv shahridan o'tayotgan karvon



Hirotdagi Bolo Hissor



Hazrati Ali masjidi (Mozori Sharif)

